

SONGUL UNSAL

Umidning Beshinchi Mavsumi

Umid, ichingizda ulg'aytirgan mavsumda yashirin.




*MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY
OLGAN KITOBLAR*

SONGUL UNSAL

UMIDNING BESHINCHI

MAVSUMI



*BEST-BOOK
TOSHKENT – 2022*

*“BEST-BOOK” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Olimpos” nashriyoti bilan “Akdem Telif Haklari ve Tercüme” agentligi vositachiligida 2022-yil 3-yanvarda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Agar kitobning orqa muqovasida qalbakilashtirishdan himoyalovchi vosita **gologramma** bo‘lmasa, demak, bu kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qilishingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo‘lamiz va sizga kitob sovg‘a qilamiz.*

UO‘K: 821.512.161-3

KBK: 84 (5Turk)

U-53

Songul Unsal. “Umidning beshinchi mavsumi” / turk tilidan Aziza Xusanboeva va Risolat Ibragimova tarjimasini / “Millionlab insonlar qalbidan joy olgan kitoblar” turkumi – T.: “BEST-BOOK”, 2022. – 176 bet.

Inson qayta turolmaydigan darajada yiqilsa ham bir kuni yana oyoqqa turishga umid qiladi, chunki umid qilmoq Yaratgan taslim bo‘lishning eng chiroyli ko‘rinishidir.

O‘rnimizdan turish uchun harakatga tushamiz, hammasini qaytadan boshlash kerakligini bilamiz. Aynan shu onda o‘tmish xotiralari saboq olib, kelajakning baxtli kunlarini orzu qila boshlaymiz.

Ba‘zida kichik bir jasorat hammasini o‘z o‘rniga tushirish uchun kifoya qiladi. Eng qiyin vaziyatlarda ham chiqish yo‘li har doim mavjud bo‘lgan. O‘zingizni zulmatda qoldirmang, o‘zingizni tark etmang. Tark etsangiz, hech kim qalbingizga yaqinlasha olmaydi.

Ertangi kuningiz tabassum qilsin. Siz ushbu beshinchi mavsumga eng munosib insonsiz. Har bir inson qalbida o‘z mavsumini olib yuradi. Ular beshinchi mavsumni hayotiy tajribalari bilan o‘z olamiga uyg‘unlashtiradi.

Hayot kimgadir yoz, kimgadir qish, kimgadir bahor kabidir. Sabr qilganlarga esa har doim gullar bilan burkangan yo‘llar nasib etadi.

Duo, umid va sabr bilan go‘zal qalbini to‘ldirgan insonlarning so‘ngi mavsumi har doim bahor bo‘ladi.

UO‘K: 821.512.161-3


KBK: 84 (5Turk)

ISBN: 978-9943-8134-3-4

© Songul Unsal.

© “Olimpos” yayinlari & “Akdem Telif Haklari ve Tercüme” ajansi.

© “BEST-BOOK” nashriyoti.



Umidning beshinchi mavsumi

Hayotda ko'plab tuyg'ularga sohib bo'la olmaganligimizga, boshqalarning qalbiga kirolmaganimizga, shosha-pisha olingan qarorlarning ko'pi naqadar xudbinlarcha va hatto insoniylikdan uzoq bo'lganligiga ko'p marotaba guvoh bo'lganman va bo'lyapman. Ojizliklar, oldindan chiqarilgan noto'g'ri xulosalar, befarqliklar bizni so'yish uchun eshik ortida o'tkir pichoq bilan payt poylab turibdi. "Meni kunning qaysi qismida qaysi tuyg'ular o'z tushkunligi bilan asir olarkin? Qaysi azob-u uqubatlar o'zaro birlashib meni mag'lub qilishar ekan?" kabi xavotirlarim so'nggi kunlarda yanada ortib bormoqda.

Sizga qalbmning tub-tubidan murojaat qilyapman. Endi qalbmning eng chuqur joyidan topgan sirlaringizni unutishingiz uchun harakat qilyapman. O'lik qalblarga qasddan,

hech bir ikkilanmasdan goʻzallik urugʻini ekaman. Oʻzimga oʻzim soʻz berdim: odobsizlarning bezbetligiga parvo qilmasdan, goʻzallik urugʻini ekaman! Bu urugʻni tanigan, taniydigan va hatto tanimagan barcha insonlarning yuragiga ekaman! Olgan har nafasimga “Umid” deya noma berdim. Olgan nafasimga teng boʻlgan har bir umidim tufayli hayotdan qaysarlaracha zavq olaman, boshimga nima kelsa ham kurashishdan voz kechmasdan tabassum qilaman, hatto koinotga yana qayt-qayta salom beraveraman. Qalbim-u ruhimni Rahmonning goʻzalliklariga bor kuch-gʻayratim bilan suyab, turmush qaygʻulari orasidan zavq bilan chiqib ketaman. Bugundan boshlab hayotimda umidning beshinchi mavsumi boshlandi. Oʻzimga oʻzim shuni vaʼda berib, taʼkidlay olaman: umid endi besh mavsumdir. Mendan qoʻrq, HAYOT!

Ochofatlar, sizlarga aytyapman, barcha loqaydlar! Ham-mangiz shunchalik ochkoʻzsizki: koʻzlaringiz oldingizdagi likopcha bilan kifoyalanmay boshqalarning likopchalariga tikilyapti. Shuning uchun asta-sekin yaxshi niyatni, samimiylikni, eng muhimi, insoniyatning bebaho qadriyatlaridan biri boʻlgan muhabbatni oʻldiryapsiz! Hech qanday qarshiliklarga uchramay, gʻururingizni oyoqosti qilmay qadringizni bagʻringizga bosishni qachon unutishga ulgurdingiz? Shoyadki, ichingizdagi ochlikni oʻldirgan paytingizda — agar oʻsha kun kelsa — ana oʻsha paytda boshqalarning his-tuygʻularini oʻl-

dirishdan tiyilarsiz. Bilaman! Yo'ldan ozgan ruhlaringizning atrofda kezib yurishini bilish tufayli ta'rifsiz azobga mahkumman. Bir kun kelib hammasi o'z iziga tushadi. "Hech bo'lmasa, go'zallik ekaman", — deb o'zimga va'da berdim. Endi siz ham o'zingizga va'da bering. Tanigan, taniydigan va hatto, tanimagan har bir insonning qalbiga go'zallik ekishga va'da bering!

Qo'llarim bilan qalbimni ushlab ko'raman; ha, u joyida, hali ham urmoqda. Lekin nega uni his qila olmayapman? Bilasizmi, eng yomoni nima? Ichimdagi his-tuyg'ularni tasvirlash uchun so'z topolmayapman. Go'yo men bilgan barcha so'zlar buni tasvirlash uchun yetarli emasdek... Shunday insonlar bo'ladiki, ular bilan biror-bir joyda endigina tanishgan bo'lsangiz ham, darrov siz bilan samimiy suhbatlasha boshlaydi. Hattoki sizni yaxshi tanimasa ham, qarashlaringizdan qayg'udardlaringizni anglaydi, hamdard bo'ladi. Oxirgi paytlarda mana shunday insonlarga duch kelmay qo'ydim. Vaholonki, atrofim meni yaxshi ko'rishini aytgan insonlar bilan to'la bo'lsa ham bu yolg'izlik hissi zaharxandalar bilan qamralgan... Mabodo shunday insonga duch kelganimda ham u bilan gaplasha oladigan kuchni topa olamanmi-yo'qmi — bunisini bilmayman.

Endi o'zim bilan o'zim bir o'yin o'ynasam, bilgan barcha

harflarimni xayolimning ajabtovur kuchi bilan yonimga chorlasam va shunday desam: “Qani, menga o‘zimni anglatinglarchi?” Aynan shu holatda — g‘alati va butunlay chalkashliklarga to‘la davrning o‘rtasida — hatto xayoliy orzulardan ham yordam so‘rashga tayyor ekanman, siz-chi, siz ham shunday qila olasizmi? Bu so‘zlar ajoyib tasavvuringizdan kelib chiqib, o‘zingiz haqingizda aytib bersa, sizda ham shunday holatlar bo‘ladimi?..

Menda esa bo‘lib turadi, chunki men o‘zimni, o‘zligimni sog‘indim.

Shu kunlarda xayolimda g‘azablanish, siqilish va juda erinchoqlik kabi hislarni tuyyapman. Ha, sizga aytmoqchi bo‘lgan gaplarim juda ko‘p, lekin aytishga qulay fursat topa olmayapman, shu kungacha menga azob bergan insonlarni birma-bir, asta-sekin hayotimdan chiqarib tashlayapman. Biror narsaga erishish ostonasida ekanman, so‘nggi qadamni bosishga yaqin qolganda, muvaffaqiyatimni ko‘ra olmagan insonlarni o‘ylab kayfiyatim tushib ketadi. Bularning barchasi ishtiyoqim eng yuqori cho‘qqiga chiqqanida, hayotimda yangi qadamlarni va yangi marralarni maqsad qilayotganimda yuz beradi. Keyin esa — go‘yoki yuzimga tushgan tarsaki tushganday — haqoratlangan bir alpozda o‘zimni o‘zim yeb bitiraman. Sezdirmaslikka harakat qilyapman, lekin juda og‘ir bo‘lyapti. G‘urur, ya‘ni boshni tik tuta olish ham juda katta

ahamiyatga ega ekan. Chunki bunday paytlarda hech narsani sezmay, tilini yutgan odamday ogʻzimni ocholmay qolaman. Tirnoqlarimni kemiraman, oʻzimni biroz chalgʻitish uchun koʻchaga chiqib bir nechta doʻst-u yorlarga duch kelaman. Afsuski, barchasi yana behuda ketadi: axir, soʻzlar ichimdan chiqishini xohlamasa, har qancha urinmay, dilimdagini tilimga chiqara olmayman-ku. Qachondir kutilmagan vaqtda, kutilmagan tarzda ichimga yigʻilganlarni chiqarib tashlayman yoki “boshqalar” ichimdagi “men”ni yeb bitiradi. Hattoki mana shunday paytlarda har bir otgan qadamimdan nuqson topishsa ham, siqilmayman! Holbuki hammasini sinchiklab oʻylab, qalban his qilgan edim. Ichimdagilarni yaxshi koʻrgan insonlarimga yetkazish, taqdim qilish uchun qoʻlimdan kelgancha urindim. Boʻlmaydigan narsa, baribir, boʻlmas ekan, baʼzi narsalar qalbga muhrlanib qolar ekan. Oxir-oqibat, bu azobli tuygʻular qalbimda qolib ketyapti, oʻzimdan ham jahlim chiqadi. Hechqisi yoʻq, boʻlib turadi, biz ham insonmiz-ku, axir. Hayotimizni eʼtibordan chekkada qoldirsak, bunday holatlar koʻpchiligimizning boshimizga tushadi.

Mana shu chalkashliklar tufayli sabr kosamiz toʻlib-toshadi. Men esa mana aynan shu nuqtani umid deyman. U hali-hanuz bordir. Umid endi men uchun beshinchi fasl, uni mahkam tutaman va hech qachon qoʻyib yubormayman. Diqqatimni jamlay olmagan paytlarimda, ayniqsa, qoʻlimda, kaftim-

da umidga oid nima bo'lsa, hammasini dardlarimga sepaman. Ehtimol, qalblarimizning sevgi bilan go'zallashishiga ehtiyoji bordir. Bunga nima deysiz?

Ko'z yoshlarimni yashirdim...

Dardlarim s-zilmasligi uchun atrofimga tabassum bilan boqdim...

Ajoyib jummlalar tuzdim...

Ich-ichimdan to'kilib ketgan bo'lsam-da, qaddimni tik tuta oldim...

Oxir-oqibat, bir amallab, yo'lini topib, o'zimni davolashni uddaladim.

Qaniydi, ba'zilarining peshonasiga ham sigaret qutisi ustiga yozilgandek ogohlantirishlar yozilsaydi...

Misol uchun: "Sevish zararli!" "Aytilgan so'z — otilgan o'q" kabi jummlalar yozilgan bo'lsaydi...

Bilasizmi? Shunday paytlar bo'ladiki, kutilmaganda boshingizga turli xil ko'rgiliklar keladi. Menda ham aynan shunday bo'lgan. O'zimni butunlay boshqacha ruhiy iskanjalar ichida ko'rardim... Aslini olganda, bo'lishim kerak bo'lgan joyda hech qachon bo'lolmadim. Yaratilganimdan va ong-u aqlimni taniganimdan beri gullab-yashnayotgan turli xil tuy-

g'ularni turli nomlar bilan tasvirlab berdim. Bu tuyg'ular fazilatlarimni ko'paytirdimi yoki nuqsonlarimni — aniq aytolmayman. Lekin ba'zilari qo'rqinchli tushga aylandi. Hayotimning har kechinmasida ko'p narsalarni bilish va ularni chuqur his qilish meni bemor ko'rinishiga keltirdi. Holbuki hammasiga ishonchim komil edi, faqatgina buni isbotlay olmadim. *Yolg'onlari shu qadar kuchli ediki, mening rostgo'yligim ularga bas kela olmas edi.*

Vaqt kelgan, hattoki o'tib ham ketayotgan edi. Lekin endi vaqtimni boy berish niyatim yo'q. Hech bo'lmaganda, umrimning qolgan qismini baxt bilan to'ldirishim kerak edi. Endi yashash va haqiqiy o'zligimni aks ettirish vaqti edi. O'zim haqimdagi asl fikrlarni aniq tasavvurlar bilan qabul qildim. Chunki ulg'aydim! O'sha qayg'uli holat orqali katta bo'lishni hech qachon xohlamaslik, bir umr bolaligimcha qolish istagimni ichimga yutdim va hazm qilishga ulgurmay ulg'ayib qoldim! Ba'zi paytlarda qayg'u, baxt, ajablanish, sevgi, nafrat kabi his-tuyg'ular g'alayonida yashadim. Sevgi — men ta'riflay olmagan yoki qisman bo'lsa-da, ta'riflashga uringan tuyg'u edi. Hammamiz ham biror-bir orzumiz ro'yobga chiqmasa, “Menga nasib etmayapti, demak, Rahmonning bizga ajratgan o'z vaqti-soati bordir”, — deya o'ylanishga odatlanib qolganmiz. Buni har xil nomlar bilan ataymiz: ba'zan nasiba, ba'zan umid... Har bir inson, hatto, olimlar ham bu tuyg'u-

ning inson tabiatidagi ko'rinishini eng mayda-chuydasigacha o'rganib chiqqan: asrlar o'tgan bo'lsa-da, hali-hanuz har insonda har xil tarzda namoyon bo'ladigan bu tushunchalar menda qachon va qanday o'rtaga chiqdi ekan? Ochig'i, buni bilish o'zimga ham juda qiziq tuyulayotgan edi. Muhabbatga oshno bo'lgan har bir inson uni o'zicha talqin qildi, lekin men ta'riflay olmadim. "Eh, ko'ngil qurg'ur-a!" — deya, oxir-oqibat, o'zim istamagan holda sevgiga duch keldim. Yuzlab tilaklarni o'z ichiga olgan noxush kechinmalar ketma-ketligi tufayli o'zimni qoyadan tashlab, hayotimga nuqta qo'yishni shunchalik xohlardimki, asti qo'yavering. Lekin qachonki shunday qilmoqchi bo'lsam, umidning beshinchi fasli va'da bergan hayotimga aslo xiyonat qila olmadim. Nima qilay endi?

Yaxshiyamki, hayotimga beshinchi mavsumni qo'shgan ekanman, bo'lmasa holim qanday bo'lar edi, kim bilsin?.. Har birimiz muhabbatga o'zimizcha ta'riflar va tasvirlar berdik. Buni qarangki, hamma o'z ta'rifida haqli edi. Lekin ishq naf-ratga aylansa, bundan yomoni yo'q. Chunki insonlar haqiqiy muhabbat nimaligini bilmaganligi tufayli muammolar girdo-bida o'zini yo'qotib qo'yadilar.

Men — Ayzaman: o'sha baxtiqaro qizman. Men haqimda o'qisangiz, aslo o'rnimda bo'lishni xohlamas edingiz. Meni sizga u anglatadi... "Hammasi tugadi", — deganimda, meni

hayotga qaytargan shifokorim o'sha qizdir. Bu shunday bir hikoyaki, o'zim aytib berishga na toqatim yetadi, na xohishim bor.

Chunki Ayza: "Voz kechdim", — deganida yangi umid bilan hayotga tutashdi va yashashni, keksayishni, qayta dunyoga kelish maqsadini o'sha yerda yakunlashni xohlar edi. Ya'ni umidning beshinchi faslida...



Ayzani ilk marotaba oldimga olib kelishganida, shifokor bo'lsam ham, uni bu holatdan qanday olib chiqishni o'ylab qoldim. Hozirgi kungacha gazetalarda, ijtimoiy tarmoqlarda, televideniya va boshqa ommaviy axborot vositalarida ko'rgan va tomosha qilgan voqealarim bus-butunligicha o'z qarshimdan chiqdi. Shifokorlik qilayotganimga to'rt oy bo'lgandi va bunday holatga tayyormidim yoki tayyor emasdim — buni ham bilmas edim. O'zimga ishonmaydigan odam emas edim, lekin bu ishni uddalay olmasam, hech qachon o'zimni kechira olmasligimni ham bilar edim. Mahbuslar psixologi kim ekanligini bila turib, o'z ixtiyorim bilan aynan shu kasbni tanladim. Chunki kelajakda yozadigan kitoblarim uchun u yerdan yetarlicha manbalar topa olardim. Deyarli har bir bemorning hikoyasini mayda tafsilotigacha yozmoqchi edim.

Ushbu hikoyani ilk marotaba eshitganimda qahramonim-

ni ezgulikka, samimiylikka undagan tuyg'u muhabbat ekanligini anglagandim. Ayzaning tabiatida muhabbat qanday silkinishlar paydo qilganini va nafrat ayolni o'z his-tuyg'ularini o'ldiradigan qotilga aylantirganiga guvoh bo'lib, chuqur qayg'uga tushdim. Ayzaning g'ayrioddiy hikoyasi barchangizning qalbingizni hayajonga soladi va bu hayajonli hayot hikoyasida o'z kechinmalaringiz izini ham topasiz.

“Ashaddiy qotil”, — deganimga e'tibor qaratmang. Ayza — hayotiga kirgan har bir insonning tabassumini zulmatga aylantirgan. Ayza — dastlab insonlarning his-tuyg'ularini asirga olib, keyin esa ularda hayotga nisbatan g'azab uyg'otgan qotildir. U sizning his-tuyg'ularingizning ashaddiy qotili va o'sha odamning ham asl qotili edi. U o'zining go'zal chehrasi, beg'ubor qarashlari bilan bizga o'xshar edi. “Koinot gultoji” sanalmish insonning ezgu tuyg'ularni oyoqostiga qilib, nafratini hayotning shioriga aylantirishini kim ham xohlaydi?! U haqiqat nurini anglab, Allohga yuz tutishidan oldin bir jallod kabi edi. Bir kun qalbiga kuchli ta'sir qilgan o'sha insonni uchratganida hammasini ostin-ustun qildi va yuragini eng baland qoyadan abadiylikka jo'natib yubordi. Ayza endi oldingi Ayzaga qaytmaslik uchun o'sha odamni mahkam tutdi.

Bu ayol o'sha odam qalbi bilan bog'langanidan keyin hech narsa oldingi holatiga qaytmadi.

Yuragiga dastlab ovozi urildi va keyin esa...

O'sha kuni

Insoniyat xuddi qushdek qanot qoqib uchmoqchi bo'lganida nima bo'layotganini tushunib bo'lmaydigan, kutilmagan vaziyat yuzaga keladi va hayoti ostin-ustun bo'ladi. Hali uchishni o'rganmasidanoq qanotlari qayriladi. Qushning qanoti qayrilganidan keyin esa hech narsa avvalgidek bo'lmaydi. Katta badal to'lashga majbur bo'lgan va nohaqlikka uchragan inson qurbon rolini o'ynay boshladi. Yo'qotish taqdirida bor, lekin u nima qilib bo'lsa ham, o'zi uchun umidning yangi eshigini ochadi. Oradan yillar o'tishi bilan bunday insonlar yo'qotganlarining ichidagi beg'uborlikni juda sog'inishadi. Ishonch tuyg'usini yo'qotgan odamlar — ayniqsa, boshiga kutilmagan hodisalar kelgan Ayza kabilar —

portlashga shay turgan bomba kabi xavflidir. "Ma'sumlik tugagan joyda vijdonga joy qolmaydi" hikmati aynan shu onda oraga kirib, oldiga chiqqan hamma narsani supurib-sidirib tashlaydi. Qolaversa, o'tmishga qaytishga qarshilik ko'rsatadigan yuragi o'z mohiyatini ko'ra olmaydi, nima uchun yaratilganini, boshiga tushishi mumkin bo'lgan kechinmalarga qarshi qanday kurashish kerakligini ham bila olmaydi...

Umidning beshinchi mavsumiga o'tish ba'zan yoqimsiz boshlanadi. Lekin dilda umid bor ekan, yashash bizni qo'rqitmaydi. Nima qilib bo'lsa ham shikastlangan yurak o'zini o'zi davolay boshlaydi. Muhimi, ortga qaytib o'ziga, o'zligiga qaray olsa, bas. Afsuski, ba'zida o'z qalbiga nazar tashlash unchalik ham oson bo'lmasligi mumkin. Chunki, eng qiyini, his-tuyg'ularingiz ostin-ustun bo'lganida aybni kimdan qidirishni bilmaslikdir.

Har doim hayotdan ibrat olishimiz kerakligi aytilgan. Mayli, lekin buni qanday qilamiz?.. Agar ibrat olishga kuchi qolmagan odamning ishongan hamma narsasi yolg'on bo'lsa: "Bundan olinadigan saboq nima bo'lishi mumkin?" — deya o'ylanar ekanman, faqat oyatlar va bir qancha duolargagina suyandim.

Chunki o'zimni jonning egasiga — Yaratganga ishonib topshirdim. Kichkina yuragim allaqachon og'ir o'ylarim asiri

Meni aynan mana shu og'ir o'ylar chuqur larzaga solgan edi. Shu sababli eng yaxshisi — Allohga taslim bo'lish edi.

Balki, bu men olishim kerak bo'lgan saboqdir va dars qaytadan boshlanayotgandi...



Ayza o'sha kechasi jannatdagi joyi do'zaxga aylanishini kutmagan edi. Va bularning barchasi sodir bo'lgandan keyin jannatning eshiklarini yana ochish imkoniyati borligini bilsa, u yana shunday qilarmidi, ajabo? Borgan sari jahli chiqa boshladi. U baqirmoqchi bo'lsa-da, bu katta molxonada uni hech kim eshitmasdi. To'liq ishonch hosil qilmaguncha kurashishda, qutilishga intilishda davom etdi. Bog'langan arqondan qutilmoqchi bo'lib: "Yo'q, u menga bunday qila olmaydi, qilmasligi kerak", — deya o'zini aldardi. Afsuski, allaqachon kech bo'lgan edi. O'z dardini chetga surib: "Qaniydi, hech bir ishni bu ahvolgacha keltirmasam edi", — deb o'ylab, arqondan qutulishga intilishda, chiranishda davom etardi. Hammaning hikoyasi bir tarafga otilayotgan bir paytda Ayzaning hikoyasi tamoman boshqa makonga uchib borardi. Ochiq

eshikdan oyning g'ira-shira nuri va faqat xira, changli bulutlarning bir qismi ko'rinardi — boshqa hech narsa ko'rinmas edi. “Bunday qilma. Yetarli... Qo'yib yubor o'sha qizni...” — deganday kishnayotgan otlar ovozi atrofni ingratsa hamki, bu vaqtda hech kim uni qutqara olmas edi. Hattoki o'zini o'zi qutqarishga qilgan harakatlari ham behuda ketardi...

O'z nafasi yuzi oldida bug' hosil qilardi. Shu payt o'sha yerda o'lishni yoki hech qachon bo'lmagandek birdan g'oyib bo'lishni xohlardi. Molxonaning kirish eshigidan qochishga uringan Ayzaning qo'lidan ushlab, mana shu yerga tashlangan, umr bo'yi qayerga borsa ham o'zi bilan olib ketadigan bu la'nati tunni boshidan o'tkazishga sababchi bo'lgan odam Erbaydir, ya'ni o'zining eng ishonchli dugonasi — Duyguning unashtirilgan yigiti edi.



Universitetning bitiruv tadbiri kuni Duygu shosha-pisha Ayzaning yoniga keldi.

— Nega menga bunday vazifa berishdi? Sen butun konsert davomida o‘yin-kular ekansan-u, men esa parda ortida taqdimotlarni kuzatar ekanman-da!

— Duygu, ahmoqlik qilma, sen universitet radiosida eng yaxshi boshlovchisan. Hech kim bu kechani sendan yaxshiroq boshqara olmaydi. Nimalar deyapsan? Sen u yerda kutib turar ekansan-u, men faqat o‘ynab-kulamanmi? Albatta, men ham sening yoningda bo‘laman. “Meni yolg‘iz tashlab ketadi”, — deb o‘ylaganmiding?

— To‘g‘ri aytasan, men bu ishni qilishim kerak. Sen har doimgidek men bilansan. Seni sog‘inaman.

— Mana, yana keraksiz gaplarni gapiryapsan! O'qishni bitirayotgan bo'lsak ham, butun umrga ayrilayotganimiz yo'q-ku. Yana tez-tez ko'rishib turamiz.

— Ayza, endi sen bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiryapsan, sen o'z yurtingga, men ham o'z yurtimga qaytamiz. Keyin esa ishga kirish uchun yana davlat boshqaruvi imtihonlariga tayyorlanamiz.

— Voy, bu ham bor edi-ya?! Davlat boshqaruvi imtihoni! Shuncha yillar davomida mehnat qilamiz, mashaqqat bilan o'qiymiz, biroq hali-hanuz imtihon, imtihon, imtihon!

— Bizning haqiqiy imtihonimiz o'qishni tugatganimizdan so'ng boshlanadi. Ayza, Alloh bizni qo'llab-quvvatlasin. Axir, bunday mamlakatda omon qolishning o'zi eng katta imtihon emasmi? Undan ko'ra bu hayotda borligingga shukur qil, Ayza!

— To'g'ri aytasan, Duygu. Alloh bizga kuch-quvvat bersin. Biz ko'proq tayyorgarlik ko'rishimiz kerak. Bir-ikki soatdan keyin universitetda bo'lishimiz shart. Kechqurun sen bilan bazmda, karnay-surnaylar musiqasi ostida maza qilamiz. Shunday ajoyib bo'ladiki, asti qo'yaver.

— Ayza, hazillashma. Men bu tadbirni bir amallab o'tkazib olay. Tadbir tugagach, Erbay bilan bir masalani hal qilishim kerak. Endi ba'zi qarorlarni qabul qilishimiz kerak.

O'qishni bitiryapmiz, bu yerlardan ketaman va bunday mavhum ishlardan juda charchadim! To'y sanasini aniqlab olishimiz kerak.

— Senga aytim-ku, Duygu. Bir marta bo'lsa ham Erbay bilan gaplashib ko'ray. Mayli, nima bo'lsa, bo'lsin. U haddan tashqari ko'p ishlaydigan odam, ya'ni juda ham band odam. Joningdan to'ydirib yuboradi. U seni yaxshi ko'radi, oilangdan qo'lingni so'raydi, barmog'ingga uzuk taqadi, ammo senga e'tibor ham bermayapti.

— Bugun kechki bazmga u ham keladi. Agar kelmasa, nima qilishni o'zim bilaman. Menga va'da bergandi.

— Va'da bergan bo'lsa, albatta, keladi. Xavotir olma, Duygu. Qani, sen xonangga bor, endi men ham bemalol tayyorlana qolay, noumid xonim.

Shunga qaramay, hamma narsa juda sokin va o'z yo'lida ketayotgan edi. Bugun kechasi bitiruv bazmi tugaydi, hamma narsa o'z odati bo'yicha, go'yoki hayotning oqimi kabi davom etadi. Ular bir uyda yashashar, talabalikning barcha ehtiyojlarini birgalikda hal qilishar edi. Bo'sh vaqtlarida shahar bo'ylab sayohat qilish va suratga olish eng yaxshi ko'rgan mashg'ulotlaridan biri edi. Ayniqsa, kitobxonlik bo'ladigan kafelarida dam olish juda yoqardi. Ularning yagona maqsadi hech kimga qaramay, o'z xursandchiliklari orqasidan quvish bo'lsa

ham, endi, boya aytganimdek, hech narsa avvalgidek emas edi. Endi esa ikkalasi ham bitiruv kechasiga borishga tayyor edilar. O'sha paytda Duyguning telefoniga kelgan xabar barchasini ostin-ustun qilib yubordi. Chunki bugungi hayotimiz bir lahzalik qarorlar va voqealarga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan bir qiyofaga kirgan edi.

Hamma orzularingiz qarshingizdagilarning orzu ham qila olmasligi tufayli ham tugashi mumkin. Keyin esa butun kemani faqatgina o'zingiz boshqarayotganini tushunasiz. Yolg'iz o'zingiz kurashayotganingizni ko'rish qanchalik og'ir. Nima bo'layotganini tushunmasdan his-tuyg'ularingizning ostin-ustun bo'lishini ko'rish naqadar og'ir...

Inson barchasidan voz kechishga kecha oladi-ku-ya, lekin shuncha mehnat qilganingizdan keyin shunchaki bir qo'l siltab unutish oson emas. Mehnatlaringizning zoye ketmasligi uchun yana ham ko'proq mehnat qilish insonni juda charchatadi.

O'zingizni nochor his qilasiz, sizni xohlamaganlarga yaxshi gap aytishdan qo'rqasiz. Go'yo nima qilsangiz ham hamma narsa barbod bo'ladigandek.

Keyin esa...



— Duygu, tugatamizmi? Men qila olmayapman.

Lekin Duygu bu payt go'yoki aqldan ozayotgandi, nima qilishni ham bilmas edi. Boshidan o'tkazgan butun kechinmalari bir zumda ko'z oldidan o'tdi. Bir paytlar Duygu Erbayning yaxshi odam emasligini tushunib qolib, turmush qura olmasligini bildirib, voz kechmoqchi ekanligini aytgandi. Buni eshitganidan so'ng Kadikoy bandargohiga borib: "Agar ketadigan bo'lsang, o'zimni dengizga tashlayman", — deb baqirgan Erbay hozir to'satdan hammasining tugagani aytyapti. Ustiga-ustak, bu qarorni yolg'iz o'zi olgandi.

— Nima bo'ldi, Duygu? Nimani o'qiding-da, qotib qolding? Duygu, senga gapiryapman, meni eshityapsanmi! Menga ber shu telefonni!

Ayza xabarni o'qir-o'qimas:

— Bu bola aqldan ozganmi? O'qishni tamomlab ketmoqchisan-ku, shunga vahima qilyapti. O'qishni ham tugatyapmiz... E, Duygu sen shunga ham o'ylanib siqilib o'tiribsanmi? O'zingni qo'lga ol. Senga aytdim-ku, o'zim borib u bilan gaplashaman. Qani endi, seni universitetga tashlab o'tay. Erbay bilan o'zim gaplashaman, sen xavotir olma. Hammasi yaxshi bo'ladi, — deya tasalli berdi.

— Ahmoqlik qilma, Ayza! U hammasini tugatdi, ko'rmayapsanmi? Menga lom-lim demay, mening xohish-istagimni hisobga olmay, meni odam o'rnida ko'rmay bu ishni tugatdi-qo'ydi!

— Oh, Duygu! Senga shuni va'da beramanki, buni, albatta, hal qilaman.

— Mayli, xo'p, gaplashib ko'r. Muddaosi nima ekan: bil. Lekin aslo kech qolma. Menga juda keraksan. Men bu kechani o'zim yolg'iz o'tkaza olmayman. Meni tushunyapsanmi?

— Mayli, Duygu, xavotir olma. Bir necha soat ichida qaytishga harakat qilaman. Hozir, sen taqdimot matnlaring bilan shug'ullan. Bu haqda o'ylamaslikka harakat qil. Xo'pmi?



3 soat oldin...

Erbay odatdagidek oddiy yumushlarini bajarib, shirkatdan endi ketmoqchi bo'lib turgandi, to'satdan onasi kirib keldi.

— Gaplashib olishimiz kerak, Erbay. Hozir! Darhol!

— Tinchlikmi, oyi? Siz, odatda, shirkatga kelmas edingiz?

— Aslo tinchlik emas, o'g'lim. Sen nimalar qilib yuribsan? Duygu bilan to'y qilish arafasida ekansan-u, lekin Ayzaga nega ilakishib yuribsan?

— Qanaqa Ayza, oyi, nimalar deb valdirayapsiz?

— Bo'yingga ol, Erbay! Ha, mening janob o'g'lim kechasi mast holda kelib, ertalab kech uyg'onib, shosha-pisha chiqqani uchun, albatta, u karavotining yostig'ida yonida nimalarni unutib qoldirganini eslolmaydi-da.

— Qanaqa karavot, qanaqa yostiq? Oyi, nima bo'layotganini tushuntirib bera olasizmi?

Erbay shunday der ekan, ichidan: "Yo'q, onam bilmaydi, meni sinab ko'rayotgan bo'lsa kerak. Lekin qanday qilib o'zi ham bilmaydigan narsa bilan meni sinab ko'rishi mumkin?" — deb o'ylar edi.

Shunda onasi sumkasidan bir necha qog'oz va kichik sovg'a-salom qutchasini Erbay oldidagi stol ustiga otdi va:

— Bularga bir qara-chi, nimalar bo'lyapti ekan? Yaxshilab qara va menga bularni tushuntirib ber. Ertalabdan beri senga telefon qilmaslikka o'zimni zo'rg'a majburlab turgandim, lekin chiday olmadim va yoniga yetib keldim!

Erbay stol yonidagi kresloga o'tirib, onasi sumkasidan olib, oldiga tashlagan qog'ozlarni tekshira boshladi. Ushbu qog'ozlarda o'z qo'llari bilan jummlar ham bor va ularda Ayza-ga o'z his-tuyg'ularini birma-bir anglatgandi.

Endi, Erbay nega anchadan beri Duygudan bunchalik uzoqlashayotgani tushunarli edi. Inson sevganining eng yaqin

dugonasiga qanday qilib ko'zini olaytirar ekan, qanday qilib unga sevgi izhor qila olarkin?..

Vaqt o'tgan sayin yoshlar juda shiddat bilan hayot kechirib, o'z had-sarhadlaridan chiqib, e'tiqodlariga va axloqiy qadriyatlariga befarq bo'lib ketishmoqda.

— Oyi, hammasini tushuntirib beraman. Ammo bu qanday sodir bo'ldi — o'zim ham anglamay qoldim. Bir necha oy oldin Duyguni uyga tashlab qo'ygandim, eshikni dugonasi Ayza ochdi va uni ko'rganimdan keyin hech narsa oldingi holatga qaytmadi. Avvaliga o'zim ham buni tan olishni xohlama-dim, lekin bu tuyg'udan o'zimni asrab qola olmadim.

— Mana, sen hali ham uyalmay-netmay Duyguning no-mini tilingga olyapsan. O'g'lim, o'zingga va o'sha qizlarga nimalar qilib qo'yganingni bilasanmi? Sen hoziroq Duyguga qo'ng'iroq qilasan, gaplashmoqchi ekanligingni aytib, bu oqshom u bilan ajrashasan. Bu qiz seni juda yaxshi ko'radi. Eh, buni unga qanday ravo ko'rding? Xo'sh, dugonasi Ayza sening o'ziga bo'lgan his-tuyg'ularingni biladimi?

— Yo'q, oyi, bunday qila olmayman. Duygu buni ko'tara olmaydi. Ayza meni ichimda yashayotgan bir tuyg'u — hech kim buni bilmaydi. Ikkalasi ham o'qishni bitirib ketishadi. Ayzani boshqa hech qachon ko'rmayman. Axir, baribir, Duygu bilan turmush quramiz, buni o'zingiz yaxshi bilasiz. Bu

mening qoʻlimdan kelmaydi, oyi, bunday qilishimni soʻramang. Aslo qilolmayman!

— Bu qizlarga bunday azoblarni ravo koʻrishingga haqqing yoʻq. Ular opa-singildek qadrdon. “Oʻqishni bitirgach, bir-birlarini koʻrmaydilar”, — deb oʻylayapsanmi? Erbay, agar sen gaplashmasang, men oʻzim borib gaplashaman. Men aytadiganimni aytdim. Yaxshilab oʻylab, qaror qabul qil. Uyga qaytganingda bu muammo hal qilingan boʻlsin.

Nima qilarini bilmay oʻyga tolgan Erbay butunlay sarosimaga tushgandi. Bir tarafda hayotida boʻlgan Duygu, ikkinchi tomonda qalbini oʻziga rom etgan Ayza va, ustiga-ustak, qatʼiy shartlar qoʻyib ketgan onasi ham bor.

Erbay shularni oʻylar ekan, ichi-ichidan: “Eh tentak Erbay! Shunchalik ham ichasanmi? Mayli, ichishga ichibsana, his-tuygʻularingni nega qogʻozga tushirasan?” — deya oʻziga oʻzi tanbeh berardi.

Barcha yaramasliklarning onasi hisoblanmish ichkilik yana harakatga tushdi va butun kuchi bilan yangi hayotlarni yoʻq qilishda davom etardi! Ustiga-ustak, Duygu Erbayning ichkilik ichishidan xabari ham yoʻq. Uni ham oʻzi kabi iymon amrlariga, qadriyatlarga sodiq, odob-axloqli bir inson sifatida tanir edi. Chunki Erbay uning eʼtiborini jalb qilish uchun yolgʻon gapirgan edi. Ibodat, namoz Erbayni aslo qiziqitmas

edi. Uning sevimli mashg'uloti faqat qimmatbaho mashinalari va otlar edi, xolos. Erbay o'zi o'ylagan narsaga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydiganlardan edi. Bunday turdagi insonlarni ko'pincha teleseriallarda uchratamiz. Erbay ham aynan o'shalar kabi edi. Ota-onasi ham xuddi o'zi kabi rakabbur edi, ya'ni Erbayga boylikdan boshqa hech narsa bera olmagan edi. U shaxsiy xizmatkoriga ega bo'lgan, faqat bugungi kuni bilan yashaydigan nusxalardan edi. Ammo Duygu Erbayning na bunchalik boy ekanligini va na bunchalik olifta ekanligini bilar edi. Duygu: "Meni chin dildan, samimiy sevadigan, qiyomatga qadar birga bo'ladigan insonga ko'ngil qo'ydim", — deb o'ylardi. Ha, ba'zan kutilmagan tarzda sinalamiz. Buning sinov ekanligini anglashimiz hamda ko'zimizni ochishimiz uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi.

Buni boshqa nom bilan atashamiz, ya'ni taqdir deyishimiz ham mumkin.

Yaxshi niyat, poklik, samimiyat va yana qanaqadir nom bilan ataladigan fazilatlar sevgi oldida o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Inson muhabbatga muhtoj bo'lganida ko'zi parda bilan qoplanadi. Nimaga ishonishni xohlasa, shunga ishonadi. Imkoniyatlarni, ko'ziga ko'ringan xatolarni ko'rib turib, ko'rmaslikka oladi. Odamlar sevgi dardiga muhtalo bo'lganlarida hech narsaga ahamiyat berishmaydi.

Qanday nochorlik! Inson sevgiga muhtoj bo'lar ekan, aynan qilmasligi kerak bo'lgan narsalarni qilishi qanchalik ojizlig-a?

Maslahat berish qanchalik oson. Bu o'z olovda yonmagan odamlarning olovni tasvirlashiga o'xshaydi. Ishq olovida yonmoq bunchalik ham oson emas. Agar siz ham sevib qolsangiz, ozgina mehr ko'rsatadigan odamga bir zumda taslim bo'lasiz. Albatta, doimo boshqalarning ardog'ida, doimo boshqalardan xushomad ko'radiganlardan biri bo'lmasangiz...

Buning eng katta sababi o'zimizni sevmasligimizdir. Biz o'zimizni sevmaymiz-u, ammo boshqalardan sevgi kutamiz. Agarda u o'zimizdan e'tibor va sevgisini tortib olsa, aqldan ozay deymiz. Uning sevgisini qozonish uchun qilgan barcha xatti-harakatlarimiz teskari natija beradi, ya'ni bizni undan uzoqlashtiradi. Chunki ko'ryapmizki, qarshimizdagi endi o'zi bilganini qiladi — axir, o'ziga kerakli narsani bizdan olib bo'ldi-da.

Biz har doim umidlarimizni bittagina orzumiz ichiga sig'diramiz. Yo'lga chiqar ekanmiz, biz uchun kurashgan insonning boshqa tomonini ko'ramiz, aslini ko'ra olmaymiz. Aslida esa, o'zimizni ezadigan his-tuyg'ular bilan tanishar ekanmiz, qalbimiz xohlamagan odamlarning sevgisini qozonish uchun

kurashayotgan bo'lib chiqamiz. Chunki aynan shu nuqtada sevgi o'z o'rnini hirsga bo'shatib berayotgan bo'ladi.

Inson o'ziga yetarlicha e'tibor va muhabbatni bermasa, demak, boshqa tomonga talpinayotgan bo'ladi.

Haqiqat shundaki, boshqalarning e'tibor va sevgisi o'z-o'zidan paydo bo'ladi va tabiiy ravishda qalbining tub-tubidan keladi. Uni nazorat ostida ushlab yoki majburan tortib olishga urinib ko'rishingiz xatolik bo'ladi. Sevgi, munosabatlar o'z-o'zidan paydo bo'lishi kerak. Agar qalbning tub-tubidan chiqmasa, bu munosabatlar sun'iy, yuzaki bo'lib qoladi.

Agar hayotingizga olib kirgan insonni birinchi o'ringa qo'ysangiz-u, u esa sizni ikkinchi o'ringa qo'ysa, faqatgina charchaganingiz, chekkan mashaqqatlaringiz qoladi. Axir, hayot — mashaqqatli safardan iborat-da. Hayot yo'limiz borgan sari mashaqqatlar bilan boyib boradi. Bu yo'ldan borishni istamaydiganlarni o'zingiz bilan birga olib ketsangiz, ular birinchi imkoniyatdayoq sizdan uzoqlashadi.

Sizni ushbu safarda zo'riqtirmaydigan, hafsalangizni pir qilmaydigan odam — eng samimiy, eng bag'ri keng odamdir. Zo'riqqan bo'lsangiz, ipni qo'yib yuboring, aks holda o'zingizni, umringizni boy berasiz. Hayot oqimi bilan uyg'un bo'lish hayotni go'zallashtiradi.



Erbay hatto nima yozganini ham eslay olmasdi. Yozganlarini onasining o'qiganligi esa dard ustiga chipqondek uni aqldan ozdirgandi. Qaysi ona o'z farzandini ranjitadi? Axir, u sevib qolgan edi. Zamonning bunday oliftalari har qanday hayajonni, har bir ishtiyoqni, havasni ishqqa yo'yishadi va ularni darhol ilohiylashtirdilar. U ham bunday bo'lishini xohlama-gandi, lekin, nachora, shunday bo'lib qoldi-da. U titrayotgan qo'llari bilan mo'jaz stoldagi qog'ozlarga qo'l uzatdi va u o'qiy boshladi:

...Sen meniki bo'lasan! Sen meniki bo'lasan, Ayza! Bu jumlar sahifalar to'lguncha uzluksiz takrorlanardi...

Ustiga-ustak, o'zi boshqa birov bilan unashirilgan bo'lsa...

Qanday qilib bu bechora ayol aqldan ozmaydi, axir? Uning o'g'li buzuqlik bilan yana o'sha gaplarni takrorlardi. Chunki u o'z fikrida qat'iy turadigan psixopat edi. Balki, uni pul bilan erkalatishlar o'rniga ozgina e'tibor berishganda, o'z holiga tashlab qo'ymaganlarida vaziyat boshqacha bo'larmidi?.. Ehtimol, Erbay o'zini bunday falokatlardan asrab qolishi mumkin bo'larmidi, insoniy fazilatlarga ham ega bo'lishi mumkin edi-ku, axir...

Erbay endi ikki o't o'rtasida qolgandi.

Ustiga-ustak, yuragi azoblanayotgandi.

Erbay o'zini bu muammolardan biroz chalg'itish uchun ofisning ayvonchasiga chiqdi. Bir muddat shaharni tomosha qildi. Odamlarni, mashinalarni, uylarni kuzatdi...

Lekin, baribir, diqqatini bir joyga yig'a olmasdi. Qanot qoqib uchishni, keyin shaharning o'rtasiga yiqilib g'oyib bo'lishni xohlardi. Axir, na Duyguni xafa qilishga haqqi bor edi, na Ayzadan voz kechish niyati bor edi. Unda zarradek bo'lsa ham insoniylik parchasi qolgandi va Duyguga achinardi. Ammo bitta qarorga kelishga majbur edi. Agar shu onda Duygu bilan yuzma-yuz bo'lib, hammasini tugatmoqchi ekanligini aytsa, buni uddalay olmasdi. Unda bunday jasorat yo'q edi. Chunki Duygu bunga chiday olmasdi. Shu bois tezda cho'ntagidan telefonini chiqarib, unga xabar yubordi. Bu

qarorini qanchalar tez va shafqatsizlarcha aytsa: “Duygu mendan nafratlanadi”, — deb o‘ylagan edi. Xo‘sh, Ayza nima bo‘ladi endi? Uni xayolidan chiqara olmayotgandi. Erbay bunday ikkilanishlar o‘rtasida sarosimaga tushib qolgandi. Shu onning o‘zidayoq shirkatdan chiqib, shahardan yarim soatlik masofada joylashgan sevimli go‘shasiga — o‘zini juda xotirjam fermasiga — borishni xohladi. Ammo onasi tun bo‘yi tinch qo‘ymasdi va buni yaxshi bilardi. Demak, birinchi navbatda, uyiga borishi, onasiga hammasini hal qilganini isbotlashi kerak edi.

Erbayning onasi manman ayol edi, shu bilan birga, oz bo‘lsa-da, vijdon va qalbgga ham ega inson edi. Ha, o‘g‘lini o‘z vaqtida shunday tarbiyalamagan bo‘lsa ham, o‘zi iymone‘tiqodli ayol edi! Erbay uyga kelgan zahoti Duyguga yuborgan xabarni onasiga ko‘rsatdi.

— Bu eng to‘g‘ri yechim bo‘ldi, o‘g‘lim, ishon. Ba’zida odamlar o‘zlarini aldashda davom etadilar. Xayriyatki, tuyg‘ularingni o‘sha kecha qog‘ozga tushiribsan. Aks holda qalbingda yanada chuqurroq yaralar ochilardi. Bilaman, hozir mendan jahling chiqyapti, lekin vaqt o‘tishi bilan meni tushunasani. Bularning hammasi o‘tib ketadi, menga ishon.

Erbay nima deyishni, nima qilishni bilmay qoldi. Ayza o‘zining unutilmaydigan xayolimi? Hatto o‘zi ham buni tushunmasdi. Nega bu qog‘ozlarga bir xil narsalarni uzluksiz,

takror-takror yozgan? Bo'lgan bu ishlardan juda ham afsusda edi.

— Men juda afsusdaman, oyi. Men endi biroz o'zimga kelib olishim kerak, bir necha kun fermada bo'laman.

Erbay fermaga kelgach, na o'tmishi va na kelajagi bo'lgan bu xayollarga yanada chuqurroq cho'kib ketdi. Qani edi, dunyoni, o'zini, hamma narsani, hammani unutar darajada mast bo'lsa-yu, bir necha kunlar davomida uyg'onmasa. Barcha yaramasliklar onasi bo'lgan ichkilik quchog'iga tushishiga bir baxya qolgan edi... Qaniydi, o'z vaqtida onasining tarbiyasini, pand-nasihatini olganida edi, bunchalik taltaytirilmaganda edi, ehtimol, bunday xatolarga yo'l qo'ymagan bo'larmidi?

Hozir shunday ahvol ediki, go'yoki o'zini butun bir dunyoning ichida emas, balki butun bir dunyoni o'zi ichida gir aylantirardi... Ko'z o'ngidagi hamma narsa xiralashib, eshushini yig'ib ololmas holga kelgandi. Ayza uning uchun voz kechib bo'lmaydigan orzuga aylangan edi... Ayzaning esa bundan xabari ham yo'q edi. Erbay esa buni aslo qabul qila olmayotgan edi. U fermaga kelar-kelmas xayoliga kelganini qildi, ya'ni ichkilik bilan o'zini ovutdi...

U otxonaga borib, eshik oldidagi turgan belkuraklardan birini olib, sevimli otini ura boshladi. U o'zini yo'qotib qo'y-

gandi, hattoki nima qilayotganini ham bilmas edi. U shunday bir asabiy holatga, tushkunlikka tushgan ediki, nima qilayotganining farqiga ham bormasdi. Otlarning nima gunohi bor? Bir paytlar har xil hayvonlar so'yilganiga achinib, otlarining yoniga borib cho'kkalagancha, ularni sevib ko'z yosh to'kkan Erbay qayerda qoldi endi?

Nega insonning qalbi azoblansa, o'ziga ham shafqatsizlik qiladi? Insonning tabiati aslida ham shunaqa johilmi?.. Yo'qsa yashirin xudbinligi namoyon bo'ladimi?.. Shubhasiz, insoniyat — anglab bo'lmaydigan murakkab maxluqot. Ha, insonning na anglaganlarida, na aytganlarida, na qilgan ishida biror-bir ma'no bor. Hech kim hayotni to'g'ri tushunmaydi, anglamaydi.

Fermaga yetib kelgach, otboqarni ham uyiga jo'natib yubordi, go'yoki bu yerda bir necha kun davomida o'zini tinchlantirmoqchi edi. Ishlar ham sekin-asta izdan chiqa boshlagan, otlar ham Erbay kabi aqldan ozishayotgandi. Ayni paytda qo'ng'iroq qilayotgan Ayzaning ham jahli chiqardi.

U g'azab bilan Erbayga: “Kut, oldingga boryapman”, — der edi.

Erbay: “Nega aytdim ekan-a? Nega shu yerda ekanligimni aytdim-a? Ketishim kerak, u meni bu ahvolda ko'rmasligi kerak, men darhol ketishim kerak...” — der ekan, yiqilib

tushdi. Joyidan qo'zg'alib, o'ziga kelmoqchi bo'lsa-da, negadir eplolmasdi. Eshikni tepa boshlagan Ayzaning ovozi eshitishi bilan o'zi ham kutmagan holda o'rnidan sakrab turdi va chorasizligi tufayli hech narsa qila olmasligini tushundi. Bariga qo'l siltab, to'g'ri eshik tomon qoqilib-surilib yo'l oldi.

Hayotni zulmatga aylantirish uchun bir lahzalik qarorlar yetarli.

Keyin esa...



Ayza eng yaqin dugonasining qayg'usini ko'rib, chidab tura olmadi. Erbay va Duygu o'rtasidagi yaxshi munosabatlarga nima bo'ldi ekan? Nega Erbay Duygudan he yo'q-be yo'q ayrilmoqchi bo'ldi?.. Ayza bularni o'ylab o'yiga yetolmasdi. Ustiga-ustak, bunda biror-bir mantiqiy sababni ham topa olmadi. Duyguning o'qishni bitirib ketishi bunga sabab bo'la olmasdi — buni aniq bilar edi. Lekin ayni vaqtda hammasi yaxshi bo'lishiga Duyguni ishontirishi kerak edi, u tadbirni muammolarsiz o'tkazish kerak edi-da, axir. Agar Duygu tadbirda taqdimot qila olmasa, kursdan kursga qolib, universitetni tugatishi kechikishi mumkin edi.

“Hoy, Erbay, sen hali mening qo'limga tushasan-ku, o'shanda nima qilishni o'zim bilaman”, — deya, o'ziga o'ziga ming'irladi Ayza.

Duyguni universitetga tashlab kelishi bilanoq Erbayga qo'ng'iroq qildi.

— Qayerdasan, Erbay?

— Men fermadaman.

— Kutib tur, oldingga boryapman.

— Ayza, oldimga kelma, kayfiyatim yaxshi emas. Iltimos, keyinroq gaplashaylik.

— Keyin emas, hozir, Erbay. Duyguni qay ahvolga tushirganingni o'zing bilasanmi?

— Ayza, iltimos, kelma: "Keyinroq gaplashamiz", — dedim-ku.

— Yo'q, Erbay. Men allaqachon yo'lga chiqdim, yarim soatda o'sha yerda bo'laman. Hech qayerga ketib qolma.

Ha, Ayzaning Erbayga tayyorlab qo'ygan achchiq, zaharxanda gaplari bor edi. Ha, bu gaplari bilan otadigan o'qlari Erbayning yuragiga tegadi va jonini yoqadi... Bu gaplari yuzga tushgan tarsaki kabi g'azab-u nafratga to'la bo'ladi... U jahl ustida fermaga qanday tezlikda yetib kelganini ham bilmay qoldi. Ayza tezda mashinasini molxonaning kirish eshigi oldiga qo'ydi va eshikni tepa boshladi:

— Och eshikni, Erbay. Ochsang-chi.

Erbay eshik oldiga kelar ekan, Ayza uni ko'rib hayratdan qotib qoldi. Erbayning yuzi qonga belangan, ko'z qorachig'i qizarib ketgan edi. Tirsagidan qon oqayotgan edi. Uning bu holini ko'rib Ayza vahimaga tushdi:

— Erbay, bu yerda nimalar bo'ldi? Nimalar qilib qo'yding? O'zingga shunchalar azob berdingmi? Duyguni shunchalar sevar ekansan, nega voz kechding, Erbay?

Erbay indamay orqasiga o'girilib, otlar turgan bog'lanib turgan tomonga yura boshladi.

— Erbay! Qayerga? Shoshmasang-chi, Erbay! Oldin seni shifokorga olib boray! Senga aytyapman, Erbay, to'xtasang-chi!

Erbay uning gapini ham eshitmasdi. Bu esa Ayzaning battar jahli chiqara boshladi. “Agar o'ziga jiddiy zarar yetkazganida edi, allaqachon o'lgan bo'lar edi. O'ladigan odam bunday nayranglarga bormaydi”, — deya yana beshbattar asabiy-lasha boshladi. Ayza Erbayning orqasidan ergashar ekan, gapirishda davom etdi:

— Hatto ochiq-oydin gapirmasdan, bir-ikki so'z bilan dugonamning orzu-umidlarini puchga chiqara olmaysan, tushundingmi? Hamma narsaga, har tomonga orqa o'girmasdan, ko'zlariga mardona, haqiqiy erkak kabi boqib: “Bo'ldi, endi hammasi tugadi”, — demasdan voz kecha olmaysan.

Unga buni qanday ravo ko'rding, a? Ahvolingga qara, o'zingga ham nimalar qilib qo'ygansan... Nima sababdan? Nima bo'ldi, Erbay? Muammo nimada, menga tushuntir. Hal qilishimiz mumkin.

Erbay endi xayolida ba'zi narsalarni ochiq-oydin aytishga harakat qilib ko'rishi kerakligini tushundi. Rad etilishini bilsa ham, nima bo'lishidan qat'iy nazar, Ayza bilan ro'yi-rost gaplashishga qaror qildi. Bema'ni xayollar surishdan to'xtab tura olmaydigan injiq aqli mastlik tufayli o'z sarhadlari buzib chiqqandi. Uning fikricha, yagona haqiqat Ayza edi. Bu ahmoqlikdan boshqasini anglatmasa ham, boshqacha tarzda o'zini tinchlantira olmas edi.

Erbay molxona eshigiga yetganida orqasiga o'girildi:

— Ayza, kelma, ket! Yaqinlashma, iltimos!

Shunday paytlar bo'ladiki, to'g'ridek ko'ringan narsalar bizga jahannamni yaratadi, ba'zi bir xatolar esa jannatni ko'rsatadi. Lekin haqiqat shuki, *vaziyat izdan chiqqandan keyin haqiqatdan qochib bo'lmaydi va u bilan yuzma-yuz bo'lish shartdir.*

Va keyin...



O'sha tunda hech biringiz eshitishni xohlamaydigan voqealar sodir bo'ldi... Ayzaning barcha orzulari-umidlari chilparchin bo'ldi... Erbay uning butun kelajagiga, ruhiga, qalbiga, tanasiga, ongiga tajovuz qildi... Ayza Erbayning qo'lidan qanday qutulib qolganini bilmay, jon-jahdi bilan u yerdan qochib ketar ekan, molxonaning eshigi oldida Duyguga to'qnashib ketdi. Ayza bunday bo'lishini aslo istamas edi, Duyguning bularga guvoh bo'lishini aslo xohlamagandi.

— Ayza, nega bu ahvoldasan? Bu yerda nimalar bo'lyapti, Ayza?

— Duygu, meni qo'yib yubor.

Ayza u yerdan uzoqlashish uchun, Duyguning savollar yomg'iridan qutulish uchun yer yorilsa-yu, uning tagiga kirib ketishga ham rozi edi. Nigohini ham, boshini ham egib, yashin tezligida yugurib, molxonadan chiqib ketishga muvaffaq bo'ldi. Endi Duygu ikki o't orasida qoldi. Ayzaning orqasidan borsa, fikr-xayoli Erbayda qolardi. Erbayning yonida qolsa, Ayzani o'ylardi. U, albatta, Erbayning yonida qolishni tanladi va shosha-pisha molxonaga kirdi. Erbay yerda hushsiz yotardi. Qo'rquvdan bechora Duyguning butun tanasi muzlab qoldi. Bir lahza: "Ayza o'zini himoya qilishda haddidan oshib, jangovarligini qo'llab Erbayni o'ldirib qo'ydi", — deb o'yladi. U darrov Erbayning yurak urishini tekshirib ko'rib, Allohga shukronalar aytdi. Lekin, aslida nima bo'lganligini bilsa bormi, Erbayga haqorat-u qarq'ishlarini yog'dirib, bu yerdan ortiga qaramay ketib qolgan bo'lardi.

Duygu vahimaga tushgandi. Nima qilish kerakligiga aqli ham yetmasdi. Eng oqilona qaror Erbayning onasiga qo'ng'iroq qilish ekanini o'ylab, darrov telefoniga yopishdi.

— Oyijon, oyi! Siz darhol fermaga kelishingiz kerak. Nima bo'lganini o'zim ham tushunmay qoldim. Ayza bu yerda edi. Lekin u yugurib qochib ketdi. Siz zudlik bilan bu yerga keling... Erbay hushsiz yotibdi... Nima qilishimni bilmayman... Juda ham qo'rqib ketyapman...

Bu gaplarni eshitgan Erbayning onasi aqldan ozar darajaga tushib qoldi. "Oh, bolam, umid qilamanki, sen hech qanday yomon ish qilmagansan. Iltimos, o'ylagan narsalarimni qilmagan bo'l, Erbay. Ishqilib, xayolimdagi ifloslik sodir bo'lmagan bo'lsin", — deya ich-ichidan zil ketib fermaga yo'l oldi. Fermaga kelganida Erbay endigina o'ziga kela boshlagandi. Duygu esa qo'lidagi idishdan suv olib Erbayning yuzini yuvarkan:

— Erbay, bu yerda nima bo'ldi? Men Ayzaga: "Borma, o'zim hal qilaman", — degandim, u menga quloq solmadi. Erbay, eshityapsanmi? Nimalar bo'ldi? — deyar edi.

Erbay o'ziga kelib, Ayzaning o'rniga onasi bilan Duyguni ko'rib hayron qoldi:

— Oyi, meni bu yerdan olib keting. Oyijon, iltimos, mendan jahlingiz chiqmasin, — deya onasiga yolvora boshladi.

U har doimgidek chorasizlikning so'nggi pallasida ma'sum bolakay qiyofasini yaxshi o'ynar edi.

— Duygu qizim, vahima qilma. Hech narsa bo'lgani yo'q. Erbayni ichkariga olib kiraylik, dam olib o'ziga kelsin. Keyin birgalikda nimalar bo'lganligini bilib olamiz.

Erbayni ichkariga olib kirishganlaridan keyin Duygu yuz-

qo'lini yuvish uchun tashqariga ketgan edi.

Shu vaziyatdan foydalangan onasi darrov Erbayga yuzlanib:

— Erbay, gaplarimni diqqat bilan eshit. Bu yerda nima bo'lganini bilmayman. Sen bilan bu haqida keyinroq gaplashamiz, lekin hozir bir amallab Duyguni bu yerdan jo'natishimiz kerak. Unga hech narsa dema, men o'zim hal qilaman.

— Kechirasiz, oyi. Kechirasiz, men bunday bo'lishini xohlamagandim.

— Erbay jim bo'l, o'zingni uyquga sol!

Duygu qo'llarini yuvib chiqqach, onasi darhol ko'rsatkich barmog'ini labiga qo'ydi va Duyguga sekinroq gapirishni ishora qildi va qo'lidan asta ushlab, tashqari olib chiqdi.

— Duygu qizim, aytganimdek, bu yerda nima bo'lganini bilmayman, nima bo'lganini bilishning hozir iloji yo'q. Erbay uxlab qoldi. Sen hozir uyingga ket, ertalab u bilan gaplashib, senga xabar beraman. Ayza ham bu yerda emas. Sen uyingga bor, Ayza allaqachon uyga yetib borgandir. Agar biror narsa o'rgansang, menga xabar ber.

— Ammo, oyijon, Erbay mast. Qanaqasiga?.. Men buni tushuna olmayapman. Ichkilik?.. Erbay?..

— Qizim, men ham bilmayman. Holimni ko'rib turibsan. Sen yo'lingdan qolma, Ayza bilan gaplash va darhol menga xabar ber. Bularning hammasining hisobini ertaga ertalab Erbaydan so'raymiz. Xavotir olma, endi, qani, uyingga keta qol.

— Xo'p, oyijon, xo'p, lekin Erbay uyg'onib gapirsa, soat necha bo'lganidan qat'iy nazar, menga qo'ng'iroq qiling.

— Mayli... Mayli...



Duygu o'sha kecha Ayzaga ham, Erbayga ham qayta-qayta, bir necha marotaba qo'ng'iroq qildi. Ikkalasi javob ham bermagach, bitiruv kechasidagi vazifasini dugonasiga topshirib, fermaga kelgandi. Bunday vaziyatga duch kelishini xayoliga ham keltirmagandi.

Uyga qaytayotganda Ayzaga ko'p marotaba qo'ng'iroq qildi, ammo Ayza qo'ng'iroqlarni ketma-ket o'chirib qo'yardi, natijada Duyguning barcha qo'ng'iroqlari esa javobsiz qoldi. Duygu bilmas ediki, Erbayning onasi o'g'lining telefonidan Ayzaning raqamini olib, Duygu fermadan chiqar-chiqmas Ayzaga qo'ng'iroq qilgandi va tahdid ham qilgan edi.

Ayza: "Allohning o'zi hammangizni jazolasin", — deya

telefonni o'chirib qo'ygandi. U qayerga ketayotganini bilmay, qorong'i yo'lning yonidagi daraxtzordan o'tib shahar tomon yugurib borardi. Hech kimga ko'rina olmasdi, ko'rinishni ham xohlamasdi. Uni shu ahvolda ko'rganlar unga yordam berishi ham mumkin edi yoki, aksincha, uni yanada yomonroq ko'yg'a solishi ham mumkin edi. Mana shunday qo'rquv tufayli faqat bir narsani istardi... Iloji boricha, tezroq uyiga borib, qo'lga nima ilinsa, hammasini chamadonga joylab, bu yerlardan, Duygudan, hammadan, hamma narsadan uzoqlashishni istardi. Shunday ham qildi. Ayza tezda kerakli narsalarni olib, yo'lida uchragan birinchi shahar hojatxonasiga kirib, kiyimlarini almashtirdi va eng yaqin mehmonxonaga o'zini urdi. Xonaga yetib kelgach, boshidan o'tkazgan voqealardan dahshatga tushib, karavotning oyoq uchiga cho'k-kalab o'tirdi. Bir qo'li bilan sochini mahkam ushlab, ikkinchi qo'lini musht qilgancha og'ziga tiqib, bor ovozi chinqirib, yig'lab baqirardi. U soatlab yig'ladi, o'yladi, biroq nimalar bo'lganini sira ham anglolmadi. O'sha paytda, o'sha daqiqada, o'sha soniyada boshdan kechirgan dahshatli jirkanchliklar tufayli hammadan, hamma narsadan nafratlanib ketgandi. Hatto butunlay boshqa odamga aylanishga ulgurgandi. Hech kimga — hatto Duyguga ham bildirmasdan — diplomni ham, universitetni ham o'ylamay, shunchaki uzoqlarga ketishga qaror qildi. Shunday ham bo'ldi. O'sha oqshomning ertasi

kuni Ayza avtovokzalga borib, yo'lga chiqqan birinchi avtobus bilan Eskishaharga yo'l oldi. Bundan oldin u yerga bormagandi, ustiga-ustak u yerda biror tanishi ham yo'q edi. Hamyonida uning so'nggi stipendiyasi va talabalik kredit kartasidan boshqa mablag'i ham yo'q edi.

Duygu Ayzani uydan topolmagach, qo'ng'iroqlariga ham javob ololmagach, vahimaga tushdi. U Ayzaning xonasidagi javonning ustiga o'tirib yig'lay boshlar ekan, shu onda javonning ochiq tortmasiga ko'zi tushdi. Ayza jizzaki bo'lsa ham, lekin juda tartibli qiz edi. U tortmasini ochiq qoldirish u yoqda tursin, hatto xonasiga chang ham qo'ndirmasdi. Tortmani yopmoqchi bo'lib endi qo'lini uzatgan edi, garderoab atrofida sochilib yotgan kiyimlarga ko'zi tushdi. Nimalar bo'lyapti o'zi? Shu ondayoq Ayzaning butunlay ketganini angladi. U darhol garderoabdagi eng yoqtirgan sevimli kardiganiga qarash uchun kirish tomon yo'l oldi, kirish eshigi yonida turgan oyna oldida o'ziga tashlab ketilgan bir parcha xatni ko'rdi. Ayza ketgan edi, lekin u xat qoldirib ketdi. Ayza ketishga ketgan edi, lekin bir parcha xati orqali Duyguni boshqa umuman ko'rishni xohlamasligini bildirib ketgandi.

Hech qaysi biringiz menga qo'ng'iroq qilmang. Birortangizni ham ko'rishni xohlamayman.

Ayza.

Duygu g'azablanib, Erbayning onasiga qo'ng'iroq qildi, uning telefoni o'chirilgan edi. Erbay esa hali ham uyquda edi. Ayzaga ham telefon qilib tusholmasdi. U tong otishini intizorlik bilan kutdi va saharda fermaga yo'l oldi.

Erbay bilan onasi allaqachon rejalarini tuzib, Erbayni qutqarish uchun Duyguga juda ko'p asossiz va yolg'on gaplarni aytishdi. Ayza uzoq vaqtdan beri tinmay Erbayning orqasidan yurganini, unga tinmay tahdid qilayotgani haqidagi hikoyalar bilan Duyguni zaharlashni ham uddaladilar. Duygu buni eshitgach nafratlanib, Ayzani izlashdan voz kechdi va Erbayni mahkam quchoqlab, uzoq yig'ladi.

— Bila olmadim, Erbay, meni kechir. Qo'ynimdagi ilonni ko'rmabman, — deb Erbayga tasalli berdi. Shu bilan birga: “Ayza, qachon bo'lsa ham, baribir, telefonini yoqadi-ku”, — deya o'ylab unga xabar yubordi:

Aslida men seni ko'rishni xohlamayman, Ayza. Sendan nafratlanaman. Qayerga borsang ham, o'sha yerda o'lib ket, boshqa bizning ko'zimizga ko'rinma. Alloh jazongni bersin. Qanday qilib Erbayga ko'z tikib yuribsan?

Ayza xabarni ikki-uch kundan keyin o'qigan edi. Telefonini ochgach xabarni ko'rib, hafsalasi pir bo'lgan Ayza Duygudan ham nafratlana boshladi va endi uning hech kimi qolmagan edi. U bir muddat oilasini aldab, universitetni tugatadigan

paytgacha o'zini yurgandek ko'rsatdi. O'qish tugagach yana oilasining yoniga qaytdi. U endi butunlay boshqa odamga aylangandi. U atrofidagilarga soxta tabassumlar qilar, yolg'iz o'zi qolishi bilan esa tinmay yig'lardi. Bo'lar ish bo'lgandi, ketgan ketib bo'lgandi, bu vaqtdan keyin kimga nimani tushuntiradi? Agar u gapirib bersa, oilasi muammoga duch kelardi, hamma narsa bundan ham battar chigal tus olardi. Bu haqiqatlarni hazm qilish biroz vaqt olsa ham, o'zini o'zi aldab, muammoni vaqtincha bo'lsa ham yopdi.

Ikki oy o'tgach, universitetning ijtimoiy tarmog'ida Duygu bilan Erbayning to'y taklifnomasini ko'radi. Shunda qalbida endi hech narsadan qaytmaydigan vahshiy qotil ruhini uyg'otish uchun ikkinchi qadamini tashladi. Noz-u karashmasi bilan duch kelgan erkakni o'ziga rom qilar va yana havoyi gaplari bilan ularni tashlab ketardi. Shu tariqa o'zidan ashad-diy qotil yasab olib, Erbay va Duyguning alamini boshqa erkaklardan olardi.



Insonlar bir-biriga darmon bo'lish o'rniga, aksincha yara-jarohat bo'lishda davom etishadi. Sinov ham aynan shu yerda boshlanadi. Yoki ichingizdagi go'zalliklarni mahkam quchoqlab, jirkanch tuyg'ulardan xalos bo'lasiz yoki baxt to'sig'idan sakrab o'tayotganda dard va yomonlikning sim devoriga ilinib, ruhingizni qonga bulg'aysiz.

Parchalanib, bo'laklanib to'kilgan qalblarga to'la shaharlar... Hamma tuyg'ularni singan qalblariga bosib, xasta holatga keltirishning uddasidan chiqar edi. Oxir-oqibat, bu ham odatiy bir holatga aylanib qoladi.

Sevgisizlikni, boshqalarning tushunmasligini o'ylab o'z qo-big'iga o'ralib olish, qanchalik kuchli ko'rinsa ham, aslida eng zaif holatdir. Inson kuchli bo'lishga majbur bo'lganida teskari holat yuz beradi, ya'ni zaiflashadi va o'zligidan uzoqlashadi. Ilgari kulib yurgan narsalaringizga endi tabassum ham qila

olmaysiz... Oldinlari hattoki xafa bo'lishingizga arzimaydigan gaplar, endi yer bilan bitta bo'lishingizga ham yetarli bo'lyapti. Xunuk bir nomutanosiblik yuzaga kelganda aqlni yo'qotmaslik mo'jizadan boshqa narsa emas. Har qanday his-tuyg'ularni anglaydigan, lekin ularning hech birini to'g'ri qo'llamaydigan odamga aylanasiz.

Salgina bo'lsa-da, telbalarday bo'lish beg'amlig-u beparvo-likka olib kelish o'rniga, insonni battar azoblar ekan.

Yangi qadamlar aslida yuz bermasligi kerak bo'lgan voqealar tufayli yakun topadi. Siz mavjudlik va yo'qlik o'rtasida qolib ketasiz. Balki, arofatda qolgan joningiz ham bunchalik azob chekmas edi.

Hatto o'zingizga ham masofani saqlab turgan ekansiz, boshqa hech kimga yaqinlasha olmaysiz. Odamlar endi o'zidan ham, aybi yo'q odamlardan ham qasos olmoqda.

Loqayd tabassumlar ortida yashiringan ko'z yoshlari ahamiyatsiz bir onda qalblarni sassiz-sadosiz yemiryapti. Siz ovozi o'chirgan har bir narsa boshqa joyda bor ovozi bilan qichqiradi. Tugab borayotgan umringizni ko'rmaslik uchun, ko'r bo'lib qo'lishni xohlaysiz. Lekin, nima bo'lishidan qat'iy nazar, siz kuchlisiz!



Bir yildan keyin...

Endi hamma o'z hayotini yo'lga qo'yib, baxtli yashar ekan, faqatgina Ayza azoblanardi. U telbalarcha fikrlari bilan o'z hayotini davom ettirar ekan, bu holatdan zavq olayotganini o'ylar, hayotini o'yinga aylantirgan edi. Ayza o'zi ishlagan kompaniyaning yangi hamkoriga yo'l boshchilik qilish uchun aeroportga borgandi. Qarshisida Erbayni ko'rgach, hayoti yana bir karra ostin-ustun bo'ldi. *Ko'rishni istamagan hamma narsa ko'zlarini ko'r qilgudek qarshisidan chiqaverdi.*

Faqatgina seriiallarda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar uning hayotida birma-bir sodir bo'layotgandi. Yana nima bo'lishi mumkin? Bundan tashqari, u buni hech kimga oshkor

qila olmasdi. U endigina lavozimga ko'tarilar ekan, o'tmishdagi og'riqli voqealar tufayli na Erbayga, na boshqa birovga o'zining yangi dunyosini buzishiga yo'l qo'ya olardi. Kutilmagan vaziyat yuzaga kelgandi. Axir, xayol qilgan istaklarimiz har doim ham hayotimizda amalga oshmaydi-ku.

Erbay Ayzani ko'rgach, qalbi o'sha eski tuyg'ular xuddi o'sha eski hayajonlar bilan yana unga talpinganini angladi. U mana shu kompaniyada o'tkazgan deyarli har bir fursatni Ayza qayerda bo'lsa, o'sha yerda o'tkazishni o'ylab topar edi.

Erbay bu kompaniyada uch oy qolib ketgandi, endi esa boshqa kompaniyalarga ketishi kerak edi. U Duyguning Istanbulda ekanligidan foydalanib, Ayzani qaytadan o'ziniki qilish fikrida edi. Ammo bu safar zo'rlik bilan emas, balki sevgi uning muhabbatiga erishmoqchi edi. U kotibi orqali xabar yo'llab, Ayzani o'z xonasiga chaqirtirdi.

Ayza bu xabarni eshitishi bilanoq turgan joyida qotib qoldi. U ichidagi qasos olovi bilan qo'llarini musht qilib, o'ylay boshladi. U hayotini ostin-ustun qilib yuborgan bu odamga bir umrlik azob berishni xohladi. Ayza Erbay har safar oynaga qaraganida o'z xatosini ko'rishini orzu qilardi.

Ayza ish stolidan turar ekan, ko'zi tushgan kichkina qaychini kaftiga yashirib, Erbayning xonasiga kirdi.

Erbay yana ro'parasida Ayzani ko'rgach, uyatdan boshini

egib, uning oldiga bordi. U umrida birinchi marta bunchalik xijolat chekayotgan edi. Hartoki ushbu imkoniyatdan foydalanib, Ayzaning qolgan hayotini tuzatishga tayyor edi. Lekin Ayza beixtiyor harakat bilan kaftiga yashirgan qaychini Erbayning yuziga sanchib qo'ydi.

Erbay vaziyatdan shikoyat qilmadi, hatto bu holat tasodifan bo'lganiga guvohlik berdi. Lekin Ayza Duygu va onasi tufayli qisqa muddatga bo'lsa ham temir panjaraning azobini ko'rishga majbur bo'ldi.



Sen qalbimni azob bilan
tanishtirding, sening yuraging ham
huzur-halovatni unutsin.



*Keyin esa...*

U hech kim bilan gaplashmas, faqat xonadagi havoni almashtirib turuvchi kichkina deraza orqali osmonni kuzatardi. Qamoqxona ma'muriyatining yo'lga qo'ygan yangi xizmati bilan bu yerga yaqindagina tayinlangan psixolog nima qilmasin, uni gapirtira olmadi. Bir kuni Ayzani suhbat uchun psixologning xonasiga olib kelishganda Doktor Muratbey bu safar boshqacha yo'l tutib: "Men bilan gaplashishingni istamayman, faqat shu kitobni ol va o'qi, iltimos", — deyish bilan qisqa vaqt ichida seansni tugatdi. Ayzaning qo'lga tutqazgan kitobi tarbiyaviy hikoyalardan iborat axloqiy kitob edi. Iymon

orqali hayotga qaytgan odamlarning hikoyalari edi. Ayza karavot ustiga tashlagan kitobga bir muddat qarashni ham istamay, yana derazaga qarab turdi. Keyin esa negadir fikridan qaytib, kitobning duch kelgan sahifasini ochib, o'qiy boshladi:

...Hayotda ko'plab tuyg'ularga sohib bo'la olmaganligimizga, boshqalarning qalbiga kira olmaganimizga, shosha-pisha olingan qarorlarning ko'pi naqadar xudbinlarcha va hatto insoniylikdan uzoq bo'lganligiga ko'p marotaba guvoh bo'lganman va bo'lyapman...

Psixolog Muratbey ushbu kitob orqali uning hayot umidiga va najotiga aylangandi. Ular vaqt qanday o'tganini anglamay, uzoq suhbat qura boshladilar. Odamzod shunaqa o'zi: hammasidan umidini uzar ekan, hayot unga nimalar tayyorlab qo'yganini, yakunlarning boshlanishi borligini anglab yetishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Insoniyat esa umidning beshinchi faslini har qanday sharoitda — hattoki imkonsiz bo'lgan vaziyat ham — imkonga aylanishini kech anglaydi. Bu esa umidning beshinchi mavsumi boshlanganidan darak beradi.

Har bir insonning hayotidagi voqealar shunchaki sodir bo'lmasligi mumkin, shunchaki haqiqatga aylanmasligi mumkin. Taqdiri qayerdadir og'irlik qilishi mumkin. Balki, siz Ayzadek noxush voqealarga duch kelmagandirsiz, balki, undan ham battar tuyg'ularni his qilgandirsiz. Har bir insonning

hayoti xatolarga to'ladir. Muhimi, xatongiz taqdiringizga ta'sir qilmasligida...

Agar o'z hayotingizni qadrlamasdan, boshqa birovlarining hayotini qadrlab, undan yordam kutsangiz, siz hech qachon o'z kamchiligingizni topa olmaysiz. Kamchiligingiz ko'zingizga ko'rinmay qolaveradi.



Men hamma narsani unutishga unutam, biroq qalbimga qor yog'dirib boshqa birovga bahor bog'i bo'lganingni unuta olmayman. Buni unutish oson emas. Buni sen ham butun umring davomida unutmaysan. Insonning bahoridan bir mavsumni o'g'irlab, boshqa qalb uchun beshinchi mavsum bo'lmaysan.

Balki, men qishning o'rtasida gullarman, biroq sen yozning o'rtasida gullasang ham sovqotasan. Demakki, vijdoningiz muzga aylanar ekan, hech bir fasl sizni qabul qilmaydi.



Inson yengilmay, o'zligini kashf etish tomon qadam tashlay olmaydi. Agar hayot urush bo'lsa, har bir mag'lubiyat olg'a tashlangan birinchi qadamdir.

Kamchiliklaringizni ko'rasiz. Zaifliklaringizni o'rganib, ana o'sha nuqtani kuchaytirasiz.

Charchab qolishdan qo'rqmang. Bilaman, siz juda charchadingiz. Charchoqlaringiz soch tolalaringizdan ham oqmoqda. Menga qayg'u-hasrat nimeligini anglatmang: shunday bir davrdamizki, anglatgan sayin ko'payadigan kechinmalar ichida faqatgina baxt yo'q.

Qalbingizda yashirinligicha qolsin. Faqat o'zingiz biling va Alloh bilsin. U tushunadi, U eng yaxshi tarzda davolaydi. Ichingizdagi barcha olov-larni duolar so'ndiradi. "Duo qilyapman, lekin, qabul bo'lmayapti", — deya qalbingizni duoga nisbatan g'azabga to'ldirmang. Yodda tuting: nimani so'rayotgan bo'lsangiz, Yer-u Ko'kni YARATGAN ZOTdan so'ryapsiz.



Odamlarning ishonchini poymol qilar ekansiz, siz bilan uchrashishdan oldin ularda ishonch bo'lganligini unutib qo'y-yapsiz, natijada esa ularni boshqa odamga aylantiryapsiz.

Hech qanday jarohat, hech qanday ishonchsizlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Qalbi hassos odamlar his-tuyg'ularini boshqa odamlarga nisbatan tezroq va ko'proq boy berishadi.

Biz his-tuyg'ularimizni yaxshi anglamay turib, noo'rin sarf qilib yuboryapmiz.

Vaholonki, hattoki suv ham bo'g'zimizga tiqilib qolishi mumkin ekan-u, his-tuyg'ular qanday qilib bo'g'zimizga tiqilib qolmasin?

Odamlarga doimo ishonib bo'lmaydi. Hatto bu dunyo sarguzashti ham ishonilgan odamlarning man etilgan olmani yeyishi bilan boshlanmaganmidi?

Shu sababli ishonch odamlarning eng nozik nuqtasidir. Qalbga tushgan ishonchsizlik hissiyot koinotdagi qora tuy-nukka o'xshaydi. U eng go'zal narsalarni yutib yuboradi va hech qachon qaytarib bermaydi.

“Men shunaqaman — o'zgarmayman”, — deya qat'iy hukm chiqara olmaysiz. Bunchalik qat'iyatlilikning sizga hech qanday foydasi yo'q. Qarshingizdagi insonni ranjitadigan, g'ururini toptaydigan, xafa qiladigan holatlar sizning o'sha qat'iyatingizdan kam ahamiyatga ega emas.

Sizga bo'lgan muhabbati bilan yoningizga kelgan insonni xafa qilgan bo'lsangiz, uni xursand qilishga, qalbini xotirjam-lashtirishga majbursiz.

Chunki hech kim yuragini hovuchlab yashay olmaydi. Agar qilgan xatolaringizni tuzatib, qarshingizdagi insonni xotirjam qilmasangiz, ezgu ishlaringiz ham xato kabi ko'rini-shi mumkin. Bu esa o'zaro samimiy munosabatlarni yemira-digan eng katta illatga aylanadi.

Katta janjallar mayda-chuyda gap-so'zlardan kelib chiqa-di. “Men shunaqaman — o'zgarmayman”, — deyish ma'lum

bir vaqtdan so'ng o'nglana olmaydigan fojiaga olib kelishi mumkin.

Bir inson uchun o'z qalbining juftini topish shunchalar qiyin ekan, qalbingizning ikkinchi yarmini ranjitmang. Hayotingizga kirgan samimiy insonlarga noto'g'ri munosabatda bo'lmang.

Aynan shunday qarama-qarshiliklar sizda ham ro'y berishi mumkin. Har safar bir xil xatoni takrorlagan odamni to'g'ri yo'lga boshlay olmaysiz. Kingadir qilgan samimiy yaxshiliklaringiz, uni qadrlab qilgan mehnatlaringiz o'z samarasini bermay faqatgina noxush xotiralar qoldirishi mumkin. Hayot charxpalagi aynan shu yerda boshlanadi. O'zi mehr bergan, qadrlagan insoni tomonidan tark etilishini xohlamagan barcha insonlar ranjutilishga, parchalanishga va g'ururidan voz kechishga majbur bo'ladi.

Sizni ezadigan, xayolingizda shubhalar qoldiradigan va sevgingizni shubha ostiga qo'yadigan odam bilan birga qolish uchun kurashmang. Balki, ketish oson bo'lmasligi mumkin, lekin qolish uchun kuch sarflamang. Yomon insonlar uchun vaqt sarflashning hech bir foydali tomoni yo'q.

Suymaganga suykaliş insonning o'ziga o'zi qilgan eng katta nohaqligidir... O'ziga tegishli bo'lmagan qalblar uchun jon kuydirish insonni yanada ezadi.

Odamlar o'z dardlarini, g'am-tashvishlarini boshqalarga yuklashga intiladi. Hech kim o'z yukini o'zi ko'tarib yurishga harakat qilmaydi. Shuningdek, o'z his-tuyg'ularimizni boshqa birovlariga qo'sh-qo'llab topshiramiz.

Insonlar yolg'izlikni qo'rqinchli bir bo'shliq kabi ko'rishadi. Hamma o'sha bo'shliqqa tushib qolishdan qo'rqqanlari tufayli soxta do'stliklar, soxta sevgilar ko'paydi. Shuning uchun ham bunday munosabatlarning umri qisqa bo'ladi.

Bo'shliqda bizni o'zimiz haqiqiy "men"imiz kutmoqda — bundan esa xabarimiz ham yo'q. Yiqilishdan va xato qilishdan qo'rqmang. Sizni istamagan eshiklar ostonasida turmang. Eshik ochilganda ko'rganlaringiz qalbingizni parchalab tashlashi mumkin...

His qilganlaringiz to'g'ri, chunki qalb hech qachon aldamaydi. Biror kishiga qayta-qayta imkoniyat berishingiz uni qanchalik sevishingizni ko'rsatish bilan birga, o'zingizni qanchalik qadrlamasligingizni ham bildiradi.

Vaziyatning o'nglab bo'lmas darajaga yetishini kutmang. Kimdir xatoga yo'l qo'ydimi, darhol u bilan barcha aloqalaringizni to'xtating. "Balki, endi qilmas... Balki, endi to'g'ri yo'lga tushar", — deya ularni qayta-qayta kechirishga urinmang. Bu ko'zlar bir xatoni ikki marta takrorlamagan insonlarni hali ko'rmadi.

Ajriq o'ti

Hattoki o'zimni ham nazorat qila olmaydigan, o'z qalbimga ham g'amxo'rlik qila olmaydigan, ma'naviy qashshoqlikning eng chuqur davrini yashayapman. Qalbimning tubidagi bu isyondan qutulib, ro'yoga aylangan xayollarimning, o'zligimni tanitgan butun qadriyatlarining, kecha, bugun va yillaracha davom etgan sevgi xotiralarim bilan kurashishdan charchadim.

Noxush ko'ngilsiz xotiralardan shunchalik charchadimki, asti qo'yavering. Hattoki xayolan ularni qog'oz kemalarga bitta-bitta yozib, bepoyonga dengizga otayotganday, keyin esa bu kemalarning ufqda yo'qolib ketishini kuzatib kutayotganday bo'laman. Afsuski, bu dard kemalarimning bepoyon dengiz ufqida g'oyib bo'lishini emas, balki arzon-garov ishchi-

lar qurgan, hattoki quyosh yuzini ham ko'rmagan sun'iy hovuzlar yuzida suzib yurganini ko'rmoqdaman. Ana o'shanda noxush xotiralardan osonlik bilan qutulishni yo'lini tanlagan o'y-xayolimdan ham g'azablanib, nima qilarimni ham bilmasdim.

Men bir ming to'qqiz yuz oltmishinchi yillarning eski xira chirog'iga o'xshayman: kuchsizlanganim sari, yorug'ligim ham xiralashmoqda. Uni yo'qotgan o'sha kunimni la'natlayman. Qolgan umrimni bunday mazmunsizlikda qanday yashayman — bilmayman. Hayotim, sen ketganing uchun hayotimda ma'no qolmadi! Bir so'zga ma'no berib va o'sha so'zni o'ziga makon aylagan va aksincha, ziddiyatlarga duchor bo'lgan qalbim aro seni o'ylayman.

Hech narsa qila olmasligimni ham bilaman, hattoki qayerda ekanligini ham bilmayman, lekin, shunga qaramay, o'zining qadr-qimmatini yo'qotgan qalbim aro seni izlayapman, hayotim. Bu go'yoki ziddiyatlar ichidan, yo'qlikdan borliqni, haqiqatni izlaganga o'xshaydi. "Kimki topgan bo'lsa, demak, u izlagan" hikmati nimani anglatadi? Ezguliklar iymon qadriyatlarining charxpalagidan joy olganmidi yoki asl haqiqat qalb xaritasining chiziqlaridamidi?

Birgina gapni, birgina maqolni izohlash uchun izlanishlardan voz kechmasdan, emaklab bo'lsa ham olg'a intilish

naqadar buyuk kuch! Men yo'ldaman. Istanbul ko'chalarida kezmoqdaman. O'sha deraza oldidagi tuvakdagi gullarining ostidan o'tar ekanman: "Qani endi, mana shu tuvaklar hozir aynan mana shu yerda boshimga tushsa-yu, o'lib ketsam edi", — deb ming'irlab turarkanman, ulardan biri paq etib, oyog'imning tagiga tushsa bo'ladimi?.. "Ey, taqdirim-a, duom yana amalga oshmadi! Azroil shundoqqina oldimdan o'tib ketdi", — deb faryod chekib qolaverdim.

Yashayotganimiz uchun har narsaga sabr qilyapmizmi? Sabrimiz hayotimizga arzimaydimi? Yoki hayotimiz sabr-qanoatimizga arziydimi? Kim uchun yoki nima uchun yashayapmiz?..

Qachonlardan beri shirindan shirin xayollar suramiz. Bugungi kunda hattoki xayol surish hammaning qo'lidan kelmaydigan, haddi-haqiqati yo'q bir tushunchaga aylangan. O'sha paytlarda men ham hattoki xayol ham sura olmas edim. Natijada Misr chorsusining darvozaxonasida o'tirib, sen bilan bir paytlar qurgan orzularimni barbod qilganim uchun o'zimni o'zim qarg'agandim.

"Qo'limdan hech narsa kelmadi", — deya shunday qilgandim. O'sha joyga qayta o'tirib, qarg'ishimni qaytarib olsam, bu xurofot hisoblanadimi — nima deysiz? Dini aniq bo'la turib, dinsizlardek yashayotgan qalbim iymon qadriyat-

larni qayerdan ham bilsin? Hattoki shu paytgacha ismimga ham munosib bo'lmagan umidsiz bir maxluqotman. Eh, Sevda, ya'ni umid nimaligini qayerdan ham bilardim? Men uchun bu hayot samarasiz mehnatga, olg'a intilayotgan, lekin orqaga ketayotgan kemaga o'xshaydi. Lekin seni topishga va topgan onimda umidning beshinchi mavsumini boshlashga va'da beraman. Va'da berdim, Sevda, seni, ya'ni o'zimni topaman va uzr so'rayman!

O'zimdanda voz kechganim kabi hamma narsadan voz kechishim mumkin. O'z joniga qasd qilish esa oxiratda va'da qilingan jannatga erishish umididan yuz o'girish demakdir. Ajabo, o'zimni go'yoki jannatga munosib yashayotgandek tutyapman.

Faqat sendan voz kechmayman, yuragim faqat seni tark etishni istamaydi. Sen qachondir, hattoki bir lahza ko'rish uchun isyonkorligimdan ham voz kechaman. Tan olaman, men razil bir odamman, lekin Allohim, iltimos, menga uni qaytarib ber.

Bugun esa uyg'onar-uyg'onmas Allohdan seni qayta topishni va aslo yo'qotib qo'ymaslikni so'rayman. Allohim, so'z beraman: bunday keyin seni ham, uni g'azablantirmayman, xafa qilmayman. Iltimos, umidimga yangi bir mavsum qo'sh va uni menga qaytarib ber.



Xayrli tong, kechinmalarimning sirdoshi bo'lgan notanish insonlar. Unutila boshlagan xotiralarimning hayqiriqlari bilan tongga qadar kurashdim. Men hamma narsani, hammasini g'ira-shira eslayman. Kechirasiz-u, lekin siz kimsiz?

Xotiralar o'ldi.

Eslolmayapman, shunaqa bo'lib qoldim.

Balki, ketsangiz, yaxshi bo'larmidi?..

Rostini aytadigan bo'lsam, yana ertalabgacha uxlolmadim. Bir necha qadah ishqni va xotiralarni ho'pladim. Oqshomni u haqida o'ylab o'tkazdim. O'yga tolsam, uyqusiz qolsam, nima bo'libdi? Xo'sh, bu bilan kimning nima ishi bor?.. U meni o'ylamas ekan, men yashay olmayman. U haqida o'ylar ekanman, demak, xotiralarimda yashayapti. Xotiralarimda bundan

keyin ham yashaydi. Qiziq, u ham men haqimda o'ylayotganmikan? Sevda —o'zim anglamagan o'zligim, ishqilib, sen ham meni ham o'ylayotgan bo'l.

Ko'ksimdan so'nggi bahor esmoqda. Ma'lumki, firoq-u ayriqliq qabraton ayoz va kimsasiz yolg'izlikdan iborat! U ketganidan beri qaltirayapman! Axir, bu shunaqa bir ta'rifi yo'q yolg'izlikku, axir? Ha, juda ham chidab bo'lmas darajadagi yolg'izlik!..

Bir yurakka yolg'izlik hissi haddan tashqari yopishib olar ekan, butun bir qalbni g'alati bir — go'yoki atrofdagi hamma narsani noto'g'ri ko'rsatadigan tuyg'u — egallab oladi. Bir tomondan, bu yolg'izlikning imkon qadar tezroq tugashini xohlayman. Ikkinchi tomonda esa, yolg'izlik meni tark etsa, hayot tizginim o'z yo'lidan chiqib ketishidan qo'rqaman. "Bir hayqirsam-u, ovozimni eshitsa", — deya, chuqur nafas olar ekanman, nafasim ichiga tushib ketadi. Har holda, hamma narsa ichimda qolishga muvaffaq bo'ladi. Mayli, o'sha hayqiriq ham ichimda qola qolsin.

Bir yilda nechta fasl bor edi? Qishim bilan yozim almashib ketganiga necha yil bo'ldi? Menimcha, har bir insonning fasli qalbida nima borligiga qarab shakllanadi. G'amgin qalbning gullari erta to'kiladi. Tabassum qilganlarga bahor fevralda ham keladi. Xulosa qilib aytganda, har bir odamning beshinchi mavsumi turfa xil.



Qo'shnim Muberra xola juda ham irodali va kuchli ayol-dir. O'zi aytib bergan va eslagan barcha qayg'uli xotiralariga qaramay, yo'qotganlarning umidsizliklari bilan to'lgan bu hayotda qanday qilib bunchalik ulug' yoshga kirgan ekan-a, qanday qilib hayotni quvonch va baxt bilan to'ldira olgan ekan-a?.. Hayronman!..

— Hayot go'yoki arraga o'xshaydi, qizim. Kun keladi oyoqlaringni yerdan kesadi, g'ayrat cho'qqisiga chiqib, endi muvaffaqiyatga erishganingda hamma narsani kutilmagan yeridan kesib tashlaydi, — deya anglata boshlagandi.

Men esa uning ko'zlariga uzoq vaqt tikilib, jim bo'lib qolgandim.

— Alloh seni bularning hammasini o'rganishing uchun tirik saqlayapti, go'zal qizim. Parvardigor qayg'u, g'am-tash-

vish, azob, umidsizlik nimaligini o'rganishing, ko'rishing, bilishing va sabr qilishing uchun yashatyapti, ona qizim. U tufayli shunchalik ko'p azoblangan bo'lsang ham, nega menga yana u haqida gapiryapsan? Undan voz kechdim, kechirmayman, deysan-u, lekin, baribir, fikr xayoling unda. Nega mavzu yana unga borib taqalyapti. Shularni bir bora bo'lsa ham o'ylab ko'rdingmi?..

Chunki senda hali ham umid bor, chunki sen o'rganding, o'rganyapsan. Azob-u og'riqlar bilan yashashni qanchalik ko'p o'rganganing sari shunchalik kuchliroq bo'lding. Hayot falsafasiga qanchalik chuqurroq kirsang, bunday nomutanosiblikka shunchalik ko'p duch kelasan. Agar biror-bir tanishingga qo'ng'iroq qilsang, ulardan biror narsa so'rasang, heeh bo'lmaganda, sening hol-ahvoldingdan xabardor bo'lishadi. Shunga qarab o'zingga yangi yo'l chizarding, go'zal qizim... "Umid, Umid", — deya, qaysarlik bilan turib olgansan. Asl umid ko'zlaringda, faqatgina sen uni ko'rmayapsan, xolos, qizim. Qaniydi, uni tilga olganingda ko'zlaringda yonayotgan olovni ko'rsang edi!

— Oh, Muberra xola, qaniydi, men ham sizdek sabrli va qat'iyatli bo'la olsam edi. Agar men bu hayotda taqvodor bo'lishni uddalaganimda edi, balki, o'shanda sovg'a sifatida taqdim etilgan baxt kaftimdan uchib ketmas edi. Men uni kechira olmayman. Topsam ham, kechirolmayman... Siz meni tushunmaysiz...

— Hayotning arra ekanligini aytgandim-ku, qizim, arra kesadi-da. Shunday kun keladiki, qarshingda yana umid paydo bo'ladi. Sening bunday hayotingni aynan to'xtatgan joydan uzib qo'yadi, oldin va keyin his qilgan barcha qayg'ularing bug' kabi uchib ketadi.

“Umid!.. Eh, Umid!.. Qaniydi, o'z nomingga munosib bo'la olsayding”.

To'g'risi, dastlab: “Ismiga munosib ekan”, — deb o'yladim. Umid berdi, orzu qildirdi. Balki, umidim ushalmaganidir, lekin orzularimda u doim birinchi o'rinda turardi.

— Men shunchalar charchadimki, Muberra xola. Ba'zan men his qilgan bu tuyg'uni charchoq deb talaffuz qilolmaydigan darajada charchadim. Yaxshiyam, siz borsiz: borligingizdan juda xursandman. Alloh sizdan rozi bo'lsin.

— Sen hali yoshsan, qizim, bu yuragingdagi birinchi yara, bunaqa jarohatlar bilan hali uzoq yo'lni bosib o'tasan.

— Axir, juda charchadim-da, bu yurakka yana qancha yara sig'ar ekan?

— U ko'tara oladigan darajada.

Muberra xolaning ko'zlari allaqachon uzoqlarga tikilib qolgan edi.

Bir yurakka ko'tara oladigan shuncha og'riqni sig'dirish qanchalik to'g'ri edi? Men uchun bunchalar ko'p og'rig'-u

azobning bir donasi ham juda ko'plik qilsa-chi? "Aqldan ozib qolsam kerak", — deya o'ylayman.

O'zimni ham ko'tara olmayotgan bu kichik qalbimga yana qancha yurak azobni sig'dirishim mumkin?..



Bir kun avval qo'shnim, uy egasi, sirdoshim Muberra xolam bilan Misr chorsusiga bordik. Biroz ajriq o'ti va shunga o'xshash narsalar olmoqchi edi. Kulimsirab qo'ydim!

— Ajriq ayriliqni ham davolarmikan? — dedim.

Indamadi. Faqatgina kulib qo'ydi. Lekin uning bu tabasumidan mening jahlim chiqdi. Garchi u juda ko'p hayotiy tajribaga ega bo'lsa ham, menga avvalgidek bir necha so'z aytishi mumkin edi-ku, nega endi indamay, jilmayib qo'ya qoldi?.. Bilaman: Muberra xola pand-nasihatlarini menga zarur paytlarda emas, balki o'zi istagan paytda aytardi.

Havo muz kabi sovuq edi. Sharfimni ko'zimni tagigacha o'rab olgandim. Mubeyera xola bilan Misr chorsusida o'g'ri-dek kezib yurardik.

“Nega men bu ayolning orqasidan ergashib yuribman?” — deya o‘zimga o‘zim-o‘zim ming‘irlab yurardim.

“Yur, qizim, shu kunlarda, uyingdan umuman chiqqaning yo‘q, biroz chalg‘ib, havo almashtirib kelasan”, — degandi.

Xo‘sh, qanday havo almashtirish! Hech narsani tushunmay tinmasdan aylanib yurardik.

“Kel, biroz unisidan, biroz bunisidan, ha, ana unisidan ham olaylikmish! Bugun ahvolim yaxshi emas, nega meni bu yerga majburlab, sudrab olib kelganini tushunmayapman”, — deya yana o‘zimga o‘zim-o‘zim ming‘iray boshladim.

— Men bu yerda nima qilyapman? — deya birdan qadamlarimni tezlashtirdim. Maqsadim o‘zimni adashgandek qilib, Mubeyera xoladan uzoqlashish edi.

— Qizim, sekinroq yur, kutib tursang-chi!

Ming‘ir-ming‘ir-ming‘ir! Asablarimni yeb tugatdi. Ba‘zan unga aslo chidab bo‘lmas edi. O‘z yoshimga mos, yaxshi do‘stlarim yo‘q edi. Ularning hammasi allaqachon bola-chaqasi bilan o‘ralashib ketgan edi. Ularning zavq-u shavqqa to‘la suhbatiga toqatim yo‘q edi.

Shularni o‘ylab turgan edim, sal nariroqda xuddi men kabi sharfini ko‘zlarining tagigacha o‘rab olgan bitta odamni

ko'rib qoldim. U ham meni uzoqdan kuzatib turgandek edi. "Men hozir sarobni ko'ryapman", — deb o'ylay boshladim. "Qiziq, u meni kuzatib turibdimi?" — deya hayronlig-u xavotir bilan unga qarab yurdim. Vaqt sekinlashdi. Ko'zlari notanish emas edi, nigohlari xayolimning bir chekkasidan qalbigacha tushib borardi. Yuragimda noaniq bir g'avg'o paydo bo'ldi... Ko'ksimda to's-to'polon, baqir-chaqirlar ko'tarildi. Hamma narsa parcha-parcha bo'ldi! Ha, aynan o'sha edi. Balki, xayolida barmoqlarim boshini silayotgandir... To'qigan sharfim hamon uning ustida edi, o'zim esa vayronalar orasida o'zligimdan uzoqda, xarobalar ostida edim, qalbidan uzoqda edim. "Bularning barchasini o'zim xayolan vujudga keltirdim, yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Sevda, valdirama, o'zingga kel!" — deya xayolan o'zimga o'zim tanbeh bermoqchi edimki, o'zimni chimchilamoq ko'rmoqchi edim. Lekin foydasi bo'lmasligini aniq, chunki u, haqiqatan ham, o'sha edi va meni ham ko'rgandi. Odatdagidek munosabatda bo'lib, parvo qilmaslikka harakat qilardim, hatto uni taniganimni sezdirmaslikka qancha urinsam ham hayratlanganimni allaqachon bilib bo'lgan edi. Go'yo u meni ko'rganidan ajablanmagan edi yoki ajablanganmikan?.. Buni qanaqasiga bilib olishim mumkin, axir, bu devona sharfni burnini ostigacha o'rab olgan edi-da. Qaniydi, bu sharfni o'rab olmaganimda edi... Endi u sog'inganimni aniq bilib oladi. Lekin o'zi ham

men to'qib bergan sharfni o'rab olibdi-ku, demak, o'zi ham meni o'ylagan. Eh, telba aqlim, bas qil, shu bema'ni xayolparastlikni.

— Sevda, yursang-chi, qizim. Nimani o'ylab qolding? Hoy! Sevda, senga gapiryapman, — deya meni chaqirardi Muberra xolam.

O'shanda u Qorako'y bandargohida sahar chog'i qo'lida pichoq bilan: "Ketsang, o'zimni o'ldiraman!" — deya baqirib, meni qarg'agan edi. Go'yo osmonda quzg'unlar uchayotgandek va o'sha kuni ertalab bizga la'nat yog'dirayotgandek edi. Sen meni aldagan kunning ertasiga, bir umrlik g'am-g'ussa yoqamga yopishdi. Yillar o'tib, bildimki, aslida bunday bo'lmagan ekan. Lekin juda kech bo'lgandi, hattoki uni hayotimdan ataylab chiqarib yuborgandim. Uni bunga loyiq hisoblagandim. Kunlar, oylar, necha yillar davomida o'zimga kela olmadim... Bu holatni hazm qilishim uchun qancha vaqt ketdi. O'sha kundan beri la'natni o'zimdanda soqit qila olmadim. Uni bir soniya ham xayolimdan chiqara olmadim. Nega besh yildan keyin kutilmaganda bu yerda qarshimda paydo bo'ldi? Hammasiga Muberra xola aybdor edi. Ajoyib, issiq-qina uyimda o'tirgandim-ku, axir. Huzur-halovatda uxlayotgan bo'lardim-da hozir. Eh, Muberra xola, hozir ziravorlar oladigan paytmidi?..

Go'yoki biz xayolan o'zaro suhbatlashdik:

— Ey ayol, sen Istanbulga o'xshaysan!

— Sen esa qudratli Usmonlisan!

— Meni bag'ringga bos...

Uni quchoqlar edim. Undan keyin nima bo'lganligi siz bilishingiz shart emas. Men esa anglatishim shart emas. U sochlarini qo'llari bilan tarab, sekin men tomon yura boshladi. Sal oldin kipriklarimga sovuq tegayotgan edi. Ko'zlarimiz to'qnash kelgan o'sha joyda, gugurt qutisiga ishqalangandek tanamdan uchqunlar chaqnadi. Men yonayotgan edim. Qolaversa, qo'l-oyoqlarim o'zimga bo'ysunmayotgan, tilim kalimaga kelmayotgan edi. Tilim lol edi. Ey, Xudo! Endi sabr qila olishimga biror-bir sabab qolmagandi. Men orqaga o'girildim va ziravorlarga juda qiziqqandek ko'zdan kechira boshladim. U meni tanigan bo'lsa kerak. Birdan ortimga o'girilib, mahkam quchoqlab: “Seni sog'indim! Sensiz baxtsizman! Ming afsus!” — deyish ichimdan o'tayotganda tishimni tishimga qo'yib, jim turardim. Ko'rinishimiz yengil-yelpi filmlaridan birining bosh qahramoni bo'lgan yigit va qiz holati kabi edi. Yig'lab tomosha qilingan eski filmlarning eng yangi turi edik. O'zimni turib oldim. Yaqinlashdi, yaqinroq keldi. Shiddat bilan o'girildim.

— Yuzingni yashiribsan, lekin ko'zlaring hali-hanuz seni oshkor qilyapti, — dedi, quloqlarim ostiga kelgan bir ovoz!

— Sovuq tufayli...

— Ha, bir muncha sovuq bor.

Ich-etimni yer ekanman, o'zimning qanday holatda ekanligimni hatto o'zim ham bilmasdim. Aql-hushim boshimdan uchgan edi. Bu nima endi? Bu yerga kelganimning sababi shumi? Sevgi, haqiqatan ham, tasodiflarni yoqtiradimi yoki bu taqdirimda oldindan yozilganmidi?

— Ahvoling yaxshimi? — dedim hayratimni sovuq qarashlarim bilan yashirib.

U qovog'ini solib har doimgi o'sha gapini qaytardi:

— Rasvo!

U go'yo: "Bularning barchasiga sen sababchisan", — demoqchi bo'lganday menga qarardi. Men esa o'zini qo'limdan kelgancha odatdagidek tutishga harakat qilardim. Bu anglashilmovchilikka yillar bo'lgan edi. Avvalgidek bo'la olmasdik. Eng yaxshisi, unga oddiy tanish sifatida munosabatda bo'lish edi va shunday muomala qilishda davom etdim. Vaholonki, usiz o'tgan besh yilim sog'inchga to'la edi. Darhaqiqat, hamma gapni ipidan ignasigacha o'rganganimdan so'ng qisqa vaqt u bilan bog'lanishga harakat qildim.

Afsuski, na telefoniga, na manziliga bog'lana oldim. "Keyin izimni ham topa olmaysan. Bunday qilma, Sevda, gapimni eshit!" — degan edi ketayotganda. Men eshitmagan edim. Oh, men ahmoq qiz! Ha, bu uning menga bergan eng katta jazosi edi. Hattoki izini ham mendan yashirib, meni qattiq jazolagan edi.

— Hayoting, sog'lig'ing yaxshimi? — deya so'radim.

Ko'zlarimga termilib qaraganda g'am-alamlarim yo'qolgandek bo'lardi. Bu esa menga juda ham yoqardi. Bunday qarashini sog'ingan ekanman. Tushundimki, ishqning nigohi sehrlil bo'lsa, oshiq hamisha qadrlidir. U qarshimda tabassum bilan jilmayib turardi. Go'yo yana yangidan mehr to'la qarashlari bilan meni qadrlardi. Go'yoki o'z muhabbati bilan meni ulug'layotgandek edi. Muberra xola buni ko'rgudek bo'lsa: "Eh, bu yoshlarning ahvoliga qarang-a! Qayoqqa qarab ketyapsizlar-a? Allaqachon o'chib qolgan olov kulining ichidan cho'g' izlayapsanmi, qizim?" — der edi. Qolaversa, Muberra xola namuncha qolib ketdi, do'kondan chiqsa-yu, bu yerdan tezroq ketsak edi. Uf!

Baxtlimidim?..

Bu o'zim orziqib kutgan payt emasmidi?..

Nimaga o'zimni sovuqqon tutayotgan edim?..

Qalbidagi tug'yonlar shiddati nima uchun?..

Go'yoki o'tib ketgan shuncha vaqtning alami otilib chiqayotgandek edi.

U shunchaki menga qarab turardi. Juda afsusda edim. Lekin men o'z qadrimni tushirmaslikka harakat qilardim.

— Hayotim hali ham parchalangan orzular uchun motam tutmoqda, — dedi.

Men qotib qoldim. U esa davom etdi.

— Ma'nosiz nigohlarimdagi birdan bir ma'no — besh yildan beri sen bilan xayolan qurgan suhbatlarim edi. Meni juda ham azobli ayriliq balosiga duchor qilib, xasta qilib, mendan qochib qutulib keta olishingga ishonganmiding? Yur, birga ketaylik, iltimos, bir muddat ko'zlaringga sokinlik ichra boqishni istayman, — deya qo'lini uzatdi. — Senga sassiz-sadosiz tikilib o'tirishni xohlayman, birgalikda cheksizlik ichra biri-birimizga termilib o'tirishni xohlayman.

Bir ajriq o'ti uchun bozorga chiqqanimizda tasodifan uchrashib qoldik, endi esa go'yoki oramizda hech qanday ayriliq bo'lmagandek, u bilan birga ketishim kerakmi?..

Bu shunchalik osonmi?..

Ammo qalbim aqlimni egallab olgandi, o'zimni yo'qotib qo'ygandek edim. Ikkalamiz ham doim g'alati odamlar bo'l-

ganmiz. Xayoliy dunyolarimizda kezib yurgan telbalar edik. Endi qo'limni uzatmoqchi bo'lgandim, ichkaridan Muberra xola chiqib keldi.

— Bo'ldi qizim, ishimni tugatdim. Salom, o'g'lim. Bu sumkalarni ol. Qani, ketdik, men juda sovqotdim, — dedi.

“G'alati ayol-a?.. Nahotki: “Bu kim?” — deya so'ramasa?.. Qanday bermalol ayol-a?..” — deb o'ylanib qoldim, o'zimcha. Lekin men uning bizni do'kon oynasidan kuzatib turganini va yonimdagi insonning Umid ekanligini anglab yetganligini bilmasdim. Sharflarimizga ham bunchalik e'tibor qaratganligini ham bilmas edim...

Nima bo'layotganligiga e'tibor ham bermay qo'limizga to'rvalarni tutqazib, o'zi oldinda yura boshladi. Ikkimiz ham hayron bo'lib Muberra xolaning orqasidan ergashdik. Yo'l bo'yi miq etmadik. Faqat, o'zimizga berilgan vazifani bajaryotgan edik va bir-birimizga ma'nosiz qarab qo'yardik. Biroz yurgandan keyin shunday Muberra xola birdan ortiga o'girilib dedi:

— O'qishdagi do'stingmi, qizim? — dedi.

Men biroz duduqlanib javob berdim:

— Ha... o'qi.....sh...da... gi...

— Sharflaringiz juda ham chiroyli ekan, — dedi Muberra

xola ayyorona tabassum bilan.

Eh, bu keksalar, ko'z tegmasin-u, lekin hamma narsani darrov payqashadi-ya. Qachon ko'rib ulgurdi ekan-a, qachon e'tibor berdi ekan-a?.. Voy, tavba! Ikkita bir xil sharf to'qigandim. Ehtimol, bu telbalarcha oshiqligim tufayli qilgan ishlarimdan biridir. Ha, qanchalar bema'nilik! Sharfning uch qismlariga ismlarimizning bosh harfini to'qib qo'ygandim. Shu kabi ishlarim bilan hali-hamon o'zimni o'zim hayratda qoldirishni uddalayman. O'sha payt boshqa birov, hattoki, onam iltimos qilganida ham, ehtimol, bu sharflarni to'qimagani bo'lardim.

Muberra xolaning bu gapidan ikkalamiz bir-birimizga qarab jilmayib qo'ydik. Hayotiy kechinmalariga oid savollar berganimda kulimsirab qo'ygan Muberra xola mana shu yerda o'zining sinovdan o'tgan aql-zakovati va tajribasini menga isbotlab berdi.

“Ajriq o't nima o'zi? Bu ayolga izidan nega ergashib yuribman?” — deya ming'irlashlarimning ham sababi bor ekan-da?..

Demak, taqdirimga uni shu yerda uchratish yozilgan ekan-da. Oramizdagi sovuq munosabat biroz yumshagan edi. Muberra xola sal naridan taksi tutib, Umiddan ham biz bilan birga borishini iltimos qildi:

— O'g'lim, shuncha yukimizni ko'tarib kelding, sen ham biz bilan yur, pechkada issiq jo'ka qaynayapti, birgalikda ichamiz va isinib ham olamiz, — dedi.

Bu ayol bunchalar ziyrak ayol ekan-a?..

To'g'risi, endi uning yoshligi qanday o'tganligiga qiziqdim. Muberra xola men yashayotgan uyning pastki qavatida yolg'iz yashaydi.

Ba'zan:

— Qizim, tirikmisan? Chiq shu uyingdan, hech bo'lmaganda, yuzingni ko'ray, — deya uyimizga chiqar, vaqti-vaqti bilan issiq bulochka, zaytun, yog'li do'lma olib kelardi.

Umid Muberra xolamning gapini tasdiqlashimni kutayotgandek, iltijo bilan yuzimga qaradi. Ko'z qirim bilan: "Yur", — dedim. Biz uyga yetib keldik. Muberra xola sumkasidan kalitni olib eshikni ochdi. Biz endigina oyoq kiyimlarimizni yechayotgandik:

— Hamma o'zining uyiga kirsin. Sizlar biri-biringizni sog'ingansizlar. Bu ko'rinib turibdi. Qani, ko'ray-chi jo'ka qaynabdimi? Ha, jo'ka ham qaynabdi. Mana olinglar, — deya Muberra xola choynakni qo'limizga berib, yuzimizga eshigini qarsillatib, mahkam yopdi.

Muberra xola bizni qo'l tegmagan, ochilmagan sovg'alar

qutisidek bir-birimizga taqdim qildi, biz esa esankirab qolgan edik.

— Xo'sh, uyingga taklif qilmaysanmi? — dedi Umid.

Men sassiz-sadosiz yuqori qavatga ishora qildim. Axir, yuqori qavatda yashardim-da.

Biz ichkariga kirdik, u qo'lidagi choynakni kiraverishdagi garderoabga qo'ydi-yu, shu zahoti meni quchoqladi. Bir mud-dat bag'ridan bo'shatmay, go'yoki mendan nafas olayotgandek, ushlab turdi. Kaftlarda ta'rifsiz bir iliqlik bor edi va men esa iliqlikni juda sog'ingandim.

— Men juda ham afsusdaman, — dedim.

— Huzur-halovatim sensan, bu lahza shunchalar ta'rifsiz bir lahzaki, butun umrimni shu on uchun qurbon qilardim, — dedi Umid. — Bu yerda sen bilan abadiy yashash uchun qurbon qilardim.

Axir, hamma narsa shunchalik oson bo'lishi mumkinmidi? Biz qisqa metrajli filmlardagidek to'satdan baxtli yakun tomon yo'l olayotgan edik.

— Voz kechmoq — nima bo'lganligini batafsil o'ylamaydiganlar va his qila olmaydiganlarning ishi ekan. Ketganingdan keyin tushundim, meni kechir, — dedim.

Bizning yana qaytadan uchrashuvimiz oddiy va hayron

qolmaydigan darajada bo'lishi xayolimizga ham kelmagandi. Go'yoki biz hech qachon ayrilmagandek edik.

Biri-birimizni jim bo'lishga ishora qilish orqali uyga kirdik. Men: "Muberra xolaning jo'kasidan ichdik", — deb aytay, siz esa: "Obihayot sharbatidan ichdingiz", — deng. Bu sharbatni cheksiz bir muhabbat bilan qonib-qonib ichdik.



Uch daqiqadan keyin...

Men terga botib uyg'onar ekanman, bularning hammasi tush emasligidan xursand bo'ldim va:

— Umid, uyg'oning! Ishga kech qolasiz. Bolalar maktabga ulgurishmaydi, — deb turmush o'rtog'imni, keyin bolalarni uyg'otdim.

O'zim esa kundalik ishlarimni davom ettirdim. Kun bo'yi g'alati, ma'yus tabassum bilan Muberra xola haqida o'ylardim. Bechora ayol mendan o'zini duo qilishimni xohlagandir. Kechqurun Umid ishdan qaytgach, ko'rgan tushimni aytdim. Xotiralar soyasida Muberra xola tufayli yana bir-birimizni

qaytadan topgandik. Uning bizni uchrashtirish uchun tuzgan rejasidan bexabar holda quvonch-xursandchilik bilan yashayotgan edik. Umidning beshinchi mavsumiga besh yildan so'ng erishib, bag'rimizga olgan egizak farzandlarimiz bilan hayotimizni to'xtagan joyidan davom ettirmoqdamiz. Muberra xola o'limidan bir muddat oldin Umid bilan meni yoniga chaqirib, Umidni topish va o'sha kuni meni bozorga olib kelish uchun qanchalar harakat qilganini aytib berdi. Oh, Muberra xola, joyingiz jannatdan bo'lsin. Har yili turmush qurgan kunimizda uni xotirlardik. Yuragimga ko'milgan, keyin yana qayta tirilgan muhabbatim mana yonimda.

Oradan o'n yil o'tibdi...

Bularning hech qaysisi sodir bo'lmagan va hech qachon ajralmagandek, biz haliyam Muberra xolaning eng yuqori qavatida to'polonchi qizlarimiz bilan tinch-totuv yashayapmiz. Muberra xolaning o'zi yo'q, lekin xotiralari har doim biz bilan... Ahvolimiz so'ramoqchimisiz? Parishonmiz!.. Xotirjam emasmiz... Chunki uchinchi farzandimiz tug'ilish arafasida.

Aytgancha, ajriq o'ti shunchalik hayotga intiluvchan o'simlik ekanki, uni tuproqdan yo'q qilish va quritishning iloji yo'q. Agar uni yulib tashlasangiz ham, u yana umid bilan o'sishda davom etadi. Uni ildizi bilan yerdan qazib olsangiz ham foydasi bo'lmaydi. Hatto bitta ildizi ham hayotga qayta

bog'lanish uchun yetarli. U bir yo'l topadi va o'sha joydan o'sishda davom etadi. Rivoyatlarga qaraganda, ajriq o'ti yetti yil tosh ustida qolib ketsa ham qurib qolmas ekan. O'zining tuproqqa qovushishni kutib yotarkan. Keyin tuproqqa tushganida — deyarli qurib qolish darajasiga yetay deganida — yana o'sa boshlar ekan. U atrofiga yoyilib atrofidagi barcha o'tlarni yo'q qilar va o'sha joyga egalik qilar ekan. Sevgi ham shunday...

Agar sizning sevgingiz haqiqiy bo'lsa, sizni hech qanday kuch ajrata olmaydi. G'ururingizni oyoqosti qilib bo'lsa ham, oyoqlaringiz u tomon yetaklaydi. Shunday bo'lishi ham kerak-da. Bu yolg'on dunyoda haqiqiy sevgi qarshimizdan chiqsa, nega unga orqaga o'girishimiz kerak? Bunday qilishning nima keragi bor?..

Biror-bir qalb tomonidan sevilsangiz, aslo undan qochmang, izidan ergashing. Lekin umidingiz qurib qolgan tuproqqa aylangan bo'lsa, bekorga urinmang, bunday tuproqlarda gul ochilmaydi.

Eh, Muberra xola, ajriq o'tini atayin tanlagan bo'lsangiz kerak. Xuddi u kabi umidimizning o'lmasligini, doimo yashashini xohlagansiz. Xuddi umidning beshinchi mavsumi kabi...




Inson o'zi ishonch hosil qilgan yo'lda kurashadi, ishonch hosil qilgan rang tomon intiladi. Ammo biror joyda o'zi uchun ham kurashishlarini xohlaydi. Buning sababi shundaki, u kutishdan ko'ra, ekan niholining mevasini olishni ko'proq xohlaydi. Hech kim behuda harakat qilishni xohlamaydi, sevgida ham xuddi shunday haqiqat bor.

Doim o'zini o'tga-cho'g'ga urish, ishonchsiz munosabatlarni asrab qolish uchun behuda harakatlar insonni ich-ichidan yemiradi. Agar siz uchun kurashmasa, ketayotganingizda orqangizdan bormasa, uning yonida qolmang, keting. Sizni sevmaydigan joylarda qolmang. Balki, o'sha yillarni, o'sha davrni qalbdan o'chirish qiyin bo'lax, lekin, har kuni aziyat chekkandan ko'ra

o'tmishni orqaga tashlab, unutish yaxshidir. Kelajak tomon kurashmaydiganlar bilan yo'lga chiqilmas.

Agar sevsangiz kurashasiz, qarshingizda turgan inson siz tomon intilar ekan, buni e'tiborsiz qoldirolmaysiz. Bu ham yermagandek, uning xatti-harakatlariga, intilishlariga, xuddi "kasal"ga qaraganday munosabat bildirishingiz o'sha qalb uchun eng katta shafqatsizlikdir.



Qalbinga beqiyos-u bemisl ISHQni joylashtirgan, beminat, hech qanday shartlarsiz hayot bergan ROBBIMga ming shukurlar bo'lsin.

Jarohatlangan qalbinga DUO malhamini surtdim. ROBBIMdan kelgan SEVGIGA ham, AYRILIQQA ham bir shukrona keltiraman.

Bir piyola sovuq choydan ho'plar ekanman, Istanbulning sovuq kechalarida uning tabassumini o'ylab isindim.

Hamma sevgi ham ishq emas, bilaman, azizim. Siz qanday lozim topsang, shunday seving, muhimi, sevsangiz, bas.

Ey ko'zlariga bahorni yashirgan yorim, bir bor qalbinga nazar soling. Shunday nazar solingki, ayozga aylangan yuragim erisin.

~~Har~~ kecha ishqimni Ollohga aytdim, qalbinga hovuch-
~~hovuch~~ duolar surtdim.

~~Qani~~, siz ham: "Omin", — deng, azizim.

~~Yuzagim~~ duolaringiz bilan shifo topsin.

~~Ey~~ tabassumimda jannatni yashirgan yorim, borligingiza
~~ham~~ yo'qligingiza ham shukurlar bo'lsin.

Yashil bulutlar

O'sha kecha har doimgidek, sababi noma'lum ko'z yoshlarim-u chalkash o'y-fikrlaringa boy bir kecha edi. Yaxshi xotiralarni o'ylab, baxtdan yig'lardim, shu bilan birga, ko'zlarim qayg'uli lahzalarni har on shay holatda kutib turardi. Men oxirgi paytlarda hamma narsaga yig'laydigan bo'ldim. Ong-u shuurimga murojaat qila olish uchun ko'p kuch sarfladim. Unga: "Bas, bo'ldi, yetar", — deya olish mashaqqatlari meni juda ham kuchli bir tushkunlikka uchratardi.

Aqlim bilan qalbim o'zaro ittifoq tuzib, meni mag'lub qilishdi va asirga olishdi. O'zimni o'zim boshqara olmaydigan bo'lib qoldim.

Oldinlari yaxshi narsalarni o'ylab, duolardan panoh topib, ulardan ilhomlangan "men"im yo'qolib, o'rniga vahimachi, hamma narsani bo'rttiruvchi, noaniqliklar ichidagi yangi

“men”im paydo bo‘ldi. Yangi “men”imga ko‘nika olmadim, unga qarshi qanchalar kurashsam ham, eski “men”im qaytib kelmadi.

Ichimdagi motam daraxtlarini ko‘z yoshlarim bilan sug‘organimdan beri o‘zimni qo‘lga ololmadim. Uning ketishini hech ham hazm qila olmadim. Menga bergan azob-qayg‘ularini aslo kechira olmadim... Bugun kechasi ichimda yig‘ilib qolgan bema’ni narsalar bilan oxirgi marta kurashishim va tongda bulardan xalos bo‘lgan holda uyg‘onishim, butun diqqatimni mana shu azob-u uqubatlarni bartaraf etishga qaratishim kerak edi.

Ertangi kunim uchun bunchalar noma’lum bir “bo‘shliq” — bema’ni bir xotiralarni qoldirmasligim kerak, yangi kunimni eski kunimning qayg‘ulari ila boshlamasligim kerak. Shu bilan birga, bu noma’lum “bo‘shliq”ni — xotiralarni to‘ldirishim kerak. Chunki bu “bo‘shliq”ni ilgari hech qachon o‘ylamaganman, hatto xayol ham qilmaganman. Shuning uchun uni go‘zalliklar va yashash uchun zarur bo‘lgan baxtli haqiqatlar bilan to‘ldirishim kerak edi. Alloh: “Ol, qulim”, — desa, insonga o‘zi xohlagan huzur-halovatni va istaklarini muhayyo qilmaydimi?.. Bularning hammasini bilsam ham, doimo qayg‘u-xavotirlar ichida o‘zimga o‘zim ming‘irlab yuraman. “Yana ozgina harakat qil... Iltimos, ozgina kutib tur, o‘zimni o‘nglab olay. Ichiga tushib qolgan bu girdobdan

chiqish yo'llarini o'ylab ko'ray. Meni biroz tinch qo'y, bezovta qilmay turgin. Bo'g'zimni qo'yib yuoor, iltimos", — deyman, aqlimga o'z-o'zimcha.

To'satdan o'rnimdan sakrab turardim, ko'zguga qarardim, yuzimga achinib-achinib boqardim. Dardlarini battar og'irlashtirib o'zimcha ming'irlardim. O'zimning ushbu hola-timni izohlay olmasdim, so'z topolmasdim, tushuntira olmasdim. Ko'zguda aksimga qarab: "Nima bo'lsa, bo'lsin-u, lekin hech kim meni u kabi seva olmaydi. Meni shunchalar sevar ekan, nega bunchalar azob-uqubatni menga ravo ko'rdi?" — deya yig'lashda davom etardim.

Sevishiga shak-shubhasiz amin bo'lgan insoningiz tomondan, aslida, hech qachon sevmagandek tark etilish juda ham og'ir.

Shunda ong-u aqlim to'xtagan joyidan so'zlashda davom etar, menga tanbeh berardi: "Sen boshqalarga biror-bir marta imkoniyat berganmidingki, hech kim u kabi sevmaganligini aytyapsan?.. Endi esa boshqa bir inson bilan munosabatlarni boshlash arafasida turganingda yo'q joydan muammo chiqarib, yana uni eslab, voz kecha olmayapsanmi?.. Nolishdan to'xta va ko'zlaringga boq. O'zingga qilgan azoblaringni ko'r. U haqida o'ylashni bas qil, ahmoq!"

Aqlimning gapini tinglashni xohlamasdim. Uni sevishda

davom etish istagimga to'sqinlik qilolmasdim. Tun bo'yi hissiyotlarim bilan kurashib, derazamning tagida tun chirog'i — oy bilan tongni qarshi olardim. Endi bunday bedorliklar mening doimiy hamrohimga aylangandi.

Qiziq, uni ham bag'riga mahkam quchoqlab oldimikan?

Masalan, men juda yaxshi ko'rgan soqoliga tegishiga ruxsat berarmikan?

Xuddi meni sevganidek, sog'inganidek uni ham shunday sevganmikin, sog'inganmikin?

Unga ham yorqin tasvirlar bilan sog'inchinging turli ko'rishlarini tasvirlab, sevishini aytarmikan?

Qanday qilib u boshqa birovning badaniga tegishi mumkin ekan-a?..

Ular yonida qaysi qo'shiq yangrayotgan ekan?..

Qiziq, men balkonda, yoki biron bir ko'channing biron burchagida, yoki eski qahvaxonada uni o'ylab, achchiq choyimni azob bilan ho'plar ekanman, ular birgalikda huzur-halovat ichidamikan? Ustiga-ustak, hech narsa bo'lmagandek, qanday qilib menga yana qo'ng'iroq qila oldi ekan?..

Bu qanaqa beparvolik?..

Aqlim sira qabul qila olmas edi.

“Men seni shunchaki tashlab ketmadim. Men iforimni senda qoldirib keldim. Umid qilamanki, har kuni mening iforim bilan uygʻonasan. Ming marta pushaymon boʻl va u dunyoga ravona boʻl”.

Unga shunday xabar yuborsam ham, hatto javob ham qaytarmadi... Darhaqiqat, aqldan ozgan kechalarimning birida qancha xabar yuborsam ham, javob bermay telefonini oʻchirib qoʻydi. U javob bermasa ham, ijtimoiy tarmoqlarda “onlayn” holatda ekanligini koʻrib, oʻzimni uning yonida his qildim. Oʻzimni aldardim, oʻzligim shunday bemaʼni narsalar bilan kurashar edi.

Aslida biz shundaymiz, sevganimiz bizga xiyonat qilsa ham, uni darhol tark eta olmaymiz. Biz iforimizni, xotiralarimizni qoldiramiz. Qoʻshiqlarda, sheʼrlarda, birga boʻlgan har bir joyning har bir oʻrindigʻida millionlab xotiralar qoldiramiz. Keyin esa qanchalik urinsak ham, uzoq vaqt davomida bu umidsizlik bilan kurasha olmaymiz. Endi qaysi biridan afsuslanishimiz kerak, xafa boʻlishimiz kerak: asabimizni buzib, telba holiga keltirganidanmi yoki yoki nafratlanganligimizga qaramay, sevishda davom etish tuygʻusidan voz kecha olmasligimizdanmi? Oh! Ongimda aylanayotgan chek-chegarasiz savollar haqida gapirmaasa ham boʻladi. Goʻyo: “Endi hech qachon sevilmayman”, — degan xayolni aqlimdan ham, qalbidan ham chiqara olmayapman. Haqiqatan ham, yana

seva olarmidim?..

Kelajak haqidagi har bir xayoliy orzularning ro'yobga chiqmasligi aniq bo'lsa-da, lekin bunday orzular tomon astoydil intilish insonning yuziga tushirilgan eng katta tarsakidir.

Darhaqiqat, xayolimizga chegaralar qo'ya olsak, hamma narsani o'z holiga qo'yib bersak va shu lahzada yashashga harakat qilsak, balki, ayriliqdan keyin o'zimizni qo'lga olishimiz biroz osonroq kecharmidi, lekin buni anglash qayerda deysiz? Biz doimo ro'yobga chiqmaydigan narsalarga yopishib ularni amalga oshirishga urinamiz. Bunday orzularda davom etish kitobni yana o'qish uchun to'xtagan joyimizga xatcho'p qo'yib ajratib qo'yishga o'xshaydi. O'zimizni mana shunday azoblar bilan xo'rlaymiz. Qayerdadir o'qigandim: "Agar qovun yomon chiqsa, uni yeyishdan voz kechamiz, biroq kitob yomon bo'lsa, nega o'qishni davom ettiramiz?" Bu juda chiroyli tasvirlash edi. Koshki, buni insonlar uchun ham qo'llay olsak. Eh, qaniydi, vaziyatni shu ondayoq qabul qilib, yo'limizni davom ettira olsak!

Men hamma uchun o'z yo'limni o'zgartirdim, lekin hech kim men uchun o'z yo'lini o'zgartirmadi. Hammaning muammolarini hal qilishga shunchalik tayyor edimki, ozgina qadr uchun o'z qadrimni yo'qotdim. Hech kim uchun suyuqli va sog'intiruvchi inson bo'lolmadim.

Meni sekin-asta yemirib borayotgan o'y-xayollarni yengish uchun muzdek hammom qabul qildim. Tunda balkon oynasi oldida muzdek qahvadan bir ho'pladim-da, ketmaket ikkita sigaret chekdim va o'zimni ko'chadagi olomon ichiga tashladim. Necha soat yurganimni, oyoqlarim tanamni qanchalik toliqtirganini, ayni bir xil ko'chalarda necha marta kezganimni bilmayman. Go'yo yurish hamma narsani o'chirib tashlaydigandek, go'yo har bir qadam bir lahzani o'chira oladigandek yengil tortaman... Nihoyat charchaganimni his qilib, sohildagi bo'sh o'rindiqlardan biriga o'tirdim. Sal oldinda bir bola otasi bilan qushlarga non ushog'ini tashlamoqda, sal beriroqda esa taxminan shu yoshlardagi usti-boshi kir, tuproqqa belangan yana bir bola hayot tashvishlarini bo'yniga olganini ko'rsatib, nochor qiyofasi bilan yalinib-yolvorib, ro'molcha sotishga harakat qilardi. Bunday mutanosiblikni ko'rishga majbur qilgan hayotni la'natlamoqchi bo'lar ekanman, qulog'imga chalingan bir ovozdan cho'chib ketdim:

— Sizda jarohat bor. Bu jarohat umringiz davomida qonaydi, ehtiyot bo'ling, — dedi bir notanish bir inson.

— Qanday qilib bir yara butun umr qonashi mumkin? — deya hayron qoldim.

Notanish odam tabassum qildi va uzoqlarga tikilib qoldi. Birozdan keyin xayolini yig'ishtirib:

— Qayg'u-azoblaringizni seving, unga tabassum qiling. Chunki bular sizning eng sodiq sirdoshingizdir, — dedi.

— Men tabassum qilishni istardim, lekin... Tabassum yuragimning o'rtasiga qamab qo'yganlarim ortiga yashirinib olgan. Bu ahmoqona tuyulishi mumkin, lekin shunday. Yara-larim ham uning orqasida qoldi. Baxtli kunlarim ham uning orqasida edi. Shuning uchun men ham sizga o'xshab o'yg'a tolishim shart emas, men zotan uni yuragimning tub-tubidan yetarlicha o'ylab bo'ldim! Jarohatinga tabassum qilsam, eski "men"im qaytib keladimi?..

Notanish odam yana xayollarga cho'kdi. Uzun-uzun xayollar ichra uzoqlarga qarardi. Yana birozdan keyin, menga o'girilib:

— Jarohatingiz qonasa, uni yana ko'proq tirnang. Ko'proq qonating, yanada ko'proq! Ana o'shanda avvalgidan ham yaxshiroq "men"ingiz keladi. To'g'ri, jarohatingizni qancha ko'p tirnasangiz, og'riq shuncha kuchayadi, bir muddat o'zingizni aqldan ozgandek his qilishingiz ham mumkin. Ammo, oxir-oqibat, sizni o'z domiga tortgan baxtsiz fikrlardan voz kechasiz va ular sizdan tamoman uzoqlashadi. Unutmangki, hamma narsa siz bilan go'zal. Siz o'zligingizdan voz kechmang, kurashing.

Notanish yigit uzundan uzun kulimsirab, gapirishda da-

vom etardi:

— Nima bo'lishidan qat'iy nazar, tabassum qilishdan to'xtamang. Tabassum qilganingiz sari hayotingiz yanada go'zallashishda davom etadi.

— Nega sizni eshitib o'tiribman o'zi? Shusiz ham aql-u hushimni yo'qotib, aqldan ozay deyapman! Biroz jim turolasizmi? Aybga buyurmang-u, meni tinch qo'ysangiz, yaxshi bo'lardi. Men yolg'iz qolmoqchiman, yaxshi qoling!

Jarohatimni yanada tirnarmishman. Axir, jarohatimni yanada qonatish uchun emas, aksincha, uning yo'q bo'lishi uchun bu yerdaman...

Jahl bilan o'rnimdan turib, tez-tez qadam tashlab uyga yetib borishga harakat qilardim. "Qiziq, o'zini dono deb hisoblaydigan bu odamlar davlatdan maosh olayotgani uchun boshqalarga shunday nasihat berishyapti, qoyil! "Agar o'ychan odamni ko'rsang, oldiga borib dardini eshit", — deyishadimi? Hmm... Balki, bular tadqiqot o'tkazayotgan psixologlardir. Uff, Jemre, o'zing bilan o'zing gaplashishni bas qil!

Hech narsa haqida o'ylamaslik uchun ko'zlarimni yerga qadab, katta-katta qadamlar bilan olg'a yurib borardim. O'zimni boshqa narsalardan chalg'itish uchun bosgan har qadamimni sanardim. Nechanchi qadamimni bosganimni bilmasdim. Ko'zlarimni ochar ekanman, rang-u ro'yi devor-

day oqarib ketgan, go'yoki o'limga yaqinlashayotgan, bir insonday dahshatli bir hissiyot bilan qo'rqa-pisa atrofiga qarardim. Og'riqdan bo'ynimni qimirlata olmasdim. Zo'rg'a boshimni qimirlatib yon tomonga o'girganimda bo'yoqlari o'chib ketgan javonni ko'rdim. U ham bo'yog'i ko'chib ketgan devor kabi kulrang tusda edi. Shu payt o'zimning kasalxonada ekanligimni angladim. Javonning ustida salfetka bilan yopilgan bir stakan suv bor edi. Tomog'im shunchalar qaqrab qurigandiki shunchalar holsizlangan edimki, hatto shu suvga ham qo'l uzatishga darmonim yo'q edi. Suvga qo'l uzatish u yoqda tursin, kimnidir chaqirolmasdim ham. Lablarimni tilim bilan ho'llashga harakat qildim lekin sahroda qolgan badaviydek, faqat duo qilishdan boshqa ilojim yo'q edi. "Yo Allohim, iltimos, iloji boricha, kimdir tezroq xonaga kirsin", — deb duo qilib turar ekanman, xonaga shifokor kirdi.

— Ehhe, ko'ryapmanki, uyg'onibsiz.

— Menga nima bo'ldi? Men bu yerga qanday kelib qoldim?

— O'zingizga nima bo'lganini eslay olmaysizmi?

— Yo'q, eslolmayman.

— Juda omadli qiz ekanligingizni bilasizmi?

— Siz doktor bo'lsangiz kerak. Doktor, menga nima bo'l-

di? Nega omadli ekanman?.. Ahvolimni koʻrmayapsizmi?..

— Omadingiz bor ekanki, mening qarshimdan chiqib qoldingiz. Kechirasiz-u, lekin keyingi safar sizni mashinada urib ketadigan odam shifokor boʻlmasligi mumkin. Ehtiyot boʻlib yurishingiz kerak. Eh, yoshlar! Mening ham bir qizim bor, u siz bilan deyarli tengdosh. Hammangiz juda xayolparastsiz. Sizlarning muammongiz nima — hech tushunmayman.

— Haligi... men...

— Oʻzingizni qanday his qilyapsiz, xayolparast qiz?

— Men yaxshiman. Ketishim kerak. Ketsam boʻladimi?

— Qayerga ketmoqchisiz? Biroz kutasiz endi, bu kecha bizning mehmonimizsiz. Ertalab oxirgi tahlilingizni koʻramiz: agar yaxshi chiqsa, keyin ruxsat beramiz. Bu safar kichik jarohatlar bilan qutulib qoldingiz. Boya aytganimdek, yoʻllarda ehtiyot boʻlib yuring, xoʻpmi?

— Kechirasiz, sizni ham tashvishga qoʻydim. Menga gʻamxoʻrlik qilganingiz uchun katta rahmat.

— Axir, insonlar hayotni saqlab qolish — mening vazifam. Ammo ehtiyotsizligingiz bir insonning hayotini zabun qilishiga oz qoldi. Oʻz hayotingizni, nima deytganimni tushunyapsizmi?

— Yana bir bor uzr so'rayman. Doktor, suv ichsam bo'ladimi? Tomog'im qurib ketdi.

— Albatta, sizga o'zim yordam beraman. Hammaga ham bunday yordam beravermayman, shuni biling! Chunki ayni vaqtda yoningizda sizga g'amxo'rlik qiladigan yo'q, ha, mayli, sevgilingiz ham tez orada kelib qoladi. Endi boshqa bemorlarga qarashim kerak. Qarang, karavot yonida tugma bor. Agar biror narsa kerak bo'lsa, shuni bosing, xo'pmi? Hamshira darhol keladi. Ko'rishguncha, xayolparast qiz.

— Haligi... Sevgilimmi? Lekin qanaqasiga?.. Lekin men... Axir, biz...

— Hmm... parishonligingizning sababi endi ma'lum bo'ldi. Qarang, "Naqadar omadlisiz", — deb bekorga aytmagan ekanman. U kelganida gaplashib, orangizdagi munosabatlaringizni tuzatish uchun bu juda yaxshi imkoniyatdir. Bu imkoniyatdan unumli foydalanib qoling. Shifokorning ortidan tikilib qoldim. Tezroq o'rnimdan turib ketishim kerak edi, lekin tanam shu qadar og'rir ediki, o'rnimdan turolmasdim. Yaxshisi, u kelganida ko'zlarimni yumib, o'zimni uxlatyotgandek ko'rsatganim ma'qulroq. U nima desa, desin — ko'zlarimni ochmasligim kerak.

Bir nafasda...

Bir ovoz bilan...

Bir lahzada...

Ha, shu kichik lahzalarda insonning hayotida kutilmagan kutilmagan voqealar sodir bo'ladi. Qaniydi, biroz e'tiborli bo'lsaydim, oh, ahmoqligimga qarang-a! Uyali telefonimdagi nomini nega o'zgartirmadim ekan-a?..

Hozir — bir paytlar sevgilim deb atagan insonim o'sha takabbur, kibrli qiz bilan menga xiyonat qilganini hazm qilishga ulgurmasimdanoq — birozdan so'ng bu yerga keladi va endi uning shunchaki eski tanishi bo'lib qolganman. Menga biroz mehribonlik ko'rsatadi. Bir qancha yaxshi niyatlar tilaydi. Vijdonini tinchlantirish uchun bugun kechqurun yonimda qolishi ham mumkin. Keyin esa — hech narsa bo'lmagandek — o'sha qizning yoniga qaytadi.

Men u uchun o'qishni qayerda to'xtaganini eslolmagan, xatcho'p qo'yishni unutgan oddiy bir kitobman. U o'ziga yoqmagan har qanday kitobning bir necha sahifalarini varaqlab, o'qishga arzimaydigandek tashlab yuboradi! Oh, mashhur nashriyotlar chop etgan, men kabi ahmoqlar o'qishdan charchamaydigan bunday g'amgin kitoblardan voz kechishim kerakligini aytishganda quloq solishim kerak edi. Balki, shu kitoblar tufayli mana shunday ahvolga tushib qolgandirman!

“Bu azoblarimiz bir kun tugaydi! Birgalikda baxtiyor hayot kechiramiz, qarshimizdan chiqadigan har qanday to'siq-

larga roziman! Qancha qiynalsam ham kurashaman”, — degan odam kurashning “k” harfiga ham chiday olmadi. Birinchi sinovdayoq mendan ayrildi, begona qizning qo‘lini tutdi. Balki, bir necha qizlarning qo‘lini tutgandir — bunisini bilmayman... Ey, Parvardigorim, uning asli kimligini taniy olmaganim naqadar azoblardi meni. Qaniydi, bu hayotni bir kun tugashini o‘ylasak?.. Qaniydi, oxiratimizni o‘ylab tavbatazarru qilsak?.. Afsuski, buni qilmaymiz-da... Aksiga olib, munosabatlarimizni qayta tiklash yoki o‘z o‘rniga tushirish yo‘llarini izlayapmiz... Har kim o‘zi imkoniyatlarini, o‘zining ahvolini hisobga olmay, o‘zicha-o‘zboshimcha rejalar tuzyapti. Endi bunisiga nima deysiz?.. Kasalxonaning palatasi ham menga o‘limni eslatardi. Ey aqlim, menga yana nimalarni ravo ko‘ryapsan?..

Asoslimi yoki asossizmi, sabablimi yoki besababmi, bulardan qat’i nazar, har qanday ayriliq azobi osonlikcha unutilmaydi. Koshki, afsuslanganini aytsa?.. Koshki, kelishi bilanoq qadrdon tafti bilan quchoqlab olsa?..

Qaniydi, har doimgidek, ozgina nozlanganimdan keyin unga qarab: “Ahmoqqinam, siz sababli o‘lishimga oz qoldi. Endi hech qachon menga bularni ravo ko‘rmang”, — deya bo‘yniga osilsam. Oh, shunchalar ojizmanki, hattoki, yonimdagi stakanga ham qo‘lim yetmayapti.

Sevgi — biroz xotirjamlikni talab qiladigan tuyg'u... Inson xotiralarini, lahzalarni, tabassumlarini va boshqa tuyg'ularni jamlagan sari, ularni uyg'unlashtirgan sari bir-biriga yanada kuchliroq bog'lanadi. Lekin unga bir boqishdayoq oshiq bo'lgandim. Bu qanday sodir bo'ldi, qanday qilib o'zim ham bilmagan holda unga bog'lanib qoldim — bilmayman, lekin uni sevib qolganimni bilaman, xolos. Sevgi tufayli o'zlikni anglash lozim, sevgi bilan yashash kerak, sevgi bilan hayot berish kerak, sevgi soyasida biroz hordiq olish kerak! Balki, ichingizdagi yong'inni darhol oshkor qilmasligingiz, sevgilingizga bildirmasligingiz kerakdir. Qalbning jon tomiridagi og'riq — shifobaxsh buyuk bir malham kabi bo'lgan “Men seni sevaman” jumlasini — siz uchun oddiy va odatiy bir gap bo'lib qolgan bo'lishi mumkin. Ammo men sizga to'rt yilimni berdim.

Ongim-u qalvim bilan kasalxonada uning kelishini kutayotganimda o'y-fikrlarimni minglab har xil xayollardan to'sa olmadim. Ichki ovozim gapirgan sari o'zimni aslo to'xtata olmayapman!

Xuddi duoni boshlamasdan avval omin deganimizdek, go'yoki hammasi qabul qilinganidek o'ylaymiz. Axir, to'rt yil qisqa vaqt emas-ku?.. Siz uchun ko'p kurashdim, ey inson!.. Sizni duolarimdagi eng ko'p qilgan niyatlarimning ijobati sifatida qabul qildim. Adashmaganligimga umid qilaman,

mening qadrimni bilib, yonimga qaytishingizga umid qilaman.

Axir, yuragimiz qachon urishni, qanday urishini, qachon to'xtashni biladigan, bizni adashtirmaydigan eng asosiy a'zomiz emasmi? Oh, qalbim, iltimos, meni adashtirma.

Juda uyqum keldi, lekin uxlamasligim kerak. O'zimni uxlaganday tutishim, zehnimni va ruhimni ham uxlatmasligim kerak. Agar uxlab qolsam, u kelganida men haqimda nimalar deganini qanday eshitaman. Ahmoq qiz, aslo uxlama.



Ikki soat oldin...

— Allo, xayrli kun. Men kim bilan gaplashyapman?

— Xayrli kun, mening ismim — Rifat, sizni eshitaman.

— Janob Rifat, men Beyo'g'lidagi "Shaxsiy hayot" xususiy kasalxonasidan qo'ng'iroq qilyapman. Sevgilingiz avtohalokatga uchradi. Bu yerga kelishingiz kerak.

— Sevgilimmi? Tushunmadim? Menimcha, adashyapsiz, chunki sevgilim hozir men bilan birga.

— Siz Jemre xonimning sevgilisi emasmisiz? Raqamingiz telefonidagi oxirgi qo'ng'iroqlar ro'yxatida "Hayotim" degan nom bilan yozganligi uchun sizga qo'ng'iroq qildik, kechirasiz. Jemre xonim hozirda shifokor nazorati ostida. O'zingiz kela olasizmi yoki tanishlaridan biriga xabar bera olasizmi?

— Jemre xonimga nima bo'ldi? Unga nima qildi? Jemre

hozir yaxshimi?

— Avtohalokat hodisasiga uchradi, janob Rifat. Kel-sangiz, yaxshi bo'lardi. Mayli, yaxshi qoling, xayr.

— Azizim, kim bilan gaplashyapsiz? Qanaqa Jemre, nima bo'libdi Jemrega? — dedi Rifatning yonidagi Betyul ismli qiz.

— Betyul, Jemre avtohalokatga uchrabdi. Men darhol kasalxonaga borishim kerak.

— U holda, men ham boraman, Rifat.

— Betyul, ahmoqlik qilma. Shunaqasi ham Jemre biz tufayli yetarlicha azob chekdi. Rashk qilish vaqtimi hozir?

— Yo'q, Rifat, men ham boraman. Qani, ketdik.

— Uf, Betyul, uf... Mayli, sen ham yur. Lekin Jemreni xafa qiladigan hech narsa dema. Harakatlaringga, gap-so'z-laringga ehtiyot bo'l, xo'pmi? Biz uni yetarlicha xafa qildik. Kel, yaxshisi, oldin nimalar bo'lganini bilib olaylik, agar u yaxshi bo'lsa, Ayselga xabar beramiz va ketamiz.

— Hoziroq Ayselga xabar bersangiz-chi, Rifat! Nima qilamiz o'zimiz borib?

— Betyul, rashk qilishni bas qil, tezroq boraylik. Sen Jemrega ko'rinma, hatto tashqarida kutib tur, maylimi?

— Mayli, Rifat, aytganingizdek bo'lsin. Xo'p...



Qiziq, Rifat qayerda qoldi ekan? Kelmasdi, kelmasligini bilardim. Eh, telba qalbim, topgan zarracha umidingdan darhol madad kutyapsan. Sen uchun umidning beshinchi mavsumi yo'q, tushunsang-chi! Oilam bor edi-ku, nega endi uni chaqirishdi? Noxush tasodiflardan nafratlanaman.

O'zimni va haddimni bilish vaqti keldi. U kelmasligini tushundim. Hamshirani chaqirib, undan Ayselni chaqirishni iltimos qilishim kerak. Shunday qilmoqchi ham bo'ldim, lekin hatto yonimdagi stakanga ham qo'lim yetmayapti-da. Qolaversa, Aysel meni tushunadigan yagona dugonam va sirdoshim. Tabiiyki, biroz jahli chiqadi va asabiylashadi, lekin nima bo'lsa ham, uni yumshataman.

Xudoyim, eshik taqillayapti, u keldimikan? Yoki hamshiramikani? Endi: "Kiring", — desam yoki ovoz chiqarsam, Rifat bo'lsa-chi? Ko'zingni yum, tentak Jemre.

— Ko'rmayapsizmi, Rifat, qiz uxlayapti. Ketskik, Aysel,

kelsin.

— Uf, Betyul, jim turishga va'da berganding-ku. Og'zingni yop.

— Yuring, hamshirani topaylik, Rifat. Nima bo'lganini so'raylik.

— Betyul, sen bunchalik shafqatsizlik qilolmaysan. Rashkning ham chegarasi bor. Meni jahlimni chiqarma!

Bo'lishi mumkin emas, o'sha qizni ham o'zi bilan bu yerga olib kelibdi. Ishonolmayapman. Jemre, aslo ko'zlaringni ochma, yana biroz sabr qil, ular hozir ketishadi. Bu yerdan yo'qolib ketsinlar. Allohim, iltimos. Iltimos...

Ishonmayman, ular ketishdi. Meni bu yerda yolg'iz qoldirishdi. Jin ursin, men bu insonni sevdimmi? Ahmoq Jemre, sevgan odamingni ko'rdingmi? Ahmoq...

Ko'zlarimni ochganimda, ular, haqiqatan ham, ketishgan edi. Nimaga duch kelganimni tushunolmasdim. "Qani endi, o'sha yerda o'lsam edi", — deya yig'lay boshladim.

Biroz muddat jimgina hayratlanib qoldim. Kutdim. Lekin hech kim kelib-ketmadi. O'sha ahmoq qiz aytganidek, hamshiraning oldiga ketgan bo'lsalar kerak. Yana biroz kutaman, hech kim kelmasa, keyin hamshirani chaqirish tugmasini bosishim kerak.

Ko'pdan beri ichi baxtga limmo-lim bo'lgan, hali ham umid borligiga ishontirgan barcha orzularim shu lahzada puchga chiqdi. "Meni emas uni tanlashining sababi nima edi?" — deya birmuncha vaqt o'zim bilan o'zim kurashdim.

O'zimni ulkan o'rmonda yolg'iz qolib ketgandek his qildim. Go'yoki bir xavfsiz daraxtning tagida o'tirar ekanman, Rifatni ustimga tashlanayotgan yovvoyi hayvondek tasavvur qildim. Bir necha oy davomida ko'z yoshlarimga sababchi bo'lgan odamdan bir zumda nafratlana boshladim.

Nafrat! Nafrat! Nafrat!

Insonlar kutilmagan paytda va kutilmagan tarzda: "Qarshimdagi odam hech qachon mendan nafratlanmaydi", — deb o'ylaydigan darajada shunchalar sodda bo'lishadi. U har doim ham o'zini sevishini tushunadi. Biroq sevgi hisob-kitobni yomon ko'radi. Lekin men muhabbatni hisob-kitob qilmadim-da. Koshki, ba'zi narsalarni hisob-kitob qila olsam edi! U bilan qurgan orzularimni eslatuvchi har bir jumla — xuddi kitoblarning sahifalari orasiga qo'yilgan xatcho'plardek — meni ta'qib qilardi.

Yuragimning nafratli har bir duk-duk tovushi quloqlarimni momaqaldiroqdek titratardi.

Hamma narsani "biz" uchun saqlagan va uni himoya qilgan butun xotiralarimdan nafratlanib ketdim!



— Jemre, senga nima bo'ldi?

— Aysel?..

— Hozir meni qo'ya tur, nimalar bo'ldi, Jemre? Rifat qo'ng'iroq qildi, darhol bu yerga keldim.

— Rifat... Hah... ha... Ha, Rifat. Alloh uning jazosini bersin.

— Ular bu yerga bir soatcha oldin kelishdi. O'zimni uyquga soldim. Keyin hamshiraning oldiga ketishdi.

— Nima deganing “ular kelishdi”? U kim bilan keldi?

— Ishona olasanmi, Aysel? Betyul bilan birgalikda shu yerga keldi.

— Jemre, to'xta, menga odamga o'xshab tushuntir. O'zing yaxshimisan? Uf, Jemre, nimalar bo'lyapti?

— Men tentirab yurar edim, keyin nima bo'lganini bilmayman. Ko'zimni ochganimda shu yerda edim. Yaxshiyamki, meni mashinasida urib yuborgan odam shu yerda shifokor bo'lib ishlar ekan. Voy, uzr, balki, o'zimni uning mashinasi tagiga tashlagandirman — bilmayman, aql-hushim joyida emas.

— Xo'sh... Xo'sh, Rifatning bunga nima aloqasi bor, Jemre? Men bunga ishona olmayapman, Jemre unga sen qo'ng'iroq qildirdingmi yoki yo'qmi?

— Yo'q, albatta, bema'ni gaplarni gapirma, Aysel. Tentirab yurganimda nimalarnidir o'ylab, jahlim chiqdi, shuning uchun unga qo'ng'iroq qilgandim. So'kib yana go'shakni qo'ymoqchi edim, har doimgidek ko'tarmadi.

— Xo'sh...

— Haligi... Aysel uni telefonimda haligacha "Hayotim" deb saqlagan edim.

— "Saqlagan edim" nimasi, Jemre? Ishonmayman, sen, haqiqatan ham, ahmoq ekansan-ku.

— Men kasalxonada hushsiz yotar ekanman, oxirgi qo'ng'irog'im "Hayotim" deb yozilgan telefon raqami bilan bo'l-

gani uchun shifokor unga qo'ng'iroq qilgan. O'sha ahmoq esa sevgilisini ham bu yerga olib kelibdi.

— Ajab bo'libdi, Jemre! Yaxshi bo'libdi, juda yaxshi bo'libdi-da... Biz senga qayta-qayta uning vijdotsiz ekanligini anglatishga harakat qildik. Nihoyat, endi o'z ko'zing bilan ko'rding. Ularni hozir qo'ya tur, o'zing yaxshimisan?

— Yaxshiman-ku, Aysel, ko'rmayapsanmi? Men shunchalik yaxshimanki, ikkalasini ham o'ldirishga yetadigan kuchimni jilovlay olmayapman.

— Jemre, endi bema'ni gaplarni bas qil. Qani, endi biroz uxlab ol. Shifokor hamshiraga ertalab senga ruxsat berishini aytibdi. Bugun kechqurun shu yerda qolaman. Tong otsin, uyga birga ketamiz, uzoq suhbat quramiz va bu ilonni qalbingdan bir umrga haydab chiqarasan!

— Aysel, mening jonim emas, yuragim og'riyapti.

— Qani, Jemre, uxla endi, Iltimos...

Oradan oylar o'tgandi. Ha, unuta olmadim, lekin sevgimning ichimda chirishi uchun bir lahza kifoya qildi. Qalbimning egasi deb atagan insonim qalbimni yemirganda o'z hayotimning qanchalar qadrliroq ekanini his qildim.

Inson ishq olovida yonar ekan, sevgilisi odam uni nimarlarga duchor qilgan bo'lsa ham, unga kechirim ko'zlari bilan

qaraydi. “Yaxshiyamki, kelmagan ekan... Yaxshiyamki, kechirim so‘ramagan ekan”, — deyman ayni paytlarda. Hozir o‘ylab qaragam, yonimda emasligi ancha yaxshi bo‘lgan ekan, kelmagani ham yaxshi bo‘lgan ekan. Axir, bu ishonchsizlik bilan, har daqiqada uni yo‘qotish qo‘rquvi bilan butun umr yashay olmasdim-da.

Tugab ketgan har qanday kechinma ba‘zan bizning foydamiz uchun xizmat qilishi mumkin. Insonlar azob chekar ekan, hattoki xayoliga ham keltira olmagan ishlarni qilishadi. Zotan, eng achinarlisi ham g‘ururni oyoqosti qilib, o‘zini o‘zi yo‘q qilishdir. Shuni tushunib yetdimki, o‘zimni qadrlamasam, hech kim meni qadrlamaydi. O‘zimni sevmasam, hech kim meni sevmaydi. Yonimda qolishni istamaganlarni majburlab ushlab o‘tirmayman. Endi sevgimni darhol oshkor qilmayman, men uchun kurashayotganini bilmay turib, yuragimni hech kimga topshirmayman. Odamlar o‘zlari uchun qadrli bo‘lgan insonlar uchungina kurashishlarni bilib oldim-da, axir.

“Azob-u uqubat va qayg‘ularning o‘tib ketishining eng katta belgisi — hech qachon o‘tib ketmaydigandek tuyulgan paytidir”, — deyman o‘zimga o‘zim.

O‘zimni shunchalik oyoqosti qilganim uchun ich-ichimdan g‘azablansam ham, xiyonatga uchraganimni tan oladigan

darajaga yetganim meni hayratga soldi. Sevgi ba'zan o'z ma'no-mazmunini yo'qotar ekan. Men nafsimga bo'ysungan ekanman. "Men bilan birga bo'lishni istaganlar menga nisbatan xato ishlar qilmaydi", — deb qancha vaqt davomida o'zimni o'zim ishontirgan ekanman. Sevish — qarshingdagi insonning barcha xatolariga rozi bo'lishni anglatmas ekan.

Yoningizda qolishni istamaydiganlarni o'zingiz bilan olib yurish istagingiz sizni emas, aksincha, ularni o'zi xohlagan nuqtaga olib borar ekan. Bunday harakatlar faqatgina sizni sevgan insonga ko'rsatilishi kerak.

Ulg'aydimmikin?.. Bilmayman, lekin o'zimdagi juda ko'p xatolarni ko'rdim. "Ba'zan jim turish — eng yaxshi chora", — deb o'ylayapman hozirgi paytlarda.



Insoniyat har doim shunday: umidini yo'qotmaslik uchun hamisha xayollarini quchoqlaydi-yu, lekin haqiqat bilan yuzlashishini aslo istamaydi. Ba'zan bunday qilmaslik — eng to'g'ri yo'ldir. Hammasi tugashi — eng yaxshi choradir. Ko'zimizga vijdonli ko'ringan tanlagan insonimiz xiyonat qildimi, demak, uni qo'yib yuborish kerak, u ketishi kerak. Aynan mana shu nuqta bizning burilish nuqtamizdir.

To'satdan yonoqqa yopishgan, o'z haddini bilmaydigan bir muhabbat bo'sasining ortidan qanchalar tez ergashamiz-a?.. Ustiga-ustak, bu borada aql-u ongimiz bilan aslo hisoblashmaymiz. Ayniqsa, na boshi va na oxiri bo'lgan turmush tashvishlari bor ekan, muhabbatning yo'li bizga yanada ajoyibdek tuyula boshlaydi. Oxir-oqibat, inson: "Bu safar xaltamni hayot qaysi sinovlari bilan to'ldirar, ekan? Eng go'zal sevgi xotiralarim bilanmi yoki inson qadrining eng foydali tomonlari bilanmi?" — deb o'ylamasdan qaror qiladi-qo'yadi, ya'ni yosh bo'lishiga qaramay sarxush bir muhabbat orqasidan telbalaricha ergashadi.



Inson umrini behuda sarflaydi!

Eng go'zal onini hafsalasi pir qilgan orzulari uchun sarflaydi!

Inson umrini shamolga sovradi!

Eng go'zal chog'idagi umid bergan musaffo tonglarning, yulduzli tunlarning har bir lahzasini shamolga sovradi!

Inson umrini uvol qiladi!

Eng go'zal tuyg'ular bilan to'ldirish kerak bo'lgan hayotining eng ajoyib onlarini uvol qiladi!



Sevishni ilk bor onamizdan o'rganamiz. Inson o'z sevgisi uchun nimalar qila olishni, sevgisini qanday yo'llar bilan ko'rsata olishni ham onasidan o'rganadi. Fidoyilikni, bag'rikenglikni, aql-u hushimizdagi har qanday go'zallikning qalbimizda qanday aks ettirishni ham onamiz o'rgatadi. Shuni ham esingizdan chiqarmang: hattoki onamiz ham bizni xato qilganimizda boshqa xato qilmaslik uchun jazolagan, tanbeh bergan. Shunday ekan, nega kechirimliligingiz tufayli sizga xiyonat qilgan insonlarning yana xiyonat qilishi uchun eshiklarni lang ochib qo'yibsiz?

Bir inson xato qilgan insonni hayotidan chiqarishga qaror qilganida xuddi sevishga qaror qilayotgandek har xil bahonalar qidiradi. Umidiga bir mavsum, beshinchi mavsumni qo'shishni xohlaydi. Lekin, bahonalar bilan sevilgan inson bahonalar bilan tark etilmaydi. Ya'ni bu ishlar shunchaki oson bo'lmaydi. O'zingizga nisbatan nohaqlik qilgan kishini ha-

yotingizdan o'chirib tashlang, go'yoki sigaretani bir zumda o'chirgandek. Aks holda: "Endi xato qilmas", — deya kutadigan bo'lsangiz, adashasiz, unutmang! Bu hayotda chorasiz qolgan juda ko'p insonlarni ko'rdim. Ular o'z xayollarida o'ylab topgan bahonalar zanjirining sirtmog'ida bo'g'ila-yotgandek edilar. O'zlarini tinimsiz savollar girdobiga ko'mishardi. Necha marta o'zim ham bularga guvoh bo'ldim, siz ham bunday voqealarga guvoh bo'lganingizdan aminman. Balki, mana shu kitobni ham ularga hamdard bo'lish uchun, dardlariga shifo bo'lish uchun yozgandirman. Balki, kitobimdagi bir jumla o'z hayotlarini yangidan boshlashlari uchun turtki bo'lar, yanada kuchli qadamlar bilan olg'a intilishar... Umidlariga beshinchi mavsum qo'shar...

Balki, adabiyotni yaxshi tushunmasman, kitoblarimning badiiy qiymati ham anchagina bahsli bir mavzu bo'lishi mumkin. "Faqat inson bo'lish va insoniy tuyg'ularni baham ko'rish, ularni qog'ozga tushirib adabiyot qilish", — deya nomlangan bir qoida yo'q-ku. Ustiga-ustak, yetarlicha adabiyotchilar bor. Mening maqsadim — dardingizga hamdard bo'lib, yoningizda bo'lish, o'zim kabi o'ylaydigan va dardini boshqalar bilan baham ko'radigan millionlarcha insonlar borligini bilish.

Endi esa, hurmatli do'stim, qachondir, haqiqatan ham, bularning barchasidan charchaganingni his qilsangiz, keyingi

qadamni tashlay olmasangiz, yana qaytadan boshlashga kuchingiz yetmaydigan bo'lsa, hattoki yashashdan charchab qolsangiz, mehribon va rahmli Allohni eslang. Uni ko'proq zikr eting. Chunki Allohning siz uchun yaratgan rejasi borligi aniq. Faqat jasur bo'ling va: "Bismilloh", — deya yangidan boshlang.

***ALLOH YANGIDAN BOSHLAGANLARNING
YORDAMCHISIDIR***

ALLOH SIZDAN ROZI BO'LSIN!

Shu kunlarda qalbimni g'alati bir horg'inlik qamrab oldi. O'zimni, o'zligimni asta-sekin yo'qotayapman. Borgan sari kichrayayapman, kichraygan sari kattalashayapman. O'zimdan kechib, boshqa bir "men"ga burkanyapman. Azob-u uqubalarimning qobig'i shunchalar kengayib ketganki, hatto koinotni teshay deydi. Bu men uchun umidsizlik degan bir tuyg'uning aynan o'zi edi. Chunki endi umidimning beshinchi mavsumi yo'q. Tugadi! Shu yergacha edi! O'ylay, o'ylay uyqum ham buzildi, huzur-halovatim ham yo'qoldi. Aniq nimani o'ylayotganimni bilmay turib, yo'qotgan vaqtim haqida o'ylab, kuchli ruhiy zo'riqishlarga uchradim. Yosh edim, aql-hushim o'zimda emasdi, o'zimni yo'qotib qo'ygandim — rostini aytadigan bo'lsam, nima bo'lganligini o'zim ham bilmasdim. Ko'p vaqtdan buyon o'zimga mos bo'lmagan, had-sarhadsiz bir qayg'ular ichida yashayapman. Shunchalar ahmoqona qiliqlar qilardimki, hattoki yerdan topib olgan

nonimni o'pib, peshonamga bosishga ham erinchoqlik qildim. Masjid hovlisidan qo'lida tasbeh o'girib chiqqan odamlarni ko'rib, hayron bo'lib, o'zimni yanada aybdor his qilib, birdan titrab yo'lda davom etgan paytlarim ham ko'p bo'lgan. Ko'pincha bularni ko'rib-ko'rmaslikka olishga urinardim!

Yo'l qo'ygan xatolarim ma'naviy tuyg'ularimni bo'g'ib qo'ydi, go'yoki o'ta iflos axlatxonadan hech qanday farqim yo'qdek, go'yoki o'lik odamdek o'zimni bu azob-u o'ylar girdobidan tortib olishga kuch topolmasdim. Go'yoki qalbimni kemiruvchi dardlar yuragimga tushsa, butun olamni qamrab olgan g'alati hiddan cho'chib ketaman. Bu hid — yaqinlashib kelayotgan o'limning achchiq hidi, ha shunday... O'lim hidi, haqiqatan ham, yomonmi? Bu olamdagi hammaga soyasi yetarli bo'lgan daraxt tagiga endi o'tirmoqchi bo'laman-u, ammo o'sha yerni kimdir mendan oldin egallab olgandek bo'ladi. Qadamlarini tashlab borayotgan bu dunyo allaqachon boshqalar tomonidan egallab olinganidek, menga bir parcha joy ham qoldirishmagandek tuyulardi. Shunda umidsizlik — chekinish yuragimni qamrab oladi. Anchadan beri umidsizligu nochorlikdan zada bo'lib yurgandim.

Bilaman: hayotim o'zim kutmagan paytda kutilmagan, aqlimga ham kelmagan insonlarning yonida o'zgaradi. Kutilmagan bir tarzda o'z nihoyasiga yetadi. lekin qoverda va qanday qilib ro'y berishini hayotim davomida o'rganma olaman,

xolos. Oldin o'lib, keyin yashashni tanladim. Yashab o'lmoq afzalmi yoki o'lib yashamoq afzalmi — buni bilmayman.

Kunlarning birida yana umidim uzildi — daraxt soyasini qidirib yurar ekanman, qo'limga tushgan bargdan cho'chib ketdim, lekin bu bilan koinot meni chorlayotganini anglamagan ekanman. Ehtimol, anglashni xohlamagandirman. Vaholonki, siz yaramning eng go'zal joyida ko'ksimga bosgan gulim edingiz. Qalbim edingiz... O'qishni uddalay olmaydigan histuyg'ularim zanjiri edingiz...

Bo'm-bo'sh qutiga o'xshayman. Ketayotganimda o'zim bilan olib ketadigan hech narsam yo'q. Hayotimni mana shunaqa hech bir ma'no-mantiqsiz tark etyapman. O'zimni ishontirish uchun qaysi so'zni behuda sarflaganimni bilmayman. Behuda sarflagan barcha so'zlarimdan, sizdan, hammadan va, eng asosiysi, Allohdan uzr so'rayman. Qo'limdan uzr so'rashdan boshqa nima ham kelardi?

Nimaning evaziga buncha malomatga chidadim? Hayot degan bu ne'mat, bir tomondan, yashash mashaqqati, ikkinchi tomondan, qalbimning qashshoqligi tufayli menga juda ham og'ir kelyapti. Endi esa taslim bo'lyapman. Inson sevadi. Biroq sevgining ta'm-tuzini, me'yorini bilmaydi. Buni tartibga sola olmaydi, o'z holicha sevadi. Onasini sevgani kabi, otasini sevgani kabi ba'zilar shunchaki so'zsiz, shartlarsiz, javobsiz,

had-sarhadsiz sevadi. O'z sarhadini bilmaydi, shunchaki sevadi! "She'r yozmasang bo'lmaydimi? Sen aqldan ozasan, nuridiydam", — der edi onam, lekin, baribir, qarshilik ko'rsata olmasdi. Men yozishda davom etaverardim. Ba'zan gul haqida, ba'zan chumoli haqida yozardim. Ha, albatta, Rabbim koinotda nimani yaratgan bo'lsa, barchasini sevardim. Men so'zsiz, so'roqsiz, shartlarsiz, had-sarhadsiz shunchaki oshiqlar kabi sevardim. Nima bo'ldi ekanki, men taslim bo'lish ostonasiga keldim?.. Qachon va nimadan voz kechdimki, aqlim ularni so'roq qila olmaydigan darajada shovqin-suron solmoqda?.. Ustiga-ustak, juda charchadim. O'zligimni bilish uchun necha bor kech qolganimni o'zim ham bilmayman. Bu chalkashliklar va fikrimni muvozanatda saqlay olmasliklarim o'zim uchun bir sinov bo'lsa kerakki, qo'limdan kelmeyapti, Allohim, meni kechir. Shu soatdan keyin sendan kechirim so'rashdan boshqa choram qolmadi. Meni afv et. Yashashni xohlamayman.

Ehtimol, hayotimning eng yaxshi davrida ko'rinar-ko'rinmas uchta nuqtani, ya'ni o'zimni, umidlarimni, voz kechganlarimni qoldirgan odamdirman. Men o'zimdan voz kechdim. Bundan buyon meni ustimning chang bo'lgani, oyoq kiyimlarim loyga botgani aslo qiziqitirmaydi. Men amalga oshirishni xohlayotganlarimni va umidimga doir fikrlarimning o'ttiz foizini ham amalga oshirmay bu dunyoni tark etyapman.

Qancha qo'shiqlar tinglaganim, qancha kitoblar o'qiganim, qancha she'rlar aytganimning endi ahamiyati yo'q.

Fotoalbomlarimni ko'zdan kechiryapman. Endi men uchun xotira diskda saqlangan yuzlab xotiralarning, taassurotlarning, tabassumlarning va qancha do'stim qolganining ham zarracha ahamiyati qolmadi. Istanbulning orqa ko'chalarida qo'limda fotoapparat va yonimda bir-ikkita sevimli do'stlarim bilan eski kitob do'konidagi qahvaxonada o'tirishni qanchalik yaxshi ko'rardim. Balat ko'chalaridan birida, to'rli dasturxon yozilgan, qo'lda to'qilgan yostiqlar qo'yilgan supali kafelar bo'lardi. Ularning biriga kirib, burchagiga bezak sifatida qo'yilgan kitob javonidan istalgan kitobni tanlab, ko'zlarimni yumib istalgan bir sahifasini ochib, o'zimga va ba'zan onamga bir hikmatli jumla sovg'a qilardim-da. Lekin bu meni qoniqtira olmasdi. Keyin esa tanishlarim uchun sahifa tanlardim va navbatdagi qo'shiqni sovg'a qilayotgandek yana o'ynashda davom etardim.

Bilaman: hozir vaqti emas. "Hozir kelma, ajal", — deyishni juda xohlardim, lekin o'zimdan voz kechdim! Bilasizmi, keksalar: "Biz bu yoshga qiyinchilig-u mashaqqatlar bilan keldik. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha yoshimizga qadar, ya'ni ulg'aygan, yoshimizga yosh qo'shilgan sayin o'tmishga nazar solganimizda o'tib ketgan umrimizga yanada hayratlanamiz", — deyishadi-ku. Lekin shuni aniq bilamanki, necha

yil yashasangiz ham, bunday yoshlarga qiyinchiliklar bilan kelinmaydi, aziz do'stim. Inson ba'zan tilining ta'mi qayerda shirini bo'lishini, qayerda o'z ta'mini yo'qotishini bila olmaydi. Necha marta qoqilding, necha marta oyoqqa turding, seni kim qo'llab-quvvatladi — endi bularning hech bir ahamiyati qolmadi. Bir lahzada umid fasllari birin-ketin kuzga aylanib ketadi. To'rt faslda to'liq yashashga harakat qilgan hamma narsangiz ko'z oldingizdan film tasmasi kabi o'tib ketadi. Nima uchun bunday bo'ldi ekan? Eng katta umidsizlikni boshdan kechirganligim uchun shunday bo'ldi!

Ba'zi bir yo'llarga tanlamay safar qilinadi. Bilaman: hayotingizni o'z tanlovingiz kabi boshqarasiz. Bu dard qaysi bo'shliqni yuzaga keltirdi, buni qanday bilib qoldim, bu umidsizlik qaysi teshikdan oqib chiqdi — buni ham bilmayman. Zamona charchatadigan darajada og'ir edi. Vaqt-soati kelib, hisob-kitob kuni belgilansa, barchamiz xatolarga to'la aql bovar qilmas o'tmishimizdan qochishni xohlaymiz. O'sha paytda hayotimizning har bir lahzasi aql bovar qilmas tezlik bilan namoyish qilinadi — buni aniq bilaman. Lekin o'lim istagidan o'zimni tiya olmayapman!

Doimo o'zimni boshi-oxiri yo'q g'alati g'avg'olar ichida ko'rar, kurashda o'zimga o'zim yengilar edim. Bir joydan boshlashim kerak edi, lekin birinchi qadamni qanday tashlash kerakligi haqida chuqur tashvishdaman, shuning uchun tas-

lim bo'lish bahonasi bilan barcha tashvishlarimni go'yoki bekitib qo'yar edim. Darhaqiqat, odatiy hayotimni o'z qo'lim bilan buzganimga ich-ichimdan pushaymonman. Bu tuyg'u, ha, ha, pushaymonlik hissi tufayli vijdonim o'zligimni rad etgan edi. Eng katta umidsizligimning sababi o'zim edim. Qo'lim teggan har bir novdani quritardim. Qilgan gunohlarimni o'zimga munosib ko'ra olmayotgan edim.

Pushaymonlik va vijdonini o'zaro uyg'unlashtirgan inson haqiqatni topish uchun shunday bir kurashga ega bo'ladiki, natijada egriliklari, albatta, to'g'rilanadi, inson o'zini to'g'ri yo'lga soladi, tavba qiladi. Oldingisidan ham kuchliroq salohiyatga ega bo'ladi, olgan saboqlari asosida hayotini sog'lom davom ettirardi. Men eshitgan hayotiy hikoyalarda hamisha shunday bo'lar edi. Xo'sh, nega bu mening qo'limdan kelmasdi? Qanday qilib odam shunchalik iymon bilan yashab, shunchalik og'ir gunohga yo'l qo'yishi mumkin edi? Shunchalik buyuk bir iymon barpo qilgan qal'alarni shayton vayron qilishi mumkinmi? "Urinib ham ko'rmagan", — deb o'ylayapsizmi? Harakat qildim. Tahorat oldim, namoz o'qidim, tavba qildim. Ustiga-ustak iymonimni o'z hayotimda mahkam tutib qolishni juda xohlardim, yashashni xohlardim. Biroq bu illat meni tark etmadi. Go'yoki shayton butun olamning yovuzligini mening ustimga yiqayotgandek edi. Vijdonsizlarcha qilgan ishlarim bir kuni intihomga aylanadi. Intihomning

ibtidosiga aylanardi! Hattoki politsiyaga borib taslim bo'ldim — buni ham sinab ko'rdim. Lekin har safar hibsdan chiqqanimda atrofimni shaytonlar o'rab olar, qiynoqqa solar, yana o'sha ishlarni qilishga qayta-qayta undashardi. Endi esa go'yo-ki shaharning tashlandiq ko'chalarida qolib ketgan, o'zligidan voz kechgan odam kabi ekanligimni tan oldim. Mendan hech kimga va hech qanday foyda bo'lmas edi endi.

“Insonlarni hayotda tutuvchi eng muhim omil — ularning qadr-qimmatdir”, — derdi buvim. Balki, o'z qadrimni yo'qotgandirman — bilmayman. “Umurtqalarsiz tik tuta olmaganimizdek, qadr-qimmatsiz ham hayotda tik tura olmaymiz. Vijdon — inson qalbining tayanchidir, avlodim. Shuni ishonch bilan ayta olamanki, g'ururi bo'lmagan inson boshini qancha tik tutishga qancha urinsa ham, bir kun hayoti ostin-ustun bo'ladi va boshi yerga egiladi. “Doim qadr-qimmat bilan yashagin, yorug' yuz bilan boshini tik tutib yurgin”, — deya ismingni Onur qo'ydik... Shuni yodingda tut”, — deya nasihat qilardilar. Xo'sh, menga nima bo'ldiki, mana shunday tartibsiz, umidsiz, vijdonsiz odamga aylanib qoldim — o'zim ham bilmayman.

Ruhim-u qalbim, jismim-u jonim orasidagi g'avg'o tobora kuchayib borardi. Hamma narsadan charchagandim va hayotimni tugatadigan bir davrga kirib bo'lgan edim. Kirishga kirgandim-u, lekin chiqolmasdim. Albatta, o'z joniga qasd

qilishning nimaligini, uning qanchalik yomon oqibatlariga olib kelishini, hattoki buning uchun narigi dunyoda qanaqa jazo berilishini ham bilardim. Lekin, ochig'ini aytsam, oxiratimni allaqachon kuydirgandim, shuning uchun hech qanday ahamiyati qolmagan edi.

Ba'zan shunday lahzalar bo'ladiki, oldindan keraksiz, noto'g'ri xulosalar chiqaramiz. Bilishimizga amin bo'lgan narsalarimizda osongina adashib qolib, yuzimizga tarsaki tushirilganday bo'ladi. Aslida, mening haqiqiy hikoyam aynan shu yerda boshlanadi.

Shunday kunlarni boshimdan o'tkazayotgan edimki, go'yoki qalbm-u ruhimni noma'lum-u bema'ni lanjliklar egallab olgandi. Butun borlig'im qandaydir tushkunlikka asir tushgandi, tafakkur tarzim esa o'z yo'lini yo'qotib qo'ygandi. Mana shunday kunlarning birida men ham o'z hayotimga qo'yish uchun mahallaning bir chekkasida yangi qurilgan bino tomon tez yurib borardim. Qalbmning tub-tubidan o'z aqlimga qarshi chiqardim, uni ham yo'ldan urardim. Aqlim meni bu yo'ldan qaytarishga urinsa-da, o'zini o'zi o'ldiradigan insonlardek o'zimni o'zim la'natlardim. "Birozdan keyin hammasi tugaydi. Ha, ha, tez orada aqlimni yemirib borayotgan va o'zimga bo'lgan nafratdan butunlay qutulaman. Hammasi tugaydi, oz qoldi", — deya yugurib borardim. Shu onda eshitilgan azon ovozidan birdan cho'chib ketdim. Peshin

namozi uchun azon o'qilayotgan edi. Masjidning zanglagan panjaralari orasidan qarar ekanman, u yerda turgan bir tobutga ko'zim tushdi. Joyida qotib qoldim. Bir muddat jimgina olomonni beixtiyor kuzatib turdim. Butun diqqatimni janoza namozini o'qigan domlanning gaplariga qaratdim.

“Allohning rahmatidan boshqa umidimiz yo'q! Vaziyat har doim ham biz kurgandek ketavermasligi mumkin. Kim biladi, balki, bu tobutda yotgan marhumning ham hayotdagi orzu-umidlari ko'p bo'lgandir! Har bir o'lim tushunib yetishimiz uchun bizga ko'p saboqlar beradi. Allohning rahmatidan umidimizni uzmaymiz. Darhaqiqat, Qur'oni Karimda: “Allohning rahmatidan noumid bo'lmang”¹, — deb buyurilgan.

Hazrati Jobir roziallohu anhu hikoya qilgan:

Johiliya davrida Tufayl ibn Amr ad-Davsiyning mustahkam bir qal'asi bor edi. Tufayl payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga keldi va o'zini himoya qilishga urinib:

— Ey Rasululloh! Yomonlik qiladiganlardan saqlanish uchun o'zingizni himoya qiluvchilar yoniga — ishonchli bir

¹ Qur'oni Karim. Zumar surati 53-oyatdan.

Qur'on oятларининг ушбу китобдаги таржимаси Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф роҳматуллоҳу алайҳининг “Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси” китобидан олинган.

qal'aga borasizmi? — deydi.

Ammo payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Davsiyning bu taklifini qabul qilmadilar, chunki Alloh Taolo ularga Madinaga hijrat qilishni buyurgan edi. Nihoyat, payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Madinaga hijrat qilganlarida, Tufayl ham do'stlaridan biri bilan Madinaga hijrat qiladilar. Ammo Madinada bu ikkisi kasal bo'lib, azob chekdilar. Ayniqsa, Tufaylning do'sti kasallik tufayli o'zini juda lohas his qila boshladi. Hattoki bu azobga chiday olmay bir kuni u o'tkir pichoq bilan o'z barmoq bo'g'imlarini kesib tashladi va ko'p qon yo'qotishi tufayli vafot etdi.

Tufayl roziallohu anhu bir kuni tushida go'zal qiyofada, lekin qo'llarini o'ralgan holda ko'rdi. Shunda undan:

— Robbing senga nima qildi? — deb so'radi.

U esa:

— Rabbim meni o'zining payg'ambari bilan hijrat qilganim uchun kechirdi, — dedi.

Bu safar Tufayl roziallohu anhu:

— Nima uchun seni ikki qo'ling o'ralgan holda ko'ryapman? — deb so'radi.

U kishi:

— Menga: “O‘z tanangga o‘zing zarar yetkazsang, u joy tuzatilmaydi!” — deyildi”, — deya javob beradi.

Tufayl roziyallohu anhu bu tushini Rasululloh sollailohu alayhi vasallamga aytadi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o‘z joniga qasd qilgan o‘sna insonning qo‘llari uchun shunday duo qildilar:

“Allohim! Uning ikkala qo‘lini ham mag‘firat ayla!”.

Unutmaylikki, duo barcha rahmat va mag‘firat eshiklarini ochadi. Hech qachon oldindan hukm chiqarmasligimiz kerak. Taqdirimiz qanday bo‘lishini Alloh biladi. Agar shunday bo‘lmasa, marhumning jannatda ekanligini bilsak, u kishi uchun ko‘p duo qilgan bo‘lardik. Agar marhumning abadiy do‘zaxda ekanini bilsak, undan umidimizni uzgan bo‘lardik. Ammo hukm chiqarish yolg‘iz Allohga xosdir. Bu yerda yotgan marhum do‘stimiz o‘z diniga muvofiq yashagan banda bo‘lganiga guvohlik berishimiz, u kishiga ko‘p duo qilishimiz farzdir. Alloh uni o‘z mag‘firati bilan afv etsin. Siz marhumning mo‘min bir qul ekanligiga shohidlik berasizlarmi? Undan rozimisizlar? Undan rozimisizlar? Undan rozimisizlar?

Ko‘zlarimdan qonli yoshlar oqib, o‘zimni tobutni ko‘targanlar orasida ko‘rdim. Yelkamizda borgan sari og‘irlashgan tobut bilan mozorga borganimizda kimdir mendan marhumga kim ekanligimni so‘radi.

Men:

— Uni tanimasdim, janoza ekanligini ko'rib keldim, — dedim.

Shunda boya marhumga kim ekanligimni so'ragan odam:

— Sen naqadar yaxshi inson ekansan, bolam. Janozani ko'rishi bilan vazifalarini ado etish har bir mo'minning vazifasi va burchlaridan biridir. Alloh sendan rozi bo'lsin, — dedi.

“Alloh sendan rozi bo'lsin!” Bu jumlaning eshitmaganimga naqadar uzoq vaqt bo'libdi. Uyalganimdan boshimni yerga egib, ich-ichimdan yig'lashda davom etardim. Sal qolsa, men ham o'z jonimga qasd qilmoqchi edim, to'g'ri emasmi? Qanaqasiga bu niyatimni unutdim ekan-a?.. Hayotimga nuqta qo'yib uni tugatmoqchi ekanligim xayolimdan chiqib ketgan edi. Yuragimda yoqimli bir yengillik hissi paydo bo'ldi. Bu menga go'yoki huzur-halovatni eslatayotgan edi. “Alloh sendan rozi bo'lsin!” jumlasini qulog'imning, hattoki yuragimning tub-tubida aks sado berardi.

“Alloh sendan rozi bo'lsin!”

O'zligimni asir olgan dardlar, qo'rquvlar go'yoki uchi ketgandi va badanimni avvallari hech ham his qilmagan bir kuch o'rab olgandi. Janozadan so'ng odamlar uch-besh kishi bo'lib uzoqlashdilar. Eng oxirida bir imom qolgandi. Men

ham bir burchakda cho'kkalab, ich-ichimdan yig'lab turardim. "Oh, men bularni o'zimga qanday ravo ko'rdim!" — deya o'zim bilan o'zim kurashardim. Umidning yana bir mavsumi bo'lganida nomi nima bo'lardi?

— Boshingni ko'tar bolam, — degan ovozini eshitib o'rnimdan sakrab turdim.

— Boshingni ko'tar, bolam. Sen kimsan? Nima uchun yig'layapsan? — deyar edi boyagi imom.

Boshimni ko'tarishga yuzim chidamasdi. Buvimning so'zlari qulog'imda aks sado berardi: "Onur!" Imom qo'lini sekin yelkamga qo'ydi. Hattoki uning ismini ham bilmasdim. Janoza marosimidan so'ng mozorning o'rtasida o'nlab marhumlar orasida faqatgina men bilan o'sha imom bor edi. Uyalib yuzimni unga o'girdim va:

— Men kim ekanligimni bilmayman. Juda ham xijolatdaman! — dedim.

Bu imom o'zimni yo'qotayotgan ayni vaqtda, o'zimga kelish uchun madorim qolmaganda, go'yoki hayotimning so'nggi onlarida qarshimga chiqishi Allohning go'zal inoyati — **YASHASH UCHUN KURASH**ning timsoli edi.

Har qanday tasodifda qanchadan qancha sirlar yashirin

edi va biz — insonlar esa har doim eng osonini, voz kechishni, qadrsizlikni tanlardik. “Endi men uchun hammasi tugadi”, — degan onimizda Alloh bizga yangi imkoniyatlarni ko'rsatadi, yashash uchun kurashning qanchalik muhim ekanligini eslata-di. Agar o'sha kuni masjid yonidan e'tiborsizlik bilan o'tib ketganimda o'zimni hech qachon qo'lga ololmasdim. O'zimni yo'qotgan holda o'sha yerga borar ekanman, janozaning o'rta-sida o'zimni qayta topishim ham Allohning inoyati edi. Qabristonning o'rtasida imomning nasihatlarini necha soatlar davomida tinglardim.

Har bir odamda shunday lahzalar bo'ladiki, barchasini o'y-xayolidan chiqarib, hammasiga qo'l siltab kelajak tomon olg'a qadam tashlaydi, ezadigan, tushkunlikka tushiradigan ishlardan voz kechib, yangi hayot sari intilishni boshlaydi.

Men uchun ham ba'zi bir narsalardan voz kechish vaqti kelgandi. Azoblar, qayg'ular, ustma-ust kelgan tashvishlarning barchasi Allohga yaqinlashtiradigan ne'matlar ekan. Dunyo o'tkinchi ekan, dardlar ham shunday o'tkinchidir. Hattoki 5 yildan keyin ham eslamaydigan insonlar uchun o'z umrini behuda sarflash to'g'ri, oqilona ish emas ekan. Hayotimizga kirib kelgan har bir inson aslida bizga nimadir o'rgatishni istarkan, buni tushunish uchun o'zimizga o'zimiz beradigan azoblarimizni to'xtatib, o'zimiz haqida o'ylashimiz, o'z qarorimizni berishimiz lozim ekan.

Sizni yoqtirmaydigan, azoblaydigan xafa qiladigan, ustiga-ustak, sizdan uzr so'rashni talab qiladigan insonlarni yo'qotganingiz tufayli aslo qayg'uga tushmang.

Vaqt qanday o'tganini bilolmay qoldim. Ha, ko'p marta tavba qilishga urinib, o'zimcha namoz boshladim va yana o'sha botqoqqa kirib qoldim. Chunki ba'zida ba'zi narsalarda inson yolg'iz o'zi yo'lini topolmaydi. Yanglish yo'llarda bo'lgani holda xatoliklar botqog'iga botadi.

Oradan besh yil o'tdi. Men eski "men" emasdim. Meni suyak-suyagimgacha ezayotgan o'sha iflos tuyg'ularni ildizi bilan yulib oldim. Men hozir umidning beshinchi mavsumidaman. Xuddi ismimga mos bo'lgan holda, buvimga bergan va'damni bajardim: "Onur".

Men eski "men" emasdim. "Men kimman? Qayerdan keldim? Qayerga ketyapman?" savollariga boshim tik, yuzim yorug' ravishda javobim bor endi. Men Onurman. Ismimga mos bo'lishga g'ayrat ko'rsatgan ojiz bir qulman endi. O'sha imomni tez-tez ziyorat qilardim, uning nasihatlarini tinglardim va qachonki zaiflashsam, tezda masjidga — uning oldiga borardim. Masjidning ostonasida uni kutib, qo'llarini quchib o'pardim va derdimki:

"Ustoz, Alloh sizdan rozi bo'lsin! Endi umidning besh mavsumi bor.



Har bir insoning hayotiga yana bir bahor sig'ar ekan. Qolaversa, nima uchun sig'masligi kerak, dunyoda yaxshi insonlar ham bor. Go'zalliklar ham bor. Orzu qilish bor. Hech bo'lmaganda, o'sha yerda hammasi joyida bo'ladi.

Bu satrlarni o'qiyotgan ekansiz, shuni unutmang: hamma narsa bir lahzada go'zallashadi. Agar dardlaringizdan, hayotning sizga yuborgan mashaqqatlaridan ibrat ololсанgiz, ishoning: sinovdan o'tishni uddalaysiz. Dunyoning o'tkinchiligini bilganingiz sayin azobli kechinmalar aslida, sizni toblaganligini, chiniqtirganini bilib olasiz.

Ey, yaxshi insonlar, xafa bo'lmang, o'tmishingizni ortingizda qoldiring, qo'yavering ortda qolishni istaganlar qola-

versinlar. Borishni xohlamaganlar bilan yo'lga chiqishga harakat qilish, og'ir tosh bilan dengizga sakrash kabidir. Aslo qutula olmaysiz. Yoki tuyg'ularingiz o'ladi, yoki tirik murdaga aylanasiz. Qadringizni o'ylayapsizmi? Boshqalar tomonidan beriladigan qadr-qiyamat sizni shunchalar go'zal yaratgan, sizga nafas olish erkinligini bergan Yaratganni unutishga arziydimi?.. Boqiylik turgan ekan, foniylilik nimaga ham arzirdi?..

O'zingizga ketganlarning qaytishi va xato qilganlarning to'g'rilanishlarini kutmaslikka va'da bering. Ketgan, xafa qilgan, yarim yo'lda qoldirganlar qaytsa, nimaga ham yarardi? Vayron bo'lgan qalblarni qayta tiklay olishadimi? Xafa qilganlarni hayotingizga qayta kiritish siz uchun shunchalar osonmi? Agarda ular hayotingizda bo'lishni istaganda aslo ketishmasdi. O'zingizni, ruhingizni va ketganlarni afv eting va qo'yib yuboring.

3 *Soniya*

Ko'zim, ko'nglim nimani ko'rgan bo'lsa, barchasi senda namoyon bo'lyapti, Gulchin. Ko'zlaring xanjardan ham o'tkir ekanligi sir emas. Yuragim kabi satrlarim ham faqatgina: "Ishq, ishq", — deya takrorlardi. Gulchin, sen bilan birga Balat ko'chalarida yurishni shunchalik sog'indimki, asti qo'yaver. Esingdami, o'zing yaxshi ko'radigan ayvonchali uylardek — go'yoki zinapoyalar orqali osmonga ko'tarilayotgan — qiradirlarda rasmga olayotgan insonlarni ko'rib:

— Qaniydi, bizning ham fotoapparatimiz bo'lsa edi, Nejat, — degan kuningni aslo unutmayman.

Men ham o'shanda:

— Senga va'da beraman, Gulchin, eng qisqa fursatda sen uchun eng yaxshi fotoapparat sotib olaman. Faqat sen istasang, bas, — degandim pinagimni ham buzmay.

Esingdami, Balatda aylanib yurgan bir paytimizda ko'chani-ning muyulishida rango-rang soyabonlari osmonga qadalgan bir qahvaxonada o'tirgandik-ku?.. Qarshisida bir cherkov ham bor edi-ku, esladingmi?..

— Kiramizmi, Nejat? Aylanaylik, juda qiziqdim, — deganding-da.

O'shanda cho'ntagimda so'nggi pullarim qolganiga qaramasdan rozilik bildirib:

— Qani, ketdik, kiramiz, sevgilim, — degandim.

Lekin, ich-chimdan: "Allohim, kirish bepul bo'lsin", — deya, duo qilardim.

Faqirlikning bo'g'zimdagi achchiq ta'mi har safar sen bilan ko'rishganimizda ko'ngilimni aynitardi. Go'zalim, sening ham aybing yo'q edi. Axir, sen uch-to'rt chaqaga ishlaydigan oddiy ta'mirchi ekanligimni qayerdan ham bilarding?! O'sha kunni mayda-chuydalarigacha, soniyalarigacha eslayman, bilasanmi?

Eshikda turgan xizmatchi:

— Bu yerga kirish uchun bir kun oldin ro'yxatdan o'tishingiz kerak. Aytgancha, soat 10 da ochiladi, xabaringiz bo'lsin", — deganida senga sezdirmasdan yengil nafas olgandim.

— Bugun Balatning har bir yerini kezaylik, xo'pmi, sevgilim? Yaxshiyamki, kelibmiz, qara qanday chiroyli. Anchadan buyon sayr qilishni istar edim, — deganding.

— Hayotim, bilasan-ku, shirkatda ishlarim juda ko'p. Faqat bugun vaqt ajrata oldim. Ha, judayam yaxshi bo'ldi, sevgilim. Yaxshiyamki, kelibmiz.

Oh, Gulchin, agar ustaxonada oddiy ta'mirchi ekanligimni bilsang ham, xuddi shunday narsalarni o'ylarmiding — bunisini bilmayman. Seni mindirib kezdirgan o'sha mashinalar shirkatning emas, ustaxonadagi kelgan mijozlarning mashinasi ekanligini bilsayding, yana xuddi shu mehr bilan ko'zlarimga boqarmiding?..

Katta ko'cha bo'ylab yonma-yon biri-biriga suyanib turgan qator uylar kabiman. Xuddi umidning beshinchi mavsumidan — sendan — yordam olmasam, qulayman. Hislarim xuddi o'sha uylar bir-biridan yordam olmasa, qulab tushadiganday madorsiz, tang ahvolda. Uylarning ranglariga qaraganda ichim biroz bo'lsa-da yorishadi, negaligini bilasanmi, Gulchin? Shunda umidlarim yanada kuchayadi. O'sha uylarning qayta bo'yalgan qiyofasi yillarni raqobatga chorlagani kabi. Bir kuni men ham qarshingda xuddi ushbu katta ko'chaning qarshisida yangilangan uylar kabi tik turaman, yanada kuchliroq bo'laman. Ko'zlaringga qarab, kaftingni o'pib, seni

bag'rimga bosib, hammasini, butun haqiqatni senga birmabir, xijolat tortib aytib beraman. Eh! Qaniydi, shunchalar oson bo'lsa!

Aylanib yurar ekanmiz, ochqaganingni tushundim. Lekin pulim kamligini va seni olib boradigan joyimni hisobga olib, birinchi tepalikning oxiridagi novvoyxonani ko'rib:

— Oh, qara, Gulchin, bu yerning kulchalari juda mashhur. Qani yur, senga kulcha olib beray, — degandim.

O'shanda sen:

— Hali ochqamadim, sevgilim. Sening yoningda ochligimni his qilmayman-ku, — deya nojoiz so'z aytgandek ko'zlariningni olib qochib, tabassum qilganding.

Eslaysanmi? Oldinda zinapoyaga chiqayotganimizda qarshimizdan bu safar boshqa bir muzey chiqqandi.

“Agar bu yer ochiq bo'lsa, yana aylanishni xohlab qolsachi?..” — deb o'ylab turarkanman:

— Gulchin, yana aylanaylik, dema, sevgilim, istasang, albatta, aylanamiz, lekin senga boshqa bir sovg'am bor, seni shunday chiroyli joyga olib boraman. U yer — Balatdagi eng sevgan joylarimdan biri. U yerni yoqtirib qolasan. Vaqt yoqotmasdan u yerda sen bilan yolg'iz qolish qanchalik zavqli bo'ladi. Gapimga qo'shilasanmi?

— Hayotim, albatta, sening taklifingni rad qila olmayman, lekin charchadim. Endigina senga: “Dam olaylik”, — demoqchi edim.

— Seni yana biroz charchataman, lekin charchashingga arziydi, Gulchin.

— Mayli, hayotim, unday bo'lsa, tezroq boraylik. Chunki birozdan keyin oyoqlarimdan kuch ketadi. Men Balatga kelishni xohlagandim, lekin bu yer bir kunda aylanib chiqolmaydigan darajada go'zalliklarga to'la ekan. Qaysi biriga qarashga hayron bo'lib, shoshib qoladi kishi. Shunday emasmi?

— Yana kelamiz, sevgilim, istasang bas.

— Nima desam ham: “Sen istasang, bas”, — deysan, Nejat. Sen sira ham zerikmaysanmi?

— Nimadan zerikaman, hayotim. Sen bilan o'tkazgan har soniyam umrimning uch soniyasiga teng.

— Nima uchun uch, sevgilim? Nima uchun bir umrga emas, uch soniyaga?

— Chunki, Gulchin, seni uch soniyada o'zimga bog'ladim.

— Eh, Nejat, juda yomonsan. Axir, bu uch soniya emasdi. Har kun mahallamga kelib, meni rom etish uchun dera-zamning tagida tong ottirgan kechalarini unutmadim. Sen

kabi kap-katta tadbirkorni tushirgan holimdan uyaliib, oxiri: “Eh, xo‘p”, — degandim.

— Mayli, mayli, Gulchin, taslimman. Siz — ayollarga hazil qilish yoqmaydi, hayotim. Shu bilan birga, eslatib o‘tay: birgina: “Ha”, — deyish ham uch soniya emas, Gulchin.

Balat ko‘chalarida u yerdan-bu yerga aylanib charchagandik. Nihoyat uzoq izlaganimdan keyin qidirgan joyimni topgandim.

— Sevgilim, nihoyat yetib keldik. Bu yerning anjirli pirogi va o‘ramalari juda mashhur.

— Nejat, bu yer juda ajoyib... Bu yerlar qadimgi qirq beshinchi yillardan qolgandek, Nejat. Ha, ha, ichkaridan laz-zatli anjirli pirogning hidi kelyapti. Devorda Turkan Shoray va Kadir Inanirning surati bor ekan, ko‘rdingmi? Xuddi biz kabi bir-birlariga muhabbat bilan qarayaptilar. Qara, surat tagida nima yozilgan ekan, sevgilim.

Xayolimda tabassuming namoyon bo‘ldi va ich-ichimdan dedimki: “Yana kelsang, seni yana sevardim».



Hamma narsa och pushti rangda edi. Ko'nglimning sahifalarini varaqlaganim sayin ruhim azoblanardi. Bu yerdan ayrilganimga yillar bo'lgandi. Qanchadan qancha haqoratlar qilib, to'rva-xaltamni yelkamga qo'yib, ko'chaga otdilar! Shu onda turgan joyim esa — u ayol va Gulchin yonidir! O'zimga va unga bu azobni qanday ravo ko'rdim — aslo tushuna olmasdim. Pushaymonligim borgan sari nafasimni siqardi. Yillar o'tib, bu eski ustaxonaga yana qanday kelib qoldim? Xotiralar meni o'tmishim sari yetaklardi. Boy bo'lish orzularim, Gulchin va o'sha ayol haqidagi xayollar. Qarshimdan chiqqan kuniga ming la'natlar bo'lsin! Qanday bu tuzoqqa tushdim-a?

Kadir Inanir va Turkan Shorayning suratining tepasida Sadri Alishikning surati bor edi va ustida:

“Keyin aslo bu mahallaga kelmadi, kelolmadi. Chunki, bizning tor va eski ko'chalarga Mujgonning avtomobili sig'maydi”, — deyishgandi. Ey voh, Sadri og'a. “Oh, Mujgon,

oh" filmini qachon tomosha qilsam, Gulchin xayolimga keladi. Aslida, xayolimdan aslo chiqmagan! Devordagi surat ustidagi yozuv filmning so'nggi sahnasi edi. Yaxshi eslayman, shunday davom etardi: "Zotan yilda bir necha oy Yevropada bo'larmish", — dedilar. "Vaqt shifobaxsh malhamdir, unutasan", — dedilar. Men ham unutdim. Endi aslo xayolimga ham kelmaydi".

"Hatto Mujgonni ham eslamayman. Eslamayman", — deb aytilgandi filmning nihoyasida.

Men esa...

Unutolmadim seni, Gulchin. Unutolmayapman.

Ey voh, Sadir og'a. Shuncha azoblarga qanday chidading? "Oh, Mujgon, oh!" Sen qanday bir film edingki? O'sha sahna meni yoqib kul qildi. Qayerdan ham bilardimki, o'zim Mujgon sen esa Sadri og'a bo'lishingni. UZR so'rayman, Gulchin. UZR so'rayman.... Daftaringa yozilgan o'sha sahnani: "Faqat o'z kambag'alligim yodimga kelsin-u, bir kun bu faqirlikdan qutulay", — deb tinmay o'qirdim. Qalbinga shu qadar o'rnatishibsaniki, Gulchin, ketganingda buni tushundim. Avvallari: "Bu ham o'tadi, tezda unutama", — deb o'ylagandim, lekin unday bo'lmadi. O'sha ayol bor-ku, u ayol.... O'sha shayton es-hushimni o'g'irladi! Men senga buni qanday ravo ko'rdim, Gulchin? Qanday?



Mujgon tumanimizning yagonasi edi. Sochlari taqimigacha tushib turadi.

Qo'llari kichik, ko'zlari lojuvard rangda edi.

Ustiga-ustak, negaligini bilmayman-u, uning ham menda ko'ngli bor edi.

Mujgonni shunchalik sevdimki, o'zimga ham hayron qoldim, haddimni bila olmadim, go'yoki turmush quradigandek edik.

Menga uyimiz, boshpanamiz bo'ladigandek, chirog'imiz yonadigandek, faqir dasturxonimiz farovon bo'ladigandek tuyuldi.

Sohil bog'chasida ma'danli suv ichib, yashirincha shirin orzular qilardik. So'ngra bozorlarga borardik. Eski narsalarni yoqtirardik, oynali javon, naqshli karavotimiz bo'lishni orzu qilardik.

*Har on, har doim Mujgonning yonida bo'lmoqchi edim,
lekin bo'lmadi, u ketdi.*

Qayergami?

Pulga ketdi, og'am, pulga!

Qanday qilib seni yillaracha sevdim.

Har oqshom yo'llaringni poyladim.

*"Albatta, bir kuni oila quramiz", — deya shirin xayollar
ichida yurarkanman, uning bir boy yigit bilan turmush qurga-
nini eshitdim.*

Boy bo'lganimda sendan mosuvo bo'lib qolmasdim.

Har on seni o'ylab, aslo yig'lamasdim.

Pulim bo'lganida sevgim yonimda bo'lar edi.

Seva-seva yonimda bo'larding.

Nikoh suratlariga ham tushgandik.

*So'ngra tarvuzchi Rashid og'aning qaynag'asidan qarz olib,
nikoh uzuklarimizni ham yasatdik.*

*Lekin buni Mujgon taqmadi, taqa olmadi qo'limdan uchib
ketdi.*

Demakki, yashirincha o'ziga oltin qafas topibdi.

Mujgon o'ziga alohida, maxsus kelin ko'ylak tiktiribdilar, men kabi ijaraga, simli kelin ko'ylak olishga urinmabdilar.

Shunday sevindimki, uning mas'ud va baxtiyor bo'lishi uchun duolar qildim.

Mujgon kabi men ham bir-birimizga bergan va'dalarni, ichgan qasamlarni unutdik.

Mujgon esa keyin aslo mahallaga kelmadi, kelolmadi. "Bizning tor va eski ko'chalarimizga uning mashinasi sig'mayotgan ekan", — dedilar. "Yilda bir necha oy Yevropada bo'lar ekan", — deyishdi. "Vaqt shifobaxsh malhamdir, unutasan", — dedilar, men ham unutdim.

Aslo xayolimga ham kelmadi. Hattoki Mujgonni eslamadim ham. Eslamayapman. "Lablar o'rniga pullarni o'pgan bo'lsa kerak", — deb o'ylayman.

Sevishganlar boylik tufayli ayriladilarmi?

Modomiki, pul muhim ekan, ol qo'lingga o'sha pullarni.

Sumkangga ham sol o'sha eringni.

Boy bo'lganimda sensiz qolmasdim.

Har on seni o'ylab aslo yig'lamasdim.

Pulim bo'lsaydi, sevgim qolardi.

Seva-seva yonimda men bilan yasharding.



Hozir: “Sening yoningga qaytdim”, — desam, “Afv et”, — desam, afv etmaysan — buni bilaman. bunday deyishga jasoratim ham yo‘q, Gulchin.

Hali-hanuz ozurdaman...

Hali ham ichimdan to‘lib-toshib chiqqan kechinmalarni boshimdan o‘tkazyapman. Agar yonimda bo‘lsayding, meni xotirjamlashtirarding.

Bu qo‘yib yubormayotgan bu kechinmalarim ichidan meni qo‘llaring bilan tortib chiqararding.



Balatdagi o'sha qahvaxonada o'tirgan kunimizda o'sha ayolning menga ko'zini suzayotganini payqab qoldim. Keyin esa stulimni joyini o'zgartirib uning bu qilig'iga to'sqinlik qilgandim. Yaxshiyamki, bu payt sen qo'llaringni yuvishga ketganding. Bo'lmasa, bir dunyo rashk g'avg'osini chiqararding — buni aniq bilaman. Lekin ayolning boyligi shunchalik ko'rinib turar ediki, qasam ichib ayta olamanki, ayolga emas, uning boyligiga qaragandim. “Bir kun senga ham bu ayolnikiday hashamatli hayot bag'ishlayman”, — deb xayol surardim. “Bunchalik boy ayollarning bunday arzon qahvaxonada nima ishi bo'lishi mumkin?” — deb o'ylab turgan edim, u jahl bilan biroz oldinda suratga olayotgan kishiga tinmay gapirardi:

— Qani, to'xtat-chi, tugamadimi hali suratga olishing, bundan zerikib ketdim. Qorong'i burchaklarda yashirin joylarni suratga olishdan maqsading nima? Tushunmadim?

Faqat men emas, butun qahvaxonadagilar ayolga jahl bilan qaragandi. Bu ayolning hayotimni ostin-ustun qilishi o'sha paytda xayolimga ham kelmagan edi. Pulni yaxshi ko'rganim uchun bu ayolga ilakishib, seni tark etarmishman! Buni tushimda ko'rsam ham ishonmasdim. Lekin o'ngimda ro'y berdi! Telba aqlim! Inson bir xatoga yo'l qo'ydimi, demak, o'zi ham yo'q bo'lib ketar ekan-da.



Bir haftadan keyin...

— Qizim, sen yaqin orada biznesmen sevgiling bilan unashtirilishing kerak edi-ku? Nega bu do'konda o'zingni qiynayapsan? Borib uyingda maza qilib o'tirmaysanmi?

— Bu nima deganingiz, Hasiba opa? Men bu ishimdan mamnunman. Axir, oilamizning butun tashvishi otamning zimmasida, shuning uchun unga ajoyib yordamchi bo'lyapman.

— Eh, gapni tushunmaydigan telba qiz. Sevgilingga bu haqida ozgina gap ochsang, u butun qarzlaringni to'laydi, senga yordam beradi.

— Bu gapni siz aytmadingiz, men esa eshitmadim, maylimi, Hasiba opa. Shunaqa qilishim mumkinmi? Men shunday qizlarga o'xshaymanmi? U har uchrashuvimizda

meni eng yaxshi, hashamatli restoranlarga olib borishni istaydi, lekin men har doim rad qilardim. Shunday ekan, unga siz aytganlarni aytsam, qanday odam bo'laman?..

— Ha, yaxshi, o'zing bilasan! Bunchalar soddaliging tufayli uni boshqa birov ilib ketmasin tag'in!

— Hasiba opa, sizning qiladigan ishingiz yo'qmi? Borib, ishingizni qilsangiz-chi!!!

— Sen anavi telefonga qara, boyadan beri jiringlayapti.

— Labbay, eshitaman.

— Janob Bahriga bog'lana olmadik. Bu Bahribeyning do'koni shundaymi?

— Ha, eshitaman.

— Men Efening do'stiman. Efe hozirda shifoxonada. Kutilmagan hodisa ro'y berdi.

— Efega nima bo'ldi? Ahvoli qanday? Yaxshimi Efe?

— Yana bir janjalga aralashib qolibdi. Pichoqlangan, ko'p qon yo'qotgan. Do'kondagi ishchilar orasida AB manfiy qon guruhidagilar bormi? Bilaman, topish qiyin, lekin bir umid bilan... Hamma joyda e'lon qildik, lekin yo'q. Topa olmayapmiz.

— AB manfiymi? Qaysi shifoxonada, men hozir yetib

boraman. Mening qon guruhim mos keladi.

— Biz do'kon yonidagi davlat kasalxonasidamiz.

— Yaxshi, boryapman. Yaxshiyam, otamning eski mashinasini olgan ekanman. Shoshilishim kerak.

Gulchin bir necha ko'cha naridagi kasalxonaga shoshib, endigina muyulishdan burilayotgan ediki, o'sha chiyillagan noxush ovozdan butun mahalla ingrab yuborgandek bo'ldi.

— Nimalar qilib qo'ydingiz, Asude xonim!

— Ovozingni o'chir, Sema! Tezroq rulga o'tir.

— Asude xonim, qanaqasiga, qanday qilib?

— Sema, ovozingni o'chir, avariyanı sen qilding. Men bu yerda hech qachon bo'lmaganman, tushundingmi?

— Mayli, Asude xonim, mayli. Siz aytganday bo'lsin!

Ha! Asude. Balatdagi qahvaxonada Nejatiga ko'z suzgan o'sha ayol. Yo'lini qilib Nejatining kimligini va qayerda ishlashini bilib olib, uning yoniga ketayotganida Gulchinni urib yuborgan edi. Bechora Gulchin o'zini kim va qanday urganini ham ko'rmasdan hushidan ketgan edi. "Tez yordam" va politsiya qisqa vaqt ichida yetib keldi. Shunga qaramay, Gulchinni tiqilib qolgan joyidan olib chiqish oson bo'lmadi. Soatlab behush yotgan Gulchin kasalxonada uyg'onib, o'ziga

kelganida oradan uch kun o'tgandi. Uzoq muddatli jarrohlik operatsiyasidan keyin bir necha kun hushsiz yotgan Gulchin uyg'onishi bilanoq bergan ilk savoli Efe haqida edi. Afsuski, Efe ko'p qon yo'qotishdan vafot etgan va allaqachon dafn qilingan edi. Gulchin hayratda qotib qolgan edi. Buning uchun bir muddat o'zini aybladi. Atrofga yig'lab qarardi va:

— Nejat-chi? Nejat qayerda, dada?

— Shoshma, qizim, hozir Nejatni qo'ya tur. U hozir shu yerda edi, ishga qaytishi kerak bo'lib qoldi. Ishini tugatgandan keyin yana keladi.

Asude Nejatning boshini allaqachon aylantirib olgandi, Nejati esa qaytib bo'lmaydigan yo'lga kirib bo'lgan edi. Yordamchisi aybni o'z bo'yniga olgan paytda Asude allaqachon Nejat ishlaydigan ustaxonaga qarab yo'l olgan edi.

— Usta, bir xonim sizni so'rayapti.

— Ozgina ishim qoldi, kutib tursin, hozir boraman.

— Marhamat, xonim, nima bo'ldi? Mashinangiz qayerda?

— Salom berishingizni kutgandim. Salom, Nejatbey.

— Xonim, mening ishlarim bor. Salom, bo'ldimi? Mashinangiz qayerda?

— Men mashinam uchun kelganim yo'q, Nejatbey? Siz

bilan muhim masala haqida gaplashmoqchiman. Boshqa joyda gaplashsak bo'ladimi?

— Ha, albatta! Shuni ham so'rab o'tiribsizmi? Sizdek boylarning mashinalari bizning iflos va eski ustaxonamizda nima ishi bor? O'z ishingizni qilsangiz-chi, xonim. Men bilan nimani ham gaplashar edingiz?

— Nejatbey, sizga bir ish taklifim bor.

Bu jumla nafaqat Nejatning e'tiborini tortdi, balki bu uzun suhbatdan so'ng qo'lidagi kir lattani uloqtirib, orqasiga ham qaramay: "Sizlar uchun shuncha ishlaganim yetar, endi o'z aravangizni o'zingiz torting", — deya, qiyofasiga mos bir nonko'rlik bilan chiqib ketdi. Uning ketishi hech kimni ajablantirmadi. Faqat orqasidan: "U izlagan narsasini topdi. Ming afsus!" — deyishgan edi.

Nejat Gulchinga qo'ng'iroq qilib, chet elda ish topganini, bir necha oy bu yerda bo'la olmasligini aytib aldamoqchi edi. Bir necha oydan keyin mo'may pul topgach, Gulchin bilan munosabatlarini davom ettirmoqchi, turmush qurmoqchi edi. Axir, Gulchin uni tadbirkor sifatida bilar edi-da. Biznesmenlik ishi umuman qiyin emas edi. U Gulchinga bir necha marta qo'ng'iroq qildi, lekin uning telefoni o'chirilgan edi. O'shanda Gulchin jarrohlik amaliyotida hayot uchun kurashayotganida Nejat boylik orqasidan qurgan xayollarining ichida edi.

Qizga bog'lana olmagach, telefoniga xabar qoldirgan, ammo falokat sodir bo'lgan vaqtda Gulchinning telefoni yo'qolgandi. Hamma Gulchinning o'zi bilan ovora bo'lgani uchun, sumkasi hech kimning xayoliga ham kelmagan edi. "Tez yordam" bo'limiga kirishlari bilan yuqori qavat qo'shnisi — kasal qarashga kelgan Hasan aka — zambilda kelayotgan Gulchinni ko'rib, darrov otasiga qo'ng'iroq qilgandi. Shuning uchun ham uning sumkasi yo'qligini hech kim payqamagandi.

Gulchin intiqlik bilan Nejat kelishini kutar ekan, allaqachon qorong'i tushgan edi.

— Dada, Nejatning kelishini aytgan edingiz-ku? Hali ham kelmadi. Unga kim xabar berdi? Mening telefonim qayerda? Nejatga qo'ng'iroq qilishim kerak, — dedi Gulchin.

Otasi nima deyishini bilmasdi, Gulchin hushiga kelganda vahimaga tushmasligi uchun yolg'on gapirgandi, endi esa nima deyishini bilmay:

— Qizim, bizga Hasan akang xabar berdi. Sumkangni topolmadik. Telefoning qayerdaligini bilmayman. Sening zo'riqmasliging uchun shunday degan edim. Ishonchim komil, u ham hozir seni o'ylayotgandir. Kechirasan, qizim, unga xabar berish xayolimizga ham kelmadi. Agar sen u bilan bizni tanishtirganingda edi, bizda ham uning telefon raqami bo'lardi, balki, unga albatta xabar bergan bo'lardik. Shirkatining no-

mini ham bilmayman, bularni bizga aytmagan eding-ku, axir.

— 05...

— Qizim, eslolmaysanmi?

— Yo'q, dada, axir, bilasiz-ku, hech bir telefon raqamini yodda saqlay olmayman. Faqat sizning telefon raqamingizni yoddan bilaman, xolos.

— Oh, qizim. Mayli, go'zal qizim, o'ylanma. Menga shirkatining nomini ayt, ertaga ertalabdanoq borib xabar bera-man. U ham juda xavotir olgan bo'lsa kerak. Buni sira xayoli-mizga keltirmabmiz, aybga buyurma, qizim.

— Haligi...

— Xo'sh, qizim?

— Dada, u bilan ishi haqida hech qachon gaplashmagan-man. Men shirkatining nomini bilmayman.

— Qanaqasiga? Shunday bo'lishi mumkinmi? Shunchaki ko'r-ko'rona, tanimasdan-bilmasdan sevdidingmi?

“Sevgi ko'zni ko'r qiladi”, — deganlari shu bo'lsa kerak. Ba'zida insonlar shundayligicha, boshqa hech narsaga qara-masdan bir-birlarini sevishardi. U bilan o'tkazgan har bir lahzasini, har bir xayolini hech o'ylamay, so'roq qilmay sevish-da davom etardi. Onasining o'limdan keyin ota va qiz hayot-

ning barcha tashvishi-yu xursandchiligini birgalikda o'tkazayotgandi, go'yoki yaqin do'stdek bo'lishgandi.

— Dada, Hasibe opa...

— Nima bo'libdi, qizim, Hasibe opaga?

— Nejat qayerda ishlashimni bilar edi. Meni ko'p marta o'sha yerdan olib ketgandi. Hasibe opaga qo'ng'iroq qilishimiz kerak. Agar do'konga borgan bo'lsa, albatta, men haqimda so'ragan bo'lsa kerak.

Nejat o'sha kuni xabariga javob olmagach, qayta Gulchinga qo'ng'iroq qilmagan edi. Chunki Asude bilan suhbatdan keyingi jozibali dunyo haqida o'ylari tufayli Gulchin uning xayoliga ham kelmagan edi.

Asude xonimning kompaniyasi juda mashhur avtomobil kompaniyasi edi. Nejat ertasigayoq ishni boshlagan edi va o'sha kuni, Asude xonim taklif qilganidek, kompaniyaning chet eldagi yig'ilishiga borish uchun samolyotga chiqdi. Bu vaqt mobaynida Gulchinga ko'p marta qo'ng'iroq qildi, lekin Gulchinning telefoni o'chirilgan edi. "Qo'ng'iroqlarimni ko'rsa, Gulchin, albatta, menga qo'ng'iroq qiladi", — degan o'y bilan xotirjam bo'lib, Gulchinni aslo o'ylamasdi.

Bir haftalik xalqaro uchrashuvlardan so'ng Nejat va Asude bir-birlariga oshiq bo'lib qolishgandi. Asude o'zi xohlagan

narsasini qilish uchun hech narsadan tap tortmaydigan ayol edi. Nejatni qo'lga kiritishni bir maqsad qilgandi, unga ham erishgan edi. U uchun deyarli hamma narsada muvaffaqiyati muqarrar edi. Nejat Asudening go'zalligi va boyligi oldida: "Balki, Gulchinga qayta-qayta qo'ng'iroq qilmaslik yaxshiroqdir. Ustiga-ustak, o'zi ham sassiz-sadosiz jim bo'lib qoldi-ku", — deya o'ylanib, bo'lgan voqealarni xayoliga keltirmay Gulchinni tark etgan edi.

Kunlar o'tdi. Haftalar o'tdi. Oylar o'tdi, lekin Nejatdan xabar yo'q edi. Bu vaqt ichida Gulchin qilingan barcha muolajalarga qaramay yurish qobiliyatini yo'qotdi va bundan ruhiy tushkunlikka tushib:

— Agar meni topsa, keyin nima ham bo'ladi? Men kabi nogironni kim ham xohlardi? Balki, mening ahvolimni bilib olgan va shuning uchun ataylab qo'ng'iroq qilmayotgandir. Balki, aslida, hech qachon meni sevmagandir. Eng yaxshisi, uni unutishdir. Menga yordam ber, Ey Allohim, — deya duo qila boshladi.

Gulchin davolanish uchun haftada uch kun reabilitatsiya markaziga borayotgan bo'lsa-da, tuzalish uchun aslo intilmayotgan edi. Bir kun har doimgidek davolanish uchun shifoxonaga borganida o'zini o'zi davolash seansiga to'g'ri kelib qoldi. U bu seansga kirishni istamadi, lekin otasi va shifokori-

ning iltimosini yerda qoldira olmadi.

— Qizim, iltimos, kir. Qara, hali hammasi yaxshi bo'ldi. Men seni tashqarida kutaman. Sen ichkariga kir.

— Bu oyoqlarim bilanmi, dada? Meni kuldirmang.

— Kel, qizim, sen ham meni xafa qilma. Men bog'da toza havo olaman, orada sendan xabar olib turaman.

— Yaxshi, dada, yaxshi. Siz uchun kiraman.

— Men uchun emas, qizim, o'zing uchun. Jarohatlarning yo'qolishi uchun, ertangi kunlaring uchun. Qani, tabassum qil-chi endi.

Gulchinning yuzi bir necha oydan beri birinchi marta kuldi. Gulchin shu paytgacha otasining kuldirish uchun qilgan harakatlariga aslo e'tibor qaratmagandi. U bu seansga kirganlarning — o'zi kabi nogiron bo'lib qolgan, lekin kurashib tuzalib ketgan bemorlarning — xotiralarini tinglab, ularning hazil-mutoyibalariga va u yerda kulayotgan odamlarga biroz hamroh bo'lib tabassum qilayotgandi. Uni bunchalik kulishiga sabab bo'lgan odamning ismi Bulent edi.

Bulent ikki yil oldin avtohalokatga uchragan, hech qachon yurolmaslik tashxisi qo'yilgan, biroq qisqa fursatda o'z irodasi bilan o'rnidan turgan eng yosh bemor edi. Gulchin bundan bexabar edi, lekin Bulent uni juda yoqtirgandi. Gul-

chin o'sha kuni o'zini juda baxtli his qilib uyga qaytgan edi. Qizining bu holatidan otasi ham juda xursand bo'ldi. Shifokordan: "O'sha yosh yigitdan so'rab ko'ring-chi: bu yerga qizim Gulchin keladigan kunlari ham kela olarmikan?" — deb so'radi. Gulchin o'sha kuni o'zi bilmagan holda Bulentdan ruhiy quvvat olgan edi. U yotgan joyida Bulent uchun duo qilgan edi. "Baxtli bo'lsin, qanday yaxshi yigit ekan", — deya xo'rsinib qo'ygan edi.

Gulchin ham unga yoqqan edi, ammo Gulchinning o'zi buni xayoliga ham keltirmoqchi emas edi.

Bulent shifokorning iltimosini eshitgach, duosi ijobat bo'lib, darrov qabul bo'lganidan juda xursand bo'ldi, chunki Gulchinni ko'rganida shunchalik duo qilgandiki, natijada taqdirlari bir-biriga tutashgan edi. U muolajalar davomida Gulchinga hamrohlik qildi. Gulchin nega bunaqa qilayotganini so'rganida bu jarayon shifoxonaning kichik bir tajribasi ekanligini uqtirib yolg'on gapirishdi. Gulchin salgina tuzalishni boshlashi bilan Nejatni o'ylardi. Shunda qilingan barcha muolajalar behuda ketardi. Nejatga bo'lgan muhabbati o'z o'rnini nafratga bo'shatib bergan bo'lsa-da, Nejat uning qalbidagi bir yara edi.

Gulchin Bulent tufayli hayotga yana tabassum qila oldi. Umidning beshinchi fasli sifatida ko'rgan insoni uni tark etdi,

lekin u Bulentdan umidvor edi. Avvaliga bu holatdan bexabar edi. Oradan oylar o'tdi, endi Gulchin sekin-asta qadam qo'ya boshladi. Borgan sari yaxshilanib borardi. Muolaja tugagach, to'liq yura boshlaganida birinchi uchrashuvda qiynalsa ham, tez-tez qadam tashlab, Bulentning bo'ynidan quchoqladi :

— Hammasi siz tufayli yaxshilandi. Rahmat Bulent, yaxshiyamki, borsiz. Siz umidimning beshinchi mavsumisiz.

— Gulchin, menga turmushga chiqasanmi?

— Bulent?..

— Ha, hozir buni senga to'satdan taklif qilyapman. Gulchin, umringning oxiriga qadar men bilan birga hayotingni baham ko'rishga rozimisan?

Gulchin hayratlanganidan nima qilishni bilmay qoldi. Umriga hech kutilmagan paytda kutilmagan qiyofada yana bir kutilmagan bir lahza qo'shilgan edi. U bir necha daqiqa Bulentga tikilib qoldi va:

— Ha!.. Ha!.. Ha!.. — deya javob qaytardi.

To'y kuni yaqinlashib qoldi. Taklifnomalar ham tayyorlandi, deyarli hamma narsa hal qilingan edi. Nihoyat, sochini turmaklatish uchun sartarosh tanlashga ketayotgan edi, yo'lda Nejatni uchratib qoldi.

Asude Nejatdan zerikib, qashshoqligini yuziga solib, o'zi-

dan uzoqlashtirayotgan edi, chunki Asude allaqachon yangi "ermak" ning ortidan ketishga tayyorlanayotgandi. Nejat endi u uchun bir to'g'onoq. Bu holatni tushunib yetgan Nejat cho'ntagi bo'shligi tufayli, avval ustaxonaga, keyin esa Gulchin yashaydigan mahallaga bordi. Nejat Gulchindan bir necha mahalla uzoqda yashasa-da, unga tadbirkorligi haqida yolg'on gapirganidan kundan boshlab to bugungacha shu yolg'onining ortidan sudralib yurardi.

Qarshisida Nejatni ko'rishi bilan aqldan ozgan Gulchin:

— Qaysi yuz bilan...? Mening qarshimga qaysi yuz bilan chiqyapsan?

— Eshit, Gulchin...

— Nimani eshitaman, menga qilganlaringni ko'rmayapsanmi?

— Sen hali ham avvalgidek go'zalsan, Gulchin.

— Nejat, qachon bunchalik takabbur bo'lib qolding? Qayerda eding? Men bularning hammasini boshdan kechirganimda qayerda eding? Bu yerdan ket!

— Hammasining sababi bor, Gulchin. Iltimos, shuncha-ki meni eshit.

— Ba'zan hayotda ba'zi narsalarning izohi bo'lmaydi. Masalan, sendagi takabburlikning, noshukurlikning, boylikka

oʻchlikning! Sendagi yolgʻonchilikning, aldoqchilikning, ikkiyuzlamachilikning... Bu yerdan ket! Uch kundan keyin toʻyim, iltimos, ket!

Hayot oʻzida yigʻilgan kechinmalari, tajribalarini yigʻib, bir kuni kutilmaganda bizni qusishga majbur qiladi. “Qadrlagan qadrlanar” maqoli ham bugungi kunda oʻz maʼnosini yoʻqotib, endi haddidan oshgan insonlar uchun aytiladigan eng munosib hikmatga aylanib qolgan. Hayot xuddi ushbu oxirgi hikoyamdagidek — goh achchiq, goh shirin, gohida shafqatsiz, gohida yengil-yelpi filmlardagi voqealardek — boʻlsa ham, baribir, yashashga arziydi. Agar umidimizni yoʻqotmasak, albatta. Umid har doim beshinchi mavsumga loyiqdir. Hikoyaning davomiga qiziqyapsiz, shundaymi? Baʼzi hikoyalarni oʻzimiz tugatmasak, boshqalar tugata olmaydi. Baʼzilari esa endi boshlanadi. Kim biladi, balki, keyingi kitobda davom ettirarmiz.. Xoʻsh, nima deysiz?

Yillar davomida siz bilan shaxsiy fikrlarimni va dardlarimni baham koʻrdim. Bu safar esa yangi bir fikr bilan — shu paytgacha yozib, toʻplagan hikoyalarim bilan — “umid bor” ekanligini sizga taʼkidlayapman. Umid bor. Hattoki, umidimizni uzganimizda, kurashdan voz kechganimizda Alloh qarshimizga shunday moʻjizalarni chiqaradiki, bular umidimizning beshinchi fasliga aylanadi. Axir, hech kim kelajakni koʻra olmaydi-ku, ertaga nima deyishimizni, nimalarni koʻri-

shimizni, yana qancha umidimiz borligini hech kim ko'ra olmaydi-ku. Duo bilan, yaxshi niyat bilan yashashda davom etsak, bas: umid har doim biz bilan birga bo'ladi.

“Mukammal yozuvchiman”, — deya da'vo qilmayman. Yozar ekanman, goh his-tuyg'ularga berildim, goh tabassum qildim. Hikoyalarimni va qahramonlarimni men kabi qabul qilishingizga umid qilaman. Sevgi va ishonch bilan yashashda davom eting, umidingizni aslo yo'qotmang!

MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY OLGAN
KITOBLAR

SONGUL UNSAL
UMIDNING BESHINCHI MAVSUMI

Tarjimonlar:

Aziza XUSANBOEVA
Risolat IBRAGIMOVA

Bosh muharrir:

Nashrga tayyorlovchi:

Musahhih:

Kompyuterda sahifalovchi:

“BEST-BOOK” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Olimpos” nashriyoti bilan “Akdem Telif Haklari ve Tercüme” agentligi vositachiligida 2022-yil 3-yanvarda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Agar kitobning orqa muqovasida qalbakilashtirishdan himoyalovchi vosita gologramma bo‘lmasa, demak, bu kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qilishingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo‘lamiz va sizga kitob sovg‘a qilamiz.

Litsenziya raqami AA № 2549. 28.03.2022 da berilgan.
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 44A-uy

Bosishga 07.04.2022 yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108 ^{1/32} .
Bosma tobog‘i – 5,5. Garnitura – «Times New Roman».
Qog‘oz – ofset bosma. Adadi 1500 nusxa. Buyurtma raqami 22-01.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Dizayn-Print” MChJ O‘ICHK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100054. Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.
“Xasanov Farxod” YTTda muqovalandi.
Manzil: 100054. Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

TEZ KUN

A



Book Pressni ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib boring.



[/press.book](https://www.instagram.com/press.book)



Inson qayta turolmaydigan darajada yiqilsa ham bir kuni yana oyoqqa turishga umid qiladi, chunki umid qilmoq Yaratgan taslim bo'lishning eng chiroyli ko'rinishidir.

O'rnimizdan turish uchun harakatga tushamiz, hammasini qaytadan boshlash kerakligini bilamiz. Aynan shu onda o'tmish xotiralari saboq olib, kelajakning baxtli kunlarini orzu qila boshlaymiz.

Ba'zida kichik bir jasorat hammasini o'z o'rniga tushirish uchun kifoya qiladi. Eng qiyin vaziyatlarda ham chiqish yo'li har doim mavjud bo'lgan. O'zingizni zulmatda qoldirmang, o'zingizni tark etmang. Tark etsangiz, hech kim qalbingizga yaqinlasha olmaydi.

Ertangi kuningiz tabassum qilsin. Siz ushbu beshinchi mavsumga eng munosib insonsiz. Har bir inson qalbida o'z mavsumini olib yuradi. Ular beshinchi mavsumni hayotiy tajribalari bilan o'z olamiga uyg'unlashtiradi.

Hayot kimgadir yoz, kimgadir qish, kimgadir bahor kabidir. Sabr qilganlarga esa har doim gullar bilan burkangan yo'llar nasib etadi.

Duo, umid va sabr bilan go'zal qalbini to'ldirgan insonlarning so'ngi mavsumi har doim bahor bo'ladi.



ISBN 978-9943-8134-3-4



9 789943 813434